

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI  
MARKAZI**

**S. ABDIRASILOV, N. TOLIPOV**

# **RANGTASVIR**

*Kasb-hunar kollejlari uchun  
o'quv qo'llanma*

TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2017

UO‘K 75  
KBK 85.14  
A-14

### Taqrizchi:

*N. Abdusalomxo‘jayev* – tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsent v.b., O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasining a’zosi.

*A. Akbarxo‘jaev* – K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasining a’zosi.

Rangtasvir [Matn]: o‘quv qo‘llanma/.  
A-14 S. Abdirasilov, N. Tolipov. – Toshkent: «NISO-Poligraf», 2017. – 160-b.  
ISBN 978-9943-4868-7-4

Mazkur o‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun tuzilgan bo‘lib, tasviriy san’atning yetakchi bo‘g‘ini hisoblangan «Rangtasvir» fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni kengroq berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan. Qo‘llanmadagi mashg‘ulot mavzulari xalqimiz milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

UO‘K 75  
KBK 85.14

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4868-7-4

© S. Abdirasilov, N. Tolipov, 2017  
© «NISO POLIGRAF», 2017

---

## MUQADDIMA

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san'at muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak rassom – o'qituvchi, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materialarning xususiyatlari va ularning foydalanish yo'llarini mukammal egallashi shart. O'qituvchi qalam va bo'yoqlar bilan rasm ishlash malakasiga ega bo'lish bilan birga, shu sohadagi nazariy hamda amaliy bilimlarini o'quvchilarga yetkaza olishi ham zarur. Ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy, amaliy, metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritilgan.

Oddiy geometrik jismdan tashkil topgan naturmortdan boshlab, vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va materiali har xil bo'lgan bir qator buyumlardan iborat natumortlar tuzib, ularni tasvirlash rassomchilik sirlarini o'rgatishda ishonchli va sinalgan yo'l hisoblanadi. Ushbu qo'llanma tasvirlash qonuniyatlarini mustaqil o'rganuvchilar uchun ham juda qulaydir.

## RANGTASVIRNING RIVOJLANISH TARIXI

Rangtasvir – tasviriylar san’at turlaridan biri bo‘lib, unda muhim o‘rinni rang egallaydi.

Rangtasvirga qattiq tekislik yuzasiga bo‘yoqlar orqali tushirilgan san’at asarlari kiradi.

Rangtasvir hayotni jonli, ya’ni borliqning to‘liq va ishonarli tarzda tasvirlanishini bildiradi.

Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko‘ra monumental, dastgohli, miniatura, teatr-dekoratsiyasi, bezakli naqqoshlik va boshqa turlarga bo‘linadi.


Ularning har bir turi ishslash texnikasi va badiiy obrazining bajarilish vazifasiga ko‘ra o‘z xususiyatiga bog‘liq holda farqlanadi. Rangtasvirning badiiy obrazi ko‘rgazmali va aniq-ravshandir. Rassomlar asarni tasviriy va plastik vositalar (qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko‘rsatuvchi vosita esa rang hisoblanadi.

Rangtasvir inson hissiyotining murakkabligini ko‘rsatishga, tabiatdagi nozik o‘zgarishlarni tasvirlashga, boqiy falsafiy g‘oyalarni va fantastik obrazlarni yaratishga qodir.


Rangtasvir tarixi ibridoiy odamlarning g‘orlardagi devor tasvirlaridan boshlanadi.

Uning rivojlanish taraqqiyotida juda katta ma’naviy boyliklar yig‘ilgan. O‘rtalik Osiyodan topilgan devoriy rangtasvirlar miloddan avvalgi VII–V asrlarga oid bo‘lib, bir vaqtning o‘zida o‘sha davr hayoti tasviri aks etgan rangtasvir namunasi ham milliy iftixon hisoblanadi.

Ranglar shartli va dekorativ tarzda bezatilgan. Uyg‘onish davriga kelib inson rangtasvir asarlarida



1-rasm. Devoriy rangtasvir. Yaralangan bizon va o'lgan ovchi. Lasko g'orlari, Fransiya. Paleolitning so'nggi davri.



2-rasm. Devoriy rangtasvir. Ovchilar guruhi. Valtorta darasi. Ispaniya. Mezolit.

*3-rasm.* Samarqanddagi Afrosiyob devorlaridagi rasmalar.



asosiy qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Madonalarni tasvirlash barkamollikning yuksak ideali hisoblanadi. Rassomlar haqqoniy kartinalar yaratishni boshladilar. Rangtasvir texnikasi doim takomillashib bordi. Rangtasvirchilarni rang-barang sujetlar qiziqtira boshladi. Bu XVII asrda janrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Eng qadimiy janrlardan biri bu – portret janri hisoblangan. Mum rangtasviri texnikasida bajarilgan ajoyib portretlar Fayyum qishloq joyidan topilgan. Ular Qadimgi Misrda eramizdan avvalgi III–I asrlarda yaratilgan. Fayyum portretlari aniq hayotiy obrazliliги, shaklining hajmli yorug‘-soyali tasvirlanishi bilan farqlidir.

Har bir portretda nafaqat tashqi o‘xshashlik, balki insonning ichki psixologik dunyosini – oqil, histuyg‘uga boy, olivjanob xususiyatlari yuqori badiiylikda, o‘ziga xos uslubda tasvirlangan.

Taniqli o‘zbek musavvirlarimiz ham portret janrida samarali yutuqlarga erishishdi.

Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi miniaturachi rassomlar o‘zbek tasviriy san’atida chuqur iz qoldirdilar. San’at darg‘alaridan M. Nabihev, L. Abdullayev, A. Abdullayev, R. Ahmedov, M. Saidov, M. Oganesov, N. Qo‘ziboyev, Ch. Axmarov kabi yetuk rassomlarning portret janridagi izlanishlari nihoyatda bebahodir.

Portretda tugallik – tasvirning yaxlitligi va ifodaliligidadir. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, portret ishlashda bildiriladigan ushbu fikrni tayyor retsept deb qabul qilmaslik kerak.



4-rasm. Oltin  
tojdagi yig'it  
portreti.



5-rasm.  
K. Behzod. Shaybonixon  
portreti.

Faqatgina nazariy bilim bilan savodli tasvir ishlab bo'lmaydi. Bildirilgan fikrlar portret ishlashda yo'l qo'yiladigan asosiy xatolarning oldini olishga qaratilgandir.

Albatta, portret janrida ijodkor ichki psixologik holatni to'g'ri tasvirlashga erishishi uchun yuksak iste'dod, mahorat va katta tajriba kerak bo'ladi. Portret rangtasvirini o'rganishda e'tiboringizga bir qancha tavsiyalar havola etiladi. Ushbu tavsiyalar mashg'ulotlarda diqqat va jiddiylik bilan qo'llanilsa, portret rangtasvirini suvbo'yqda ishlash sekin-asta ijodiy tus oladi.

Rangni turlicha qabul qilish, rang bilan fikrlash va loyihalash mumkin. Rangshunoslik asoslarini, «rang» bilan «bo'yoq» tushunchalarining farqini o'rganish lozim. Rangtasvida kerak bo'lgan rangni, odatda, palitrada bo'yoqlarni aralashtirish orqali hosil qilinadi.

Keyin rassom kartina tekisligida bo‘yoqning ranglar majmua-sini – koloritini yaratib, rangga aylantiradi. «Rang» so‘zining o‘zi bitta, lekin rangtasvir jarayonini ko‘pchilik sifatini belgilaydi, shuning uchun rang ushbu san’at turining asosi bo‘lib hisoblanishiga haqlidir.

Tasavvur qiling, agar barcha ranglar hayotimizdan yo‘qolib ketsa, unda biz faqat oqimtir kulrangni ko‘ramiz. Qandaydir ma’yus, birxillik va biz odatlanmagan surat hosil bo‘ladi. Demak, rang bizning hayotimizda qanchalik muhim o‘rinni egallashi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi.

Har bir buyum o‘z rangiga ega. Ayrim obyektlarni ranglar orqali idrok etamiz. Masalan, uchta dumaloq shaklli va o‘lchami bo‘yicha ham bir xil obyektni olamiz. Ularni taalluqli ranglarga bo‘yab, xohlasangiz zarg‘aldoq apelsin, qizil pomidor yoki yashil olmaga aylantirish mumkin.

Dunyoning barcha go‘zalligini, shakl va material, kenglik va yorug‘ligini ranglarning turli-tumanligi orqali ko‘ramiz.

Rang – bu ko‘rish xususiyati anglagan narsalardagi ko‘rinayotgan belgilardan biri.

Har doim yilning turli fasllaridagi jonli tabiatning rang-barangligi bizlarni o‘zgacha quvontiradi. Har bir yil fasllariga taalluqli bo‘lgan bo‘yoqlarning aralashgan palitrasи mavjud. Siz o‘z tanlovingizni bahorgi nozik



6-rasm.  
L. Abdullayev.  
Maqsud Shayxzoda  
portreti.

va yozgi tiniq bo‘yoqlar, yorqin kuzgi va qishki xiralashgan tuslarga qaratishingiz mumkin. Ijodiy ishlarda, albatta, ranglar monandligi prinsiplariga asoslaning, o‘sanda bajarilgan suratlar haqiqatan ham jozibali chiqadi.

Yaponiyada, masalan, «Kabuki ranglari» – qarag‘ay ignasining to‘q yashil rangi, tog‘larning jigarrang rangi, sakuraning pushti rangi hisoblanadi, G‘arb ranglari bilan solishtirganda yorqin emasdek tuyuladi. Biroq bir-biri bilan aralashtirilganda Yaponianing o‘ziga xos boy jozibali ranglari hosil bo‘ladi, G‘arbning standartlariga ko‘ra bu ranglar hamohang emas (uyg‘unlashmagan).

Ranglar insonni nafaqat xursand qiladi, ayrim hollarda g‘azablantirishi (achchiqlanish), tashvishga solishi (vahima), qo‘msash (sog‘inish) yoki xafalik (qayg‘u) keltirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, rang insonga emotsional ta’sir etadi.



7-rasm. D.  
Mursalimov. Qiz  
portreti.

Ayrim ranglar asab sistemasini tinchlantirsa, boshqalari, aksincha, g‘azablantiradi. Tinchlantiruvchi ranglar: yashil, havorang, ko‘k bo‘lsa, to‘lqinlantiruvchilari esa – qirmizi, qizil, zarg‘aldoq, sariq ranglar hisoblanadi.

Odamlar qadimdan ranglarga nisbatan alohida munosabatda bo‘lib kelganlar. O‘rta asrlarda qirmizi ranglar – kuch-qudrat, qadr-qimmatni; lojuvard (havorang) rang esa – go‘zallik,

ulug‘vorlik, muloyimlikni; qora va qizil ranglar aralashmasi – o‘lim va h.k.larni bildirgan.

Marosim va to‘y shodiyonalardagi ranglar katta ahamiyatga ega. Masalan, qizil rang – tantanavorlik, ulug‘vorlikni; qora – kulfat, o‘lim, qayg‘uni; oq – tozalik, aybsizlikni; yashil – umidvorlik va ishonch kabilarni anglatgan. Qizig‘i shundaki, turli xalqlarda bir xil rang turli ramziy ahamiyatga ega. Masalan, Xitoyda va ayrim Osiyo va Afrika mamlakatlarida oq rang motam rangi hisoblanadi. Slavyan xalqlari esa o‘liklarga oq kiyim kiydirishgan.

## **RANGTASVIR ASHYOLARINING XUSUSIYATLARI HAQIDA**

*(akvarel, guash, tempera va moybo ‘yoq)*

### **AKVAREL BILAN ISHLASH**

Akvarel – rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o‘zining nafisligi va ranglarining yorqinligi bilan ko‘pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan.

Akvarel lotincha so‘z bo‘lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo‘yoqlar» ma’nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo‘yoq moddasi (o‘simplik yoki ma’danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda sifatida olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo‘lgani uchun bo‘yoqqa suv qo‘shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi, uning o‘rnini oq qog‘ozning o‘zi o‘taydi. Qog‘oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budur bo‘lishi zarur. Agar juda silliq bo‘lsa, uning sathida ranglar yetarli darajada tekis yotmaydi. Narsa va buyum tasvirlarini bo‘yash

jarayonida umumiyyadan xususiyga yoki aksincha xusu- siydan umumiyyaga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi (1-rangli rasm).

Rassom uchun eng muhim o'tkir nigoh, mohir qo'l, tinimsiz mehnat orqali akvarel bilan ishslash texnikasini mukammal egallashdir. Bunga tarixdan juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Masalan, XV asr oxirida Uyg'onish davrining mashhur nemis rassomi A. Dyurer akvarelda juda ko'plab ajoyib asarlar yaratgan. Go'zal va betakror tabiat manzaralari, hayvonot dunyosi va o'simliklarni ajoyib qilib tasvirlash, shu mo'yqalam sohibining naqadar yuksak mahorat egasi bo'lganligi isboti sanaladi (2-rangli rasm).

Rangtasvir texnikasini egallovchi birinchi bosqich o'quvchilari akvarel texnikasida ishslashni o'qituvchi rahbarligida boshlang'ich sessiya davrida o'rganadilar. Kasb-hunar kollejlarining o'quv dasturi o'quvchilardan rangshunoslik fanining ilmiy negizlarini egallashni, rangtasvirda ishlatiladigan turli ashyolarning xususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo'llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun dastur amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtihon paytida esa amaliy vazifalar ko'riganidan tashqari, og'zaki so'rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir san'ati nazariyasi va usullarini o'rganishdan maqsad vazifalarni mukammal bajarib borishdir. O'quvchilar auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim.

Naturmortning qalamtasvirini bajarishga qo'yiladi-gan talablar, narsalarning hajmli shaklini tasvirlashdan iborat bo'lsa, bo'yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning

qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug‘-soya, tus hamda rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat och-to‘qligini ko‘rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar butun majmuasi va barcha sifatlari bilan namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bo‘yoqlar bilan tasvirlashda narsa va buyumlar o‘zining aniq rangi bilan emas, balki atrofdagi boshqa turli ranglar bilan bog‘lanishda ko‘zga ko‘ringan rangda ifodalanadi.

Ko‘zimiz ko‘ra oladigan tabiatdagি hamma ranglar ni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo‘lish mumkin (3-rangli rasm).

Oqdan to‘q qoragacha bo‘lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtilr, qora, to‘q qora), qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko‘k va h.k.) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar, o‘z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo‘linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg‘aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko‘k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko‘k ranglar aralashmasidan, binafsha rang esa qizil va ko‘k rangni aralashtirishdan hosil bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglar aralashmasidan hosil bo‘lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko‘proq bo‘lsa, hosil bo‘lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko‘proq bo‘lsa, sovuq ranglar qatoriga o‘tishi mumkin. Xuddi shunday, binafsha rangda qizil rang ko‘proq bo‘lsa issiq,

ko‘k rang ko‘proq bo‘lsa sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, naturmortning rangtasvirini ishlashda qo‘yilmadagi narsa va buyumlarning yorug‘-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to‘g‘ri bajarish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo‘r mushohada orqali erishish mumkin.

Naturmortdagи narsalarning och-to‘qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o‘rganish uchun naturmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natumortlarning rangli tasvirini bajarishga o‘tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangli bo‘yoqda yozish usuli grizayl deb ataladi. Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o‘tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mo‘yqalamni ishlatish yo‘llari va akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu uslub bilan bir nechta naturmortlarni tasvirlab o‘rgangandan so‘ng, barcha rang xillari bilan naturmort rangtasvirini ishlashga o‘tish mumkin.

## GUASH BILAN ISHLASH

Guash bo‘yoqlari akvarelga nisbatan ko‘rimsiz, narsiz, tiniq emas. Guash bo‘yoqlarining tarkibida ham akvarel bo‘yoqlari singari moddalar (pigment va bog‘lovchi) mavjud. Chunki uning har bir rangini tayyorlashda turli miqdorda oq bo‘yoq (belila) qo‘shilgan bo‘ladi. Aynan guash bo‘yoqlarida bajarilgan tasvir qurigach, birmuncha mayin va oqimtir ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Guash bo‘yoqlari suvda oson eriydi, tekislikni silliq qoplaydi va nursiz bo‘lib ko‘ringanligi uchun ulardan asosan amaliy bezak san’atida foydalaniladi. Guash bilan ishlash qiyindir, chunki bo‘yoqlar quri-gach oqaradi, shuning uchun rassom ranglardagi jiloni avvaldan tasavvur qilish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Guash bilan ishslashda tayyor murakkab bo‘yoqlarda ish olib borgan afzalroq, u ham oldindan ranglar qo‘silmasidan tayyorlanib sinab ko‘rilgan bo‘ladi: tasvirlashdan oldin asarning rang yechimi asosini ta’riflaydigan asosiy ranglar aniqlanadi. Tayyor murakkab bo‘yoqlarni aralashtirish orqali ikki rang o‘rtasidagi tuslarni hosil qilish mumkin. Oldindan tayyorlangan zarur bo‘yoqlardan monumental naqshlarda, plakatlarda va turli bezatish ishlarida unumli foydalanish mumkin.

Etudda guash bo‘yoqlari bilan nozik tusli o‘tishlarni namoyish etish (masalan, inson gavdasini tasvirlashda), shaklni tuzish uchun yuqori malaka talab etiladi. Qisqa muddatli etudni bajarishda (masalan, naturmort, manzara, portret) va turli kompozitsiyalarga eskizlar ishslashda xamirsimon va yupqa qatlam qoplash birligida quruq qatlam bo‘yicha ish yurgiziladi hamda muallif g‘oyasiga muvofiq rangli dog‘ o‘yinini yaratib, surtma uslubida tasvirlash o‘rinlidir (4–5-rangli rasmlar).

Taniqli rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatib, guash texnikasidan foydalanish qanchalik rang-barang ekanligini ko‘rish mumkin.

Z. Faxriddinov o‘z asarlarida guashda tasvirlashning yuksak imkoniyatlarini ko‘rsata olgan. Uning «Zulmat va ziyo» (8-rasm) asari mayin, kumush kulrang, havo rang gammada ifodalangan. Kenglik, havo, bulutlar

juda mohirona tasvirlangan. Yorqinlik, erkin surtma, yupqa qatlamlı tasvirlash texnikasiga xos. Rassom bu asari orqali din va xurofot kuchaygan davrni to'laqonli ochib bergen. Asarni tahlil etadigan bo'lsak, rassom bulutlarni tasvirlashda suvli qoplash usulini qo'llagan. Hosil bo'lган nozik oqish ranglar bulutlarning mayinligi va yengilligi ta'sirini oshirishda katta yordam beradi. Ranglar yechimidagi vazminlik va tusning mahorat bilan topilishi tufayli harakatdagi tasvirlar yig'indisi bulut fonida umumlashtirilgan siluet tarzida ko'rindi.



8-rasm. Z. Faxriddinov. Zulmat va ziyo.

Ch. Ahmarovning kompozitsiya eskizi uchun ishlangan «Qays va Layli» asari kartonda bajarilgan bo‘lib, guash bilan tasvirlashning rang-barang usulini namoyon etadi. Qays o‘z sevgilisi Layliga sevgi izhori sifatida atirgul taqdim qilmoqda. Rassom o‘z asarida kompozitsiya yechimini mohirona tasvirlagan. Asosiy rang gammasi sovuq tusda bo‘lib, ochiq havo rang, siyoh rang va och sariq tuslardan unumli foydalangan (9-rasm).



*9-rasm. Ch. Axmarov. «Qays va Layli».*

Rangtasvir ustalari akvarel ishlarida tez-tez guash rangidan foydalanib, kartinaning ayrim qismlarini tasvirlaydilar. Bunga musavvirlar Q. Basharov, T. Muhammedov, J. Umarbekovlarning bir qancha ishlari misol bo‘la oladi.

Guash bo‘yoqlaridan teatr dekoratsiyasi eskizlarini, manzara, interyer, uy jihozlari va buyumlarini umumlashtirilgan holda hamda sahnalardagi yoritqichlarning keskin farqlarini yetkazishda keng ko‘lamda foydalaniladi. Aktyorlar kiyimlarining eskizlari ham ko‘proq guashda bajariladi, chunki u yorqin tus berishi bilan birga uning yuzida jozibali naqshlar tasvirlashga ham imkon tug‘iladi.

Bezak ishlari uchun fluoressentli guash bo‘yoqlari ishlab chiqarilmoqda.

Bu bo‘yoqlar ultrabinafsha va ko‘zga ko‘rinarli binafsha, ko‘k va yashil nurlar ta’sirida fluoresslanish qobiliyatiga ega. Pigmentda aks etgan yorug‘lik – sariq, zarg‘aldoq va qizil nurlar kunduz kuni tushayotgan yorug‘likdagiga nisbatan ko‘proq bo‘ladi, shular hisobiga bo‘yoqlar yorqinligi va to‘yinganligi ikki-uch barobar kuchayadi.

Fluorescent guashi sun’iy yoritishda (ultrabinafsha nurlari bilan nurlantirilganda) o‘zining yorqinligini kuchaytirish xususiyatiga ega, shuning uchun dekoratsiya effektlari hamda qorong‘ilikni ifodalashda foydalaniladi.

Bo‘yoqlarni ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirish uchun, odatda, kvars lampalari bilan birgalikda ultrabinafsha yoritqich filtrlar qo‘llaniladi. Bunday nozik yoritish ko‘k, yashil va binafsha tuslarning ancha yorqin va to‘yinganliroq bo‘lishiga imkon beradi, kunduzgi yoritqichlarda ularning yorqinligi pastroq bo‘ladi. Oq bo‘yoqni yoritish natijasida ko‘kimtir nurlanish beradi.

### *Amaliy maslahatlar*

Guash bo‘yoqlari suvda suyuq qaymoqsimon holatga kelguncha aralashtiriladi. Guashni qog‘ozga yoki mato ustiga yupqa silliq qoplanishi uchun, dastlabki qatlamning namligida ustma-ust boshqa rang bilan bo‘yash lozim.

Tekislikni rang qatlami bilan silliq bo‘yash uchun, dastlab mo‘yqalam suvda ho‘llanadi, keyin esa u bilan bo‘yoqni olish mumkin. Ishni boshlashdan oldin bo‘yoqlar alohida kosachalarda eritib olinadi, so‘ngra undan me’yorida foydalaniladi.

Ishlash jarayonida zarur tuzatishlar faqat bo‘yoqlar namlangach yoki o‘tkir olmos bilan amalga oshiriladi.

Guash bilan ishlashda yumshoq, yapaloq va yumaloq egiluvchan mo‘yqalamlar qo‘llaniladi. Ayrim rassomlar esa egiluvchan yumaloq yoki dag‘al junli mo‘yqalamlardan foydalanishadi.

Guash bo‘yoqlari bilan ishlashda asosiy qiyinchilik bo‘yoq qurishi natijasida yorug‘ligini yaqqol o‘zgartirishidir. Bu esa ijodkor ranglar va tusli munosabatlarining to‘g‘riligini kuzatib borishiga qiyinchilik tug‘diradi.

Qurigan guash rangini oldindan aniqlash uchun bo‘yashga tayyorlangan bo‘yoqdan foydalanish mumkin. Umuman olganda guash bilan ishlash ma’lum bir ko‘nikmalarni talab etadi.

Guashni uy haroratida zikh yopilgan shisha idishda saqlash lozim.

Mabodo, guash qurib qolgan bo‘lsa, unga osongina qayta ishlov berish mumkin. Buning uchun bo‘yoqqa suv quyiladi yoki yaxshisi bir foizli jelatin eritmasi yoki yog‘och yelimi bilan 2–3 kun davomida eritilib,

bir xil qaymoqsimon modda hosil bo‘lgunga qadar aralashtiriladi.

Guashda bajarilgan ishlarni papkada saqlash lozim. Bunday ishlarni bo‘yoq qatlami sinuvchanligi tufayli, trubka shaklida o‘rash aslo mumkin emas, chunki juda qalin qatlamda berilgan bo‘yoq ko‘chib tushishi mumkin.

## TEMPERA

Tempera bo‘yoqlari emulsiyaning bog‘lovchi moddalaridan tayyorlanadi. Emulsiyaning barcha turlari uch qismdan iborat: suv, har xil yelim (kazein, tuxum oqi va sarig‘i, gummiarabik, deksrin, sovun) va moy. Yelim eritmasini moy bo‘laklari bilan mexanik ravishda aralashtirishda emulsiya hosil bo‘ladi. Bog‘lovchi modda tarkibiga moy qo‘silib, bo‘yoqlarni muloyim qiladi va yorilishning oldini oladi.

Moybo‘yoqqa nisbatan tempera bo‘yoqlari tez quriydi, shuning uchun birinchi qatlami butunlay quri-gandan keyin kunora takroran ustidan bo‘yash mumkin. Tempera bo‘yoqlari chidamlidir. Qadimda musavvirlar tempera bo‘yog‘ida bajargan asarlar shu kungacha yaxshi saqlanib kelmoqda.

Tempera bo‘yoqlarida rangtasvir bajarishning turli usullaridan foydalanish mumkin, ya’ni bular nam holda, ko‘p qatlamlı rangtasvir, alohida bo‘yoq surtmalari bilan ishlashdan iborat. Qisqa vaqqli etudlarda «alla prima» usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir, chunki ranglar munosabati birdaniga olinadi, buyumlar shaklli erkin mustaqil surtmalarda bajariladi va qo‘yilgan bo‘yoqlar hali qotib ulgurmasdan tugatiladi.

Rassom yengil nozik tusli o‘tishlarni (masalan, osmon, bulutlarni tasvirlash, suvdagi aksni ko‘rsatish, kiyimlarning burmalari, uzoqdagi narsalarning ko‘rinishlari va h.k.) tasvirlashda ho‘l qatlam ustiga qo‘yish usulidan foydalanib, yengil bir-biriga yaqin tuslarni mohirona bajaradi.

Temperaning rangli tasvirida asosiy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish uchun bir qator maishiy buyumlardan tuzilgan naturmortlarni bajarish tavsiya etiladi.

Birinchi o‘quv naturmortni, masalan, chinni idish, sariq, qizil olmalar va havo rang matodan tuzish mumkin. Asosiy vazifa ranglar munosabati va tasvirdagi shakllarning yorug‘ va soya bo‘laklarini umumlashtirilgan holda ko‘rsatishdan iborat (6 a, b- rangli rasmlar).

Tempera bo‘yoqlarida bajarilgan naturmortlar jozibali ko‘rinishi va bezakli bajarilishi bilan ajralib turadi. Masalan, dekorativ naturmort, ya’ni sopol ko‘za, gullar (shakli jihatidan kattaroq, masalan, ko‘knori guli yoki kuzgi barglar bilan), bezakli burmali gulli naqshlar bilan bezatilgan mato ustida rang jihatdan to‘yingan ikki-uchta yirik olmalar bo‘lishi mumkin. Bir nechta gul yoki barglarni sol ustiga qo‘yish ham e’tiborga loyiq. Och fondagi qo‘yilma – kunduzgi yorug‘likdagi gullar dastasi umumlashgan holda idrok etilib, yaxlit siluetda fonga nisbatan to‘qroq bo‘lishi kerak.

Asosiy e’tiborni naturmortning umumiyligi ranglar gammaсини yetkazishga qaratish lozim. Tempera bo‘yoqlarining katta rangli surtmalar yuritish imkoniyatining afzalligidan foydalanib, ishni to‘yingan bezakli munosabatlari bilan olib borish lozim (7-rangli rasm).

Keyinroq esa murakkab bo‘lgan naturmort, san’at atributlaridan tuzishni tavsiya qilamiz. Bu yerda ras-

som ashyolari (bo‘yoqlar, mo‘yqalamlar, antik gipsli kalla, qog‘oz ruloni, mato va h.k.) bo‘lishi mumkin.

Tempera bo‘yoqlari dastgohli dekorativ (bezakli) va monumental rangtasvirlarda (plafon, panno bezashlari-da) keng qo‘llaniladi.

## MOYBO‘YOQLI RANGTASVIR

Moybo‘yoqli rangtasvirda ham akvareldagidek, uzoq muddatli ish jarayonini boshlashdan oldin, ushbu qo‘yilmadan kichik o‘lchamda etud eskizini bajarish zarur. Bundan maqsad qo‘yilma kompozitsiyasini va rang munosabatlarini aniqlashdir. Etud-qoralamadan tashqari bo‘yoq bilan ishslash oldidan qalamtasvir bajariladi. Akvarel bo‘yog‘i bilan ishslashga mo‘ljallangan tayyorlov qalamtasviridan farqli o‘laroq, matoda faqat eng muhim va asosiy shakllar tasvirlanib, mayda-chuya da ikkinchi darajali narsalar tushirib qoldiriladi. Shunday bo‘lsa ham buyumlarning kompozitsion joylashuvi, nisbatlari, perspektiv va konstruktiv qurilishi, narsalarning kenglikdagi joylashuvi aniq bo‘lishi kerak.

Bo‘yoq bilan ishslashga shoshilmang. Avvalo, e’tibor bilan natura qo‘yilmasini kuzating, narsalar rangining och-to‘qligi, rang kuchi, ya’ni shu uchta xususiyati bo‘yicha rang farqlarini anglab yetmaguncha taqqoslang. Shu bilan birga hajmdor shaklni, uning ranglanini va fazoviy yorug‘lik muhitining o‘zaro murakkab ta’sirini tushunish kerak. Yoritilishning umumiyl tusli va rangli holatini yoddan chiqarmaslik hamda shu holatni natura qo‘yilmasining o‘zida aniqlash zarur. Faqat naturaning to‘liq tahlilidan so‘ng etuddagi rang munosabatlarini qurish va naturaga taalluqli koloritni berish mumkin.

Qalamtasvirni tugallagach matoga yupqa qatlamli bo‘yoq berishga o‘tiladi. Dastlabki bo‘yoq berishda asosiy tusli va rangli munosabatlarni aniqlab borib, matoning katta joylarini oq bo‘yoqdan kamroq foydalanib bo‘yab chiqiladi (8-rangli rasmlar).

Ishlash jarayonida doim munosabatlar bilan fikr yuritish, narsalarning bir-biridan (uning uchta sifatida) rang bo‘yicha qanday farqlanishini e’tiborga olish, qo‘yilmani yaxlit idrok etishga va rang munosabatlari hamda yorug‘ qismlarining yarimsoyalari, soyalari va reflekslarini taqqoslashga intilish kerak.

Agar naturmortda kamerton sifatida xizmat qiluvchi (masalan, to‘q sopol ko‘za) to‘qroq narsa bo‘lsa, ishni shundan boshlagan ma’qul. Keyin esa uning yonidagi ancha yorug‘roq bo‘lgan narsalar va fon bilan bo‘lgan munosabatlarni aniqlash zarur. Naturmortning asosiy to‘qroq qismlarini ranglar bilan qoplagach, yarimtusli va reflekslarga o‘tiladi.

Rangtasvirda biror buyumni uzoq vaqt tasvirlash mumkin emas. Agarda ish shu zaylda davom ettirilsa, unda alohida tasvirlangan narsalar to‘plami hosil bo‘ladi. Shuning uchun tez-tez bir narsadan boshqasiga, fonga, sol tekisligiga va h.k.larga o‘tish kerak. Tasvirdagi narsaning yorug‘ligi yetarli emasligini ko‘rib, talabalar uni yoritishga harakat qiladilar, aslida esa uning yonidagi joylar va atrofdagilarning hammasini to‘qlashtirish kerak.

Ishning keyingi bosqichi narsalarning shakllaridagi yaxlit rang munosabatlarini aniqlash bilan davom etadi. Ta’kidlash joizki, ranglash jarayonida narsalar alohida tasvirlanmasdan, bir vaqtning o‘zida doimiy taqqoslash bilan iliq va sovuq tuslarning murakkab o‘zaro

munosabatlarini namoyon etib, yarimsoya, soya va reflekslari hamda yorug‘ qismlari aniqlashtiriladi. Molbertni o‘ziga yaqin joylashtirish noto‘g‘ri, chunki bu narsalarni alohida izohlashga, tasvirni esa yaxlit idrok eta olmaslikka olib keladi. Shuning uchun molbertdan tez-tez uzoqlashib turish tavsiya etiladi. Bu esa ishni umumlashtirib, uning samaradorligiga imkon beradi.

Etudni tasvirlashdan oldin qo‘yilmaning umumiylar ranglar qatorini hisobga olib, yorug‘ joylarini soya qismlari bilan taqqoslab, rang munosabatlarini umumlashtirib olish kerak. Narsalarning yoritilgan joylarini yaxlit bo‘yash, to‘qroq joylarini yupqa qatlam bilan, imkon boricha oq bo‘yoqlarni qo‘llamasdan tasvirlash kerak.

Narsalarning och-to‘qligi, ranglari bo‘yicha va yorug‘ soya tomonlarini taqqoslaysotib, ularning umumiylar rangdor nozik bo‘yoqlar bilan birlashganini sezish mumkin. Naturmortning hamma soyalar xona devorlaridan aks etayotgan yorug‘lik bilan yoritilgan. Agar naturmortning atrofidagi devor zarg‘aldoq rangda bo‘lsa, unda barcha soyalar iliq rangda bo‘ladi. Agarda derazadan tushayotgan yorug‘lik havo rang bo‘lsa, u holda yoritilgan joylarning hammasi sovuq rangda bo‘lib, sovuq yoritish bilan soyalardagi iliq ranglar qarama-qarshiligi yanada sezilarli bo‘ladi.

Yirik ko‘rinishdagi ranglar va yorug‘-soya munosabatlari topilgandan so‘ng, hajmdor narsalarni yorug‘ soya bilan (rang bilan ifodalangan) modellashga o‘tamiz.

Hajmdor narsalarning (qovoq, tarvuz, olma, pomidor, aylana idish) silliq sirtlarini tasvirlashda shaklni «yasash» zarur. Qirrali narsalarda tus va rang farqlari yaqqol ko‘rinadi: kubda uchta qirra va mos ravishda

uchta har xil tus va ranglar mavjud. Kubda qirralar sonining ko‘payishi asta-sekin shaklni sharli sirtga yaqinlashtiradi. Bunday jismning har bir qirrasi turli yorug‘lik va turli rang farqiga (reflekslar kuchiga) ega bo‘ladi. Shuning uchun ko‘p qirralilar kabi sharning yoki silindrning yumaloq sirti ham, rangi va tusi jihatdan ikkita bir xil joyga ega bo‘lishi mumkin emas. Bular hammasi turli joylarda turlicha bo‘ladi.

Rassom ish jarayonida barcha bo‘yoqlar farqini bir vaqtda ko‘rib, sezib turishi, ularning och-to‘qlik munosabatlarini, ranglar farqi va ranglarning to‘yin-ganligini aniqlab olishi va bu munosabatlarni matoda haqqoniy tasvirlashni bilishi zarur.

Albatta, ikkita bir-biridan farq qiladigan ranglarni ko‘rish va uning munosabatlarini tushunish qiyin, uchtasi yanada mushkulroq, barcha naturaning yaxlit qabul qilinishi esa yanada murakkabroq.

Narsaning o‘ziga qarab ishlash jarayonida qayerda narsalarning tashqi ko‘rinishi keskin namoyon bo‘ladi, qaysi joyda fon bilan qo‘shilib ketishini hamda qayerda soyaga yengil o‘tishini sezib turish zarur. Narsalardagi mayda bo‘laklar umumiy shaklga bo‘ysunishi kerak. Rangtasvirning asosiy prinsipi – muhitdagi narsalarning barcha sifatlarini uyg‘unlikda ko‘rsata bilish. Bezakli rangtasvirga moyil rassomlar naturada kuzatilayotgan nozik yorug‘-soyali va ranglar gradatsiyasini (bosqichlariga o‘tish izchilligini) inkor etib, yorug‘-soya va ranglarning nozik farqlarisiz tasvirning rangli qurilishi, narsalardagi shaxsiy yoki shartli ranglarning jarangdorligiga va faolligiga asoslanadi. Bu yo‘l to‘laqonli dastgohli rangtasvirdan boshqa tarafga yo‘naltirib, uning hissiyotli ta’sirini kuchsizlantiradi.

Daraxtning soyasida joylashgan naturmortni tas-virlayapmiz, deb faraz qilaylik. Turli rangdagi narsalar qanday qilib uyg‘unlashtiriladi, bunday holatda faqat ma’lum bir joyga xos bo‘lgan ranglarga tayanish mumkin emas.

Har bir narsaning shunday rangini topish kerakki, u muayyan joyga mos rangni ham, umumiylashgan rangda yoritilayotgan rangni ham o‘z ichiga olishi kerak. Agar hosil bo‘lgan bo‘yoqlar gammasiga qandaydir yashil rangdagi yoritqichga ta’sir qilmaydigan erkin rangni qo‘shsak, uning monandligi buziladi.

Shunday qilib, etudning ranglar qatori vazminligi, uning birligi, ranglarning mutanosibligi va ularning orasidagi o‘zaro reflekslar hamda yoritqich bilan shartlangan yaqinligini topish orqali yaratiladi.

O‘quv naturmortning bajarilishi eng to‘q tusni asos qilib olingan joyini qidirishdan boshlanadi. Shundan so‘ng och rangli narsalar yaqinida joylashgan tus va boshqa rangni naturada aniqlab, uni politrada tanlanadi. Soya joylariga rang berib, yonidagi yarim tuslarga oq bo‘yoq qo‘llamaslikka harakat qilinadi. Dastlabki suyuq bo‘yoqni berishda och-to‘qligi, rangi va to‘yinganligi bo‘yicha soyalarni soyalar bilan, yarim tusni yarim tus bilan, yorug‘ joylarni esa yorug‘lari bilan taqqoslanadi. Asosiy rang munosabatlarini, boshlang‘ich rang berishdayoq nima sovuq va nima iliq ekanligini, narsalarning sirtidagi och va to‘q ranglar qanday farqlanishini yetkazib berish kerak.

Ishning bu bosqichida alohida narsalarning mayda qismlariga e’tibor berish shart emas, barcha e’tiborni oldingi ikkinchi va uchinchi qatordagi narsalarga hamda fonga qaratish lozim.

Ishning birinchi yarmida katta ko‘rinishlar bilan yorug‘-soya va rang munosabatlari orasidagi naturaga bo‘lgan mutanosiblikni saqlash, shuningdek, soya, yarimsoya quyuqligi va rangdorligini yetkazib berish muhimdir. Soyalar va yarimsoyalar shunchaki turli och-to‘qlikdagi qora dog‘lar emas. Agar soya qismlari ozmi-ko‘pmi rang jihatdan to‘g‘ri hal etilgan bo‘lsa, unda yorug‘ joylarini bo‘yash ancha yengil ko‘chadi.

Natura qo‘yilmasidagi narsalarni diqqat bilan kuzatish lozim. Uzoqda joylashgan narsalarning chekka qirralari o‘zining aniqligini yo‘qotib, fon bilan qo‘shilganday tuyuladi (9-rangli rasm).

Naturada har qanday ishni yakunlash so‘ngida umumlashtirish kerak. Chunki naturmortning ayrim joylari kerakli darajada yorqin bo‘lmasa yoki aksincha, umumiylranglarning o‘zaro uyg‘unligidan yaltiroq dog‘ haddan tashqari «chiqib ketayotgan» holatlarda zarur. Shunday ham bo‘ladiki, qo‘yilmaning yoritilgan joylari juda ham ko‘zga yaqqol tashlanib, keskin bajarilgan bo‘ladi, bunday holatda ularni «yumshatish» lozim.

Ta’limning boshlang‘ich davrida narsalarning hajmdor shakli, ularning materialligini, tekislikda joylashuvi va yoritilgan holatini ko‘rsatish zarur. Dastlabki ishlarda, tabiiyki, bo‘yoq surtmalari noaniq va qovushmagan bo‘ladi. Muttasil amaliy ishslash natijasida o‘quvchi o‘z «uslubi»ga ega bo‘lib boradi.

### *Amaliy maslahatlar*

1. *Moybo‘yoqlarni aralashtirish.* Rangtasvirda moybo‘yoq bilan ishslash ancha murakkab hisoblanadi. Ayniqsa, akvarel bo‘yog‘i bilan ishlagandan keyin bu

holat yaqqol seziladi. Akvarel bo‘yog‘i bilan ishlashda qog‘oz muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, moybo‘yoqda esa matoga berilgan oq grunt hech qanday ahamiyatga ega emas.

Kamalakning yettita asosiy ranglari mavjud: qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, ko‘k, havo rang, siyoh rang. Masalan, qizil rangni sariq bilan qorishtirsa – zarg‘aldoq rang, sariq rangni ko‘k bilan aralashtirsa – yashil rang, ko‘k rangni qizil bilan qo‘shta – siyoh rang hosil bo‘ladi. Faqat uchta rang qizil, sariq va zangori qorishtirish orqali hosil bo‘lmaydi. Qolgan ranglar esa uchta rang aralashmasidan hosil bo‘ladi. Bularni tajribali rassom aniq bilishi zarur

Moybo‘yoqli rangtasvirda barcha bo‘yoqlar oq rang yordamida oqartiriladi. Shuning uchun ham rassom amaliy mashg‘ulotlarda turli bo‘yoqlarni oq bo‘yoq aralashtirish orqali turli ranglar hosil qiladi.

Bir rangga boshqasini qo‘sish natijasida, bo‘yoqlar o‘zining to‘yinganligini (yorqinligini) yo‘qotadi. Masalan, ranglarni qo‘sish orqali yorqin zarg‘aldoq, yashil va siyoh ranglarni hosil qilish murakkab. Shuning uchun ham ayrim hollarda palitrada tayyor holatdagi yorqin zarg‘aldoq, yashil, havo rang va siyoh rang bo‘yoqlar ortiqchalik qilmaydi. Oq bilan qora ranglar aslida nozik rangli farqlarga ega. Ish jarayonida oq bilan qora bo‘yoqlarni sof holda ishlatmaslikni yodda tutish kerak. Qora bo‘yoqdan unumli foydalanish boshqa bo‘yoqlar bilan juda jozibali va nozik aralashmalar hosil qilishga imkon beradi. Masalan, kadmiyning zarg‘aldoq bilan bo‘lgan aralashmasidan iliq yashil rang hosil bo‘ladi. Quroning iliq bo‘yoqlar bilan aralashmasi murakkab iliq rang

tuslarini, sovuq bo‘yoqlar bilan bo‘lgan aralashmasi esa sovuq rang tuslarini beradi.

Shunday qilib, moybo‘yoqlar bilan muvaffaqiyatli tasvirlash uchun etudnikda beshta bo‘yoq bo‘lishi mumkin: oq, sariq (limon rang), ko‘k («FS» havo rang, ko‘k kobalt yoki ultramarin), qizil (pushti, qizil kinovar), sof qora (o‘tda kuydirilgan suyak rangi). Mavjud beshta bo‘yoqdan istalgan rangni hosil qilishi mumkin.

Agar qora bo‘yoqqa oqni aralashtirsak, kulrang hosil qilamiz. Pushti rangga bir me'yorda limonli kadmiyni qo‘sksak, unda bir qator qizildan to sariqqacha zarg‘aldoq rang orqali rang turlarini hosil qilamiz. Agar pushti bo‘yog‘iga bir me'yorda ko‘k «FS» qo‘sksak, unda qizildan to ko‘kkacha siyoh rang orqali bir qator ranglar hosil qilinadi. Mabodo limon kadmiyga havo rang «FS» qo‘sksak, sariqdan to ko‘kkacha yashil rang orqali bir qator ranglarni hosil qilamiz. Keyin: agar pushti rangga bir me'yorda to‘qroq yashilni qo‘sksak, qizildan to yashilgacha deyarli qora orqali bir qator ranglar, oqartirilsa kulrang hosil bo‘ladi. Agar ko‘k «FS»ga hosil bo‘lgan zarg‘aldoq rangni ma'lum miqdorda qo‘sksak, unda ko‘kdan boshlab zarg‘aldoq ranggacha deyarli qora rang orqali bir qator ranglar, oqartirilsa kulrang hosil bo‘ladi. Xususan, qora rangni yashil «FS»ning to‘q qizil kraplak bilan aralashmasidan hosil qilish mumkin. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, qora, zarg‘aldoq, siyoh rang va yashil ranglardan foydalanmasdan ishlash ham mumkin.

So‘ngra siqma idishdan xohlagan bo‘yoqni, masalan, och oxrani palitraga chiqaramiz. Uning yoniga limon

rang kadmiya qora bilan qizil bo‘yoqlarni aralashtirib, xuddi och oxra rangini hosil qilamiz. Boshqa bo‘yoqni, masalan, siqma idishdan zumrad yashilni olamiz. Havo rang «FS» yoniga limon rang kadmiy bilan pushti tiondigo rangini aralashtirib, zumrad yashil rangni hosil qilamiz.

FS» havo rang bilan pushti tiondigo rang aralashmalaridan to‘q ko‘k kobalt rangini hosil qilamiz. Barcha yashil ranglar: zumrad (yashil)dan xrom (och kulrang) okisi orqali to‘q yashil kobaltgacha – havorang «FS», pushti tiondigo va limon rang kadmiylardan olinadi. Oq rang qo‘sish orqali biz och yashil kobalt, ko‘k, oltinsimon sariq va neapoliten va h.k. ranglarni hosil qilamiz.

Agar pushti tiondigo bo‘lmasa, unda och, to‘q qizil kadmiy, qirmizi yoki kraplak ranglardan foydalansa bo‘ladi. Limon rang kadmiy o‘rniga och sariq kadmiyni ham ishlatsa bo‘ladi. Havo rang «FS» o‘rniga to‘q ko‘k kobaltdan foydalilanadi, u bo‘lmasa, ultramarinni ishlatish mumkin.

Bu mavjud bo‘yoq aralashmalaridan esa chegaralangan ranglar doirasi hosil bo‘ladi. Masalan, och sariq rang kadmiy bilan ultramarin ranglaridan zumrad (yashil) rangini hosil qilib bo‘lmaydi, yashil okis rangiga yaqinroq bo‘yoq bo‘lishi mumkin.

Oq rangni hisobga olmagan holda uchta rangdan ortig‘ini aralashtirib bo‘lmaydi. Ikki-uch bo‘yoqdan rang hosil qilish mobaynida ularni uzoq vaqt palitrada qorish kerak emas. Aralashmada toza bo‘yoq ranglari saqlanib tursa matoda turli nozik ranglar hosil bo‘ladi.

Moybo‘yoqlar bilan ishlashda eng yaxshi bo‘yoq eritadigan suyuqlik – pinen (4 bo‘yoq eritgich)

hisoblanadi. Aslida u ranglar yorqinligini pasaytirsa ham, qoraytirishga yo‘l qo‘ymaydi.

2. *Moybo ‘yoqli rangtasvirda namligicha* (bir necha galda qo‘yilgan bo‘yoqlar hali qotib ulgurmasdan tugatiladi) yoki ko‘p qatlamlı (yangi bo‘yoq qatlami to‘la qurigan qatlam ustiga qo‘yiladi) uslubda ishslash mumkin. Nam bo‘lgan bo‘yoqlar ustiga yangi bo‘yoq qatlami qo‘yilsa, ranglar xira tortib, asl rangini yo‘qotadi. Mabodo asarning ma’lum bir qismi qayta bo‘yaladigan bo‘lsa, eng yaxshisi mastixin bilan bo‘yoq qatlamini sidirib olish mumkin. Qayta ishslashdan avval, mato yuzasiga xom kartoshka yoki piyoz bilan ishlov berilsa, ish sifati ko‘ngildagidek bo‘ladi.

3. Bo‘yoqlarni betartib va noo‘rin yuritish mumkin emas. Bu shaklni buzib, ranglarning betartib bo‘lishiga olib keladi, fakturasini, hajm va muhitni ko‘rsatishga xalaqit beradi. Rangtasvirda bo‘yoq berishning shakli, yo‘nalishi va uning xarakteri narsalarning shakli, yuzasining o‘ziga xos xarakteriga va materiallariga bog‘liq. Juda quyuq (xamirsimon) bo‘yoq surtmasi ham tasvirni tomoshabinga yaqinlashtiradi, yupqa va silliq surilganda uzoqlashtiradi. Shu sababli naturmort (yoki manzara) foniga xamirsimon bo‘yoq surtmalarini qo‘llash tavsiya etilmaydi.

Osmon, tuman rangini yoki uzoqni tasvirlashda quyuq va qalin bo‘yoqni qo‘llash noo‘rin, birinchi qatordagi yer va yorqin buyumlarni tasvirlashda qo‘llagan ma’qul. Monumental rangtasvirda, ayniqsa, rangli quyuq dog‘larni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

4. *Rassom palitrasи*. Palitraga qanday tartibda siqma bo‘yoqlarni joylashtirgan ma’qul? Masalan, ultramarin rangini bugun palitraning yuqori burchagiga, ertaga

pastki chap tomonga siqib qo'yish noto'g'ri. Rassom bo'yoqlarni doim, odatdagidek, bir tartibda joylashtirgani ma'qul, chunki u shunga odatlanib, bo'yoqni bemalol qo'llay oladi.

Palitraning chap tomonidan sovuq bo'yoqlarni ochroqdan to'qroqqacha (yashilning ochi, to'qi, ko'k va qora), oq bo'yoqni esa palitra markaziga qo'ygan ma'qul.


5. *Palitra rangi*. Odatda, rassomlar jigarrang yoki oq rangdagi palitradan foydalanadilar. Oq palitradagi bo'yoqlar, oq rangdagi kartina tekisligida ham xuddi shunday ko'rindi, deb taxmin qiladilar.

Palitrada olingan rang bilan naturadagi rangning idrok qilinishi turlicha. Palitrada tayyorlangan narsalarning rangi, naturada yoki xolsda – boshqa narsalar qurshovida o'zgacha qabul qilinadi.

Qanday palitradan foydalanmaylik oq matoda bo'yoqning bиринчи surtmasi kontrast kuchidan to'q va xira bo'lib tuyuladi. Tajribasiz rassom politrada darrov ochroq yoki to'qroq bo'yoqlarni tanlashga harakat qiladi.

Narsalarning bir xil ranglari turli palitrada tus va rang jihatdan turlicha namoyon bo'ladi. Oq palitrada ochroq dog'lar deyarli sezilarli emas. To'q jigarrang palitreda qoramtil bo'yoqlar yo'qoladi. Faqt palitrada umumiy tus va rang, natura qo'yilmasidagi fonning umumiy rangi va tusiga yaqinligi naturaning narsalar bo'yog'idagi munosabatlarda ko'rindi.

6. *Matoni grunthalashdan* avval u ramkaga tortiladi (10-rasm). Bu ish murakkab emas, lekin ma'lum malakani talab qiladi. Mato bo'sh tortilsa, osilib qolib, grunt va bo'yoq qatlaming yorilishiga olib keladi.



10-rasm. Matoni ramkaga tortish.

Mato bo‘lagi ramkaning to‘rt tomonidan 3–4 sm dan kattaroq bo‘lishi kerak. Matoni mixlashda ramkaning o‘rtasidan boshlab asta tortib tekislab boriladi va mix har 1,5–2 sm masofada qoqliladi.

7. *Matoni gruntlash*. Grunt ikki qismdan iborat: bir sidra yelim eritmasi yupqa qatlam tarzida matoga

surilgach, grunt bo‘yog‘ining bir necha qatlami ham qoplanadi. Yelimlash bir sidra yoki ikki qatlamda yuritiladi.

*Moybo‘yoqli grunt.* 5% yelimli eritmaning (jelatin, baliq yoki duradgorlik yelimi) bir bo‘lagi bo‘r kukuni bilan qorishtiriladi. Eritma bilan mato bir sidra qoplanadi. Gruntli bo‘yoq zig‘ir moy, qo‘rg‘oshinli oq bo‘yoq kukunidan tuziladi. Rangtasvir uchun siqmadagi oq bo‘yoqqa qaraganda, moy va bo‘yoq moddasi nisbatining qorishmasi quyuq bo‘lishi kerak.

Yelimlangan matoga gruntli bo‘yoqning birinchi qatlami bir tekis maxsus asbob (mastixin) bilan surtib chiqiladi. Quritilgandan keyin (1–2 hafta) mato qumqog‘oz bilan silliqlanadi, so‘ngra gruntli bo‘yoq skipidar bilan suyultirilib, keng fleysda qoplanadi (mato 2–3 oy davomida iliq joyda quritilishi kerak).

*Yelimli grunt.* 50–60 gramm jelatinni 1 litr suvda eritib, unga 15 gramm glitserin qo‘shiladi. Eritma bilan mato 1–2 marta yelimlanadi. Birinchi yelim qatlami qurigach, mato qumqog‘oz bilan silliqlanadi, so‘ng ikkinchi qatlam yuritiladi. Keyin yelimli qorishma, bo‘r va ruxli oq bo‘yoq kukuni 40°C ga yaqinroq haroratda aralashtiriladi. Agarda qorishma quyuq bo‘lsa, unda yelim eritmasi yana qo‘shiladi. Gruntlash 2–3 qatlamda ma’lum vaqtida bajariladi.

## RANGTASVIR HAQIDA MA’LUMOT

Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o‘rganish, tasviriy san‘at ta’limini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalalarini puxta egallagan o‘quvchigina amaliy ijodda samarali shug‘ullanishi mumkin. «Kimda-kim

ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to‘la ishonch hosil qila olmaydi. Ayniqsa, rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog‘liq holda amalgalashirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo‘lmaydi», deya ta’kidlagan edi Leonardo da Vinchi<sup>1</sup>.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq: «Biz hamma bilimlarimizni aqliy fikrlar bilan mustahkamlab bormog‘imiz lozimki, shunda ikkilanishga ham, esdan chiqishga ham imkon qolmaydi», degan<sup>2</sup>.

Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy aytib o‘tganidek: «San’atni o‘rganayotganlar tasvirlash yo‘llari va usullari, ya’ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug‘ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo‘ysunishga majburdirlar»<sup>3</sup>.

Tasviriy san’at tarixi rangtasvirni amaliy o‘rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to‘plangan bo‘lib, ularda ko‘plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Yevropa singari Rus Badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o‘qitish juda kuchli bo‘lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e’tibor berilmagan.

<sup>1</sup> Мастера искусства об искусстве. – М., 1965, т. 1, стр. 124.

<sup>2</sup> Цит. По кн: История педагогики. – М., 1949, стр. 46.

<sup>3</sup> Д.Н. Кардовский об искусстве. Воспоминания, статьи, письма. – М., 1960, стр. 128–130.

Keyingi vaqtarda tasvirlashni nazariy o‘qitish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo‘llanmalar nashr etilgan. Ularda kasb mahorati, yorug‘-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo‘llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekam-u ko‘s yoritib bera oladi, deb bo‘lmaydi. Gap shundaki, talaba buyum va narsalarning o‘ziga xos ranglarini va ularning yorug‘lik ta’sirida o‘zgarishini ko‘rib, tushunsa ham rangtasvirchi rassom bo‘la olmaydi, chunki rangtasvirning umumiyligi qonuniyatlari (ranglar nisbati, issiq va sovuq ranglar, kolorit ranglar uyg‘unligi) mavjud. Bir qancha rassomlarni tarbiyalagan, ajoyib pedagog-rassom D.N. Kardovskiy aytganki: «Naturada ham, ishni boshqarishda ham asosiy e’tibor shunga qaratilishi kerakki, butun dars o‘tish jarayonida ranglar nisbatini hisobga olish zarur... Doimo rang munosabatlari bilan ishslash va fikrlashga o‘rganish kerak»<sup>1</sup>.

Ta’lim olish jarayonida talabalar, avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari – rang va tus munosabatlari hamda ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, rangtasvirni o‘qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim: rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o‘rni, havo perspektivasi, qog‘oz yuzasida hajmli buyumlarning fazoviyligi joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug‘lik

---

<sup>1</sup> Д.Н. Кардовский об искусстве. Воспоминания, статьи, письма. – М., 1960. – С. 128–130.

qonuni, qo‘yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalarni qanday amalga oshirish mumkin? Rangtasvir nazariyasidagi ushbu asosiy savollarni sharhlashga o‘tamiz (10, 11, 12, 13-rasmlar).

## **RANGTASVIRDA QALAMTASVIRNING AHAMIYATI**

Rangtasvir haqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o‘rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, hajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo‘lidir. Shularga bog‘liq holda har bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib, konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg‘unlashushi bu haqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo‘lishi lozim, aks holda turli bo‘yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog‘liq holda ranglarning nozik o‘zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o‘z-o‘zidan fazoviy kenglikni ko‘rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to‘g‘ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada jozibali ko‘rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o‘rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta’riflaydi: «Bu 100% qalamtasvir va 100% rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog‘liqligidir».

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o‘rni beqiyosdir. Ammo mohir rassom qalamdan foy-dalanmasdan, ishni bo‘yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirning qalamtasvir bilan bevosita bog‘liqligini his etadi. Ya’ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to‘g‘ri qo‘yilishi, ishning bir butunlikda yakunlanishi ko‘p jihatdan ijodkorga bog‘liq.

Rassom qalamtasvirni puxta o‘zlashtirib olgandagina (qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to‘g‘ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tuslash va h.k.), rangtasvirda ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini tahlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo‘lmisin, baribir bu ishni sifatli deb bo‘lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta’limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o‘zlashtirish, keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o‘qishga kelganida: «Rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak?» – degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: «Rasm chizish!», «Rassom bo‘lish uchun yana qo‘shimcha nimalarni maslahat berar edingiz?» degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: «Rasm chizish va yana rasm chizish!» – deb javob bergan. U rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Мастера искусства об искусстве. – М., 1966, т. 1. – С. 257.

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) «har qanday ilmnning ildizi va negizini ko'rgan».

«Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir», – deya ta'kidlagan Sharl Lebren.

Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan: «Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir ustasi bo'lib yetishadi».

«Shunday narsa mavjudki, u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu – qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham, haykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi», – deb aytgan Karachchi. «Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvirdir», – degan Titsian. U qarigan chog'larida ham, ko'mir yoki bo'r bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo'lмаган.

«Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, san'at emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir», – deya doim takrorlagan V.Ye. Makovskiy.

«Qalamtasvirni puxta bilmagan, ijod ham qila olmaydi», – deb ta'lim bergen P.P. Chistyakov. I.Ye. Repin kunora 2–3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan va uni rangtasvirni asosi deb hisoblagan. A.M. Vasnetsov P.P. Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, «uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir edi», deb eslaydi.

Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida, hattoki san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir

bo‘yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug‘ munosabatlar aks etgan tasvir, grizayl) uzoq vaqt o‘tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so‘ng ranglar bilan tasvirlashga o‘tilgan.

Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbliji, issiq va sovuq ranglarning o‘zaro hamohangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko‘pchiligi, avvalambor, yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P. Bryullov, I.I. Shishkin, V.Ye. Makovskiy, V.D. Polenov, I.Ye. Repin, M.A. Vrubel, V.A. Serov, K.A. Korovin M. Nabiyev, R. Ahmedov, B. Jalolov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov, I. Xaydarov (14-rangli rasm) kabilar kiradi. Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlar muhim o‘rin egallaydi. Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jihatlarni to‘laqonli aks ettira olsagina maqsadiga erishadi. Agar bu jihatlar mavjud bo‘lmasa, tasvir o‘ta ehtiyyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi.

Rangtasvirda ranglar qalamtasvir bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur. Ya’ni ishni rangda boshlash uchun, qalamda naturaning zarur joylarini belgilab olib, shaklning shartli chiziqlarini unutgan holda ranglar vositasida shakl hajmini tasvirlash darkor.

D.N. Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu – qalamtasvirning rangda davom etishi deb aystsak, shaklning rangda talqin etilishi, qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to‘g‘rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir

mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P.Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib, shunday yozgan: «Rangtasvirning haqiqiy usuli bu – shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoq surtmadir»<sup>1</sup>.

Haqqoniy san'atda asosiy badiiy qiyofa, bu qalamtasvirdir. U jism shaklini qayta ishlab chiqadi, voqeа va insonlar haqida ma'lumot beradi. Qalamtasvirda tasavvur, kompozitsiya g'oyalari mujassamlashgan. Kompozitsiya, avvalo, qalamtasvirda paydo bo'ladi (plastik g'oya) va qayd etiladi. Hattoki, haykaltarosh va me'morlarning dastlabki g'oyalari qalamtasvirdagi qoralamadan boshlanadi.

Rassomlarda esa plastika haqidagi fikr, kompozitsiya to'g'risidagi umumiy o'ylar doimo qalamtasvirda paydo bo'ladi.

Qalamtasvir san'atining haqiqiy ustasi bo'lish va uni to'g'ri tushunish turli yo'nalishdagi rassomlarga: grafik rassom, me'mor, sahna bezakchisi, monumentalchi rassom va boshqalarga juda muhimdir. Agar kino yoki teatr rassomi qalamtasvir sir-asrorlarini mukammal egallamagan bo'lsa, uni haqiqiy ijodkor deb bo'lmaydi.

Hattoki, haqqoniy qalamtasvir chizish mакtabida tarbiyalangan rassomlar tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratgan ijodiy mahsulining qiymatiga qarab tasviriy, madaniy darajasi qadrlanadi.

Agar bezatuvchi, rassom-pedagog yoki monumentalchi kabi ixtisosliklardagi rassom haqiqiy

---

<sup>1</sup> П.П. Кончаловский. Мысли о художественном творчестве. – М., 1964. – С. 27.

qalamtasvir asoslarini puxta o‘rganmay turib asar yaratishni boshlasa, u dastgohli san’at asarining chala yaratilishiga, tasvirda soxta manzaraning paydo bo‘lishiga, haqiqiy inson qiyofasining to‘laqonli aks etmasligiga sababchi bo‘lib, tasvirlanayotgan voqeа va hodisalarining asl mohiyatini to‘liq ohib bera olmaydi.

Rangtasvirda mohirona ijod qilish uchun yosh shogird rassom qalamtasvirda quyidagi bilim va malakalarni puxta o‘zlashtirmog‘i lozim:

1. Kuzatuv perspektiva (ufq chizig‘i, yassi jismlar va ufq chizig‘i perspektivasi) elementlari. Tekisliklar bilan chegaralangan jismlarning konspektiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, interyer va ekseryer).

2. Silindr shaklidagi jismlarning perspektiv qurilishi.

3. Geometrik shakllarda yorug‘-soya munosabatlari (kub, silindr va shardagi yorug‘-soyaning taqsimlanishi, havo perspektivasining elementlari).

4. Qalamtasvirda hajm, fazo va materiallikni tasvirlash usullari (turli materiallarni yorug‘-soya xususiyati, tus munosabatlari, hajmni ko‘rsatishda chiziq va «shtrix»ning o‘rni, fazo va moddiylik).

Qalamtasvirda faqat nazariy bilimlarni mustahkamlab qolmay, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo‘lmoq lozim: qo‘yilmadagi nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o‘zgarishlarni sezsa bilish, tasvirni qog‘oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish, shakl hajmini tushayotgan yorug‘-soya orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikda yakunlash zarur. Qo‘yilmani turli ranglarda bajarish ham mas’uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari yaxlit bir butunlikka asoslanadi. Shakl hajmini tasvirlashda tusning

o‘rnini to‘g‘ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi.

Demak, eng muhimi qalamtasvirda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlash hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, rangtasvirga o‘tishga qulay imkon yaratadi.

### **RANG UYG‘UNLIKLARI (ASOSIY VA QO‘SHIMCHA RANGLAR)**

Dastlabki amaliy vazifa ranglarning uchta xususiyati bilan tanishtirishga bag‘ishlanadi, ya’ni bir buyumning ikkinchisidan rang farqlanishi quyidagicha: rang tusi, och-to‘qligi va to‘yinganligi. Narsalarning ranglarini faqatgina biror belgi orqali och-to‘qligi, rang tuslaridan yoki to‘yinganligidan, yoki bo‘lmasa, har ikkala va uchala xususiyatlari bilan ham ajratish mumkin.

«Rangtasvir – tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo‘laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug‘lik kuchini va har bir bo‘laklarni o‘zaro taqqoslash natijasida, bo‘yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to‘laqonli ifodalash mumkin», – deb aytgan edi K.F. Yuon.

Rang kuchi (to‘yinganligi) farqlarini rang nafisligi yoki och-to‘qligi bo‘yicha aniqlashdan mushkulroqdir. Yosh rassomlar dastlab ranglarning to‘yinganligi bo‘yicha farqlarini tushunmaydilar (ranglar nafisligi va uning soya yorug‘ligini yaxshi sezmaydilar). Shu sababli ular tasvirlash mobaynida, masalan, yashil rangdagi daraxtlar, o‘t-o‘lanlarni tasvirlashda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular etudlaridagi daraxtlarning yashil barglarini nihoyatda bo‘rttirib, yorqin tasvirlaydilar. Ranglar to‘yinganlik jihatidan

munosabati aniq berilmagani, etudlardagi yorug'lik muhit ta'siriga bo'ysunmaganligi yaqqol ko'rindi va u haqqoniy rangtasvirga o'xshamaydi. Rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash uchun ranglarning uchta belgisi bo'yicha buyumlarni bir-biri bilan bir vaqtida taqqoslash lozim. Bu bilan qo'yilmaning och-to'qligi va to'yinganlik farqlarini qayta qabul qilishda asosiy o'rin kolorit vazifalar yechimiga bog'liq. Manzara etudlarida (15-rangli rasm), masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och-to'qligi va to'yinganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli-tuman boshqa faoliyatlarda (portretda, naturmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi.

Rangning asosiy xususiyatlarini amaliy jihatdan bilish uchun ularni turli buyumlarda sinab ko'rish kerak (turli to'yinganlikdagi mevalar, sabzavotlar, rangli drapirovkalar va h.k.).

Rangi, tusi va to'yinganligi jihatidan, turlicha bo'lgan buyumlarni puxta o'rganish va taqqoslashdan so'ng, o'quvchilar turli ranglar (qizil, ko'k, yashil va hokazo) uchun to'yinganlik shkalasini alohida dog' yoki surtma sifatida (moybo'yoq palitrasida yoki qog'oz yuzasida) bajarishlari lozim, ularning to'yinganligi eng yorqindan boshlab deyarli kulrang, neytral rang bilan asta-sekin pasayib boradi.

To'yinganlik – bu kulrangdan ranglarning nozik farqlanish darajasi yoki uning sof spektr ranglariga yaqinlashuv darajasi.

Ranglarning turli kuchdagi nozik farqlarini amaliy tuzishda asosiy bo'yoqlarni neytral kulrang bilan qo'shish natijasida hosil qilish mumkin. Kulrang

bo‘yog‘i qanchalik ko‘p qo‘shilsa, masalan, yashil bo‘yoqqa, u ko‘proq neytral to‘yingansizroq bo‘ladi.

Keyingi mashqlarda turli masofadagi farqlanishni uchta rang xususiyatlari bo‘yicha naturadagiga xos holda ko‘rsatib, narsalar rangini naturaning o‘zidan ko‘chirib olish lozim. Buning uchun sol ustiga (oq qog‘oz fonida) rang jihatdan och-to‘qligi va to‘yinganlik bo‘yicha bir-biridan farq qiladigan 3–5 narsani bir qatorga tizib qo‘yish kerak. Bu narsalar old tomondan yoritib (deraza tomondan), ularda imkon qadar soya va yorug‘ gradatsiyasi bo‘lmasdan, yassi ko‘rinishda bo‘lishlari lozim. Narsalarning qalamtasviri faqatgina siluet tarzida belgilanadi va ularning shaklidagi nozik farqlariga e’tibor bermasdan faqatgina rang farqlarini dog‘ ko‘rinishida ko‘rsatish bilan chegaralanish mumkin (11-rasm).

Bu mashqlardan tashqari, yana uncha murakkab bo‘lmagan neytral och kulrang fonda qalamtasviri chizilgan natura qo‘yilmasini (3 ta narsadan tashkil topgan natur-mort) bajarish lozim. Yorug‘likning old tomondan deraza orqali berilishi oldingi holatda qoladi. Bu mashqning asosiy vazifasi shundan iboratki, deyarli bir xil dog‘ sifatida (narsalar silueti) narsalar orasidagi munosabatlarni uchta rang xususiyatlari orqali ko‘rsatishdir.

## RANGTASVIRDA RANG

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo‘lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim hamda rassomlar diqqatini tortib kelgan.

Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo‘lib asosiy ranglarni

kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton Quyosh nurini qora pardanining kichik tirqishidan o'tkazib, uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lган. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havo rang va binafsha ranglar.


Nyuton ranglarni fizika fani nuqtayi nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V. Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri ko'proq qiziqtirgan. U «Ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg'ish, qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini, sovuq (havo rang, yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi.

Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun-qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchi o'zining o'quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart.

Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi.

Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil



*Il-rasm.* Naturmortga  
yorug‘likning turli  
holatda tushishi.

qiladi. Ular o‘zaro aralashtirilganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo‘shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uning tarkibida bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to‘yinganligi yoki to‘yinmaganligi deganda kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko‘k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esasov uq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg‘aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho‘g‘ni eslatsa, havo rang, zangori, yashil ranglar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo‘shilib, murakkab rang hosil bo‘ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo‘shilganda

chiroyli tusdagi pushti, to‘q qizil, sapsar ranglarni hosil qiladi. Qo‘shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo‘srimcha yoki to‘ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo‘lgunga qadar bir-birini to‘ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

Bo‘yoqlarning qo‘silishi bilan spektraviy ranglarning qo‘silishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo‘shilganda oq rang hosil bo‘ladi.

Asosiy qizil, sariq va havo rang bo‘yoqlari qo‘silishidan esa qora rang hosil bo‘ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo‘silishi natijasida oq rang hosil bo‘ladi. Biroq sariq va havo rang bo‘yoqlarni aralashtirsak, yashil rang hosil bo‘ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar o‘zaro to‘ldiruvchi (qo‘srimcha) hisoblanadi. Masalan, to‘q qizil va yashil, zangori va zarg‘aldoq, qizil, sariq, havo rang, sarg‘ish yashil va binafsha ranglar o‘zaro to‘ldiruvchilardir.

Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma’lum buyum va narsalarning o‘ziga xos ranglari ongimizga singib boradi (paxta – oq, o‘tlar – yashil, osmon – havo rang, dengiz – ko‘k va boshqalar). Bu ranglar buyum va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo buyum va narsalardagi shaxsiy rang turli yorug‘lik ta’sirida o‘zaro o‘zgaruvchan bo‘ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta’sirida buyumning rangi turlicha ko‘rinadi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko‘kimtir – yashil tusga kiradi, yashil muhitda – pushtisimon, sariqda esa – ko‘kimtir bo‘ladi.

Qizil qog‘ozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qog‘oz ustiga qo‘yilsa, kulrang qog‘oz yengil yashilsimon rangda bo‘lib ko‘rinadi. Agar qizil doiraning o‘rniga yashil rang qo‘yilsa, kulrang qog‘ozda qizg‘ish tus hosil bo‘ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tuslari (qo‘srimcha) hosil bo‘ladi. Shu sababli ham tabiatda «xira» neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdag'i soyalar ham nozik yengil ranglar bilan to‘yingan. Yonma-yon bo‘lgan qo‘srimcha ranglar o‘zining yorqinligini kuchaytiradi (qo‘srimcha va qarama-qarshi ranglar – bu qizil va yashilsimon – havo rang, zarg‘aldoq va havo rang, sariq va ko‘k, sarg‘ish-yashil va binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o‘zgaradi (havo perspektivasi).

Yuqorida sanab o‘tilgan ta’sirlar natijasida buyumning rangi rangning tusi bo‘yicha ham, yorug‘lik bo‘yicha ham, to‘yinganligi bo‘yicha, yoki uchala xususiyatlar bo‘yicha bir vaqtida o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘zgargan rang endi buyumning shaxsiy rangi emas, balki shartlidir.

Havaskor rassomlar, odatda, yuqorida ko‘rsatilgan shartli o‘zgarishlarni sezishmaydi. Ular turli holatlarda ham buyumning o‘z rangini ko‘rishadi. Sun’iy elektr yorug‘ligi tushayotgan oq qog‘ozni ular xuddi tabiiy holatdagidek oq deb atashadi, aslida esa sun’iy yorug‘likda u sariq yoki olov rang tusda ko‘rinadi. Tabiat manzarasida old va orqa ko‘rinishdagi turli daraxtlar ularga bir xil yashildek tuyuladi, ammo orqa ko‘rinishdagi daraxtlar rangi tus bo‘yicha ham, yorug‘lik bo‘yicha ham, to‘yinganligi bo‘yicha ham o‘zgaradi. Yana bir misol. Tajribasiz rassom sariq olmaga qarasa,

uning to‘qroq joyini ham xuddi yorug‘ joyi kabi sariq rangda ko‘radi, biroq yorug‘ligi va tusi bo‘yicha soya joyda olmaning rangi o‘zgaradi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, havaskor rassom nafaqat ranglarni, balki buyum shaklini perspektiv o‘zgarishlarini ham sezmaydi. Yosh bolalar chizgan rasmlarga razm solsak, ular perspektiv o‘zgarishlarni sezmay, uylarni to‘g‘ri burchakli qilib, uzoq masofadagi buyumlarni esa kichraytirishni bilmay tasvirlaydilar.

Buyumlarning shakl va ranglarini haqiqiy hamda tabiiy holatda ko‘rish, qabul qilishni ruhshunoslar odatiy ko‘rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko‘rish hamda qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang dog‘larini ko‘rishiadi, balki narsalarning haqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini ham shu qatorda qabul qiladilar. Odatiy ko‘rish natijasida havaskor rassomlar qator «kolorit» xarakteridagi xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Ular havo bulut kunlari yerdagi qorni tasvirlashda oq rangdan boshqa rangni ko‘rmaydilar. Yashil barglar yoki o‘t-o‘lanlar kunning va ob-havoning turli vaqtida ularning rangli ko‘rinishida bir xil yashildir, xuddi ularda samoning havo rang tusi va tabiiy yorug‘likning o‘zgargan kuchi o‘z ta’sirini o‘tkazmayotgandek.

Malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko‘ra bilishi va mohirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko‘rinishini tomosha qilishga muyassar bo‘ladi. Aynan shartli rang haqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo‘lib hisoblanadi.

Tajribali rassomlar yorug‘lik ranglari ta’siridagi tabiatda sodir bo‘layotgan nozik o‘zgarishlarni ham bo‘yoqlar vositasida mohirona tasvirlaydilar. Agar

biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko‘zdan kechirsak, hammasida ko‘kimtir-yashil tuslar yig‘indisini ko‘ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun’iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg‘ish-olov rang yoki qizg‘ish koloritni ko‘rish mumkin.

V. Serov, I. Repin, M. Nabiiev, U. Tansiqboyev, R. Ahmedov, A. Mo‘minov, I. Xaydarov, P. Benkovlarning ko‘plab asarlarida sun’iy elektr yorug‘ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarning yuqori malakada tasvirlanganligining guvohi bo‘lamiz.

Naturadan tasvirlanayotgan rangli etud koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yorug‘lik manbayi bilan yoritilganligiga bog‘liq.

Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P. Chistyakov bu borada: «Ranglarni aniq ko‘rish uchun tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko‘rishga yordam beradi», deya qat’iy maslahat bergen.


## **HAJM, FAZO VA MATERIALLIK**

Dastgohli rangtasvirda rassom g‘oyasi turli xil tasviriy vositalar orqali namoyon bo‘ladi, ular hajm, moddiylik, fazo va ranglar majmuasi. Shuning uchun, eng avvalo, dastgohli rangtasvirni oddiy haqqoniy tili, uning nazariy asoslari va amaliy xususiyatlarini muhokama qilib chiqamiz.

*Hajm.* Buyumning fazoviy tekislikdagi uch o‘lchamli tasviri, eng avvalo, perspektivani va konstruktiv qurilishini to‘g‘ri hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tekislikda shakl hajmini tasvirlash qoidalariga to‘g‘ri amal qilib qalamda ifodalash jarayonida buyumdagি yorug‘likning eng kuchli nuqtasi, yorug‘lik, yarim soya,

aks soya, shaxsiy va tushayotgan soyalarni mohirona ko'rsata olish muhimdir. Buyum hajmini tasvirlashda mo'yqalamda ham qalamdagidek qoyilmaqom qilib ko'rsata olish juda zarur. Tekislikdagi to'g'ri qirrali shakllardagi «shtrix»lar to'g'ri va parallel, silindr, konus va sharsimon shakllarda esa, chiziqcha yoysimon yo'nalishda berilishi maqsadga muvofiqdir.



12-rasm. Buyumlarga yorug'likning tushish darajasi.

bayi qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik kuchsiz va, aksincha, qanchalik yaqin bo'lsa, nuri shu qadar kuchli tushadi (12-rasm).

Sathlarga tushayotgan yorug'lik darajasining kuchi uning tushish burchagiga ham bog'liq. Tushayotgan yorug'lik perpendikular (tik) bo'lsa, u yanada yorug'roq va tiniqroq, sathga tushayotgan nurning sinishi qanchalik kuchli bo'lsa, yorug'lik ham xiraroq bo'lib tushadi.

Tushayotgan yorug'lik kuchi buyumning sath xususiyati fakturasi (materialliligi) va rangiga ham bog'liq: silliq va yaltiroq buyumlar yorug'lik kuchli, g'adir-budur bo'lsa xiraroq aks ettiradi. Buyumning rangi to'q tusda bo'lsa, u yorug'likni o'ziga yutib, nurni kam aks ettiradi. Juda to'q tusda va o'ta och

tusda bo‘lgan buyumlardagi yorug‘-soyaning taralish chegarasini sezish juda mushkul, chunki inson ko‘zлari bu nozik o‘zgarishlarni aniq sezish qobiliyatiga ega emas.


Buyumlarga tushayotgan yorug‘lik nurlarini chuqur tahlil etib, tasvirlashning dastlabki saboqlarini egallashda gipsli geometrik jismlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Gipsli geometrik jismlarda (kub, shar, silindr, konus, prizma) kundalik turmushimizda uchraydigan barcha uy-ro‘zg‘or buyumlari asosi mujassamlashgan. Kub, prizma, silindr, konus va sharlarga tushayotgan yorug‘lik nurlari qonuniyatlarini o‘rganib tasvirlash, qolgan barcha oddiy va murakkab shakllardagi buyumlarni tasvirlashga puxta zamin yaratadi. Demak, biror-bir buyumni chizishga kirishishdan avval, uning asosiy o‘ziga xos belgilarini tushunish zarur. Agar buyum sharga o‘xshash bo‘lsa, demak, sharsimon buyumning asosida sharni tasavvur etib, unga ishlatiladigan shtrixlarni yoysimon yo‘nalishda berish lozim. Har qanday murakkab buyum shaklini ifodalashda ularni oddiy geometrik shakllar bilan taqqoslash, solishtirish hamda yorug‘-soya orqali hajmlarini tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Shaklning hajmdorligi va yorug‘-soyasi tabiiy sharoitdagи yorug‘likda yaxshi ko‘rinadi. Geometrik shakllarning hajmini aniq ko‘rsatish uchun qo‘yiladigan yorug‘lik manbayi yon tomondan yaqinroq qilib tushiriladi, shaklning soya tomoniga esa, yorqinroq mato qo‘yilishi tasvirning chiroyli va aniq bo‘lishiga olib keladi.

Buyumning yorug‘lik tushmasdan soyada qolgan qismidagi soya shaxsiy soya, yorug‘lik tushayotgan qismi esa yorug‘lik deb ataladi.

Yorug‘likdan asta-sekinlik bilan soyaga o‘tish joyi silindr va sharlarda yarim soya deb ataladi (13-rasm).



13-rasm. Yorug‘-soya qonuni. 1, 3 – yorug‘; 2 – shu’la; 4 – yarimsoya; 5 – shaxsiy soya; 6 – refleks; 7 – tushuvchi soya.

Murakkab gips rozetkalar yarimsoyada aniqroq ko‘rinadi, soyada esa uning aniqligi pasayadi. To‘g‘ri tushayotgan nur buyumning qaysi bo‘lagiga tushmasa, o‘sha qismidagi quyuq soya shaxsiy soya deb ataladi. Buyumdan tushayotgan soya bilan shaxsiy soyaning farqi uncha katta emas. Buyumdan tushayotgan soya buyumga qanchalik yaqin bo‘lsa, u shunchalik to‘q tusda bo‘ladi. Atrof-muhitdagi buyumlardan asosiy buyumning soyasiga tushayotgan yorug‘lik nuri buyumda refleksni (aks shu’lani) hosil qiladi. Reflekslar nafaqat soyani o‘zgartiradi, balki o‘zining rang-barang tuslarini ham taratadi.

Buyumga tushayotgan yorug‘likning eng kuchli nuqtasi blik (shu’la) deb ataladi. Yaltiroq buyumlarda «blik»lar va «refleks»lar tiniq va aniq chegaraga ega, xira, g‘adir-budur buyumlarda esa ular aksincha bo‘ladi.

Yoritilgan gips kub va piramidada yorug‘-soyaning taqsimlanishi har xil bo‘ladi. Chap tomonidan tushayotgan yorug‘lik nuri kub va piramidaning qirralarini turlicha yoritadi. Yorug‘lik manbayiga yaqin bo‘lgan qirra nihoyatda kuchli yorishadi, qolganlari esa unga nisbatan xiralashib boradi.

Tasvirlash jarayonida yorug‘-soyani nihoyatda sinchiklab tahlil etish, taqqoslash ishning samarali yakunlanishiga olib keladi.

Hajmdor shaklga ega bo‘lgan har bir buyum nafaqat yorug‘-soyada, balki turli ranglar ta’sirida ham o‘z rangini o‘zgartiradi. Yorug‘-soya «gradatsiyasi» – yorug‘lik, yarimsoya, shaxsiy soya, reflekslar, turli ranglar tusiga ega. Buyumning yoritilgan qismi (rang) ma’lum nurlarni o‘ziga qabul qilib, ma’lum bir tusni hosil qiladi. Yorug‘lik oynadan tushayotgan xonadagi bo‘lak (qism) sovuq tusga ega. Sun’iy yoritish hamda quyosh nuri esa xona bo‘lagiga issiq tus baxsh etadi.

Sovuq tusdagi xona bo‘lagining soya qismi, soyaga qarama-qarshi bo‘lib, issiq tusda ko‘rinadi. Shu bilan birga soyadagi buyumlarga atrofdan yaqin buyumlardagi refleks (aks)lar ta’sir ko‘rsatib, buyumlar rangini o‘zgartiradi va boshqa tuslar hosil qiladi. Quyosh nurida buyumlardagi shaxsiy va tushayotgan soyalarning sovuq tuslarini kuzatish mumkin. Biroq, bu yerda ham, atrofdagi jismlardan taralayotgan reflekslar sababli issiq tuslarni ko‘rish mumkin.

Ma'lumki, buyumdan tushayotgan va shaxsiy soyalar atrof-muhitdagi buyumlarning reflekslari bilan bog'liqdir. To'g'ri tasvirlangan reflekslar shakl hajmini ifodalashga, yorug' muhitning buyumlar orasidagi rang-barang mutanosiblikning ko'rsatilishiga katta yordam beradi. Reflekslarning kuchi, tasvirlanayotgan buyumning moddiy jihatiga (xira, yaltiroq, shaffof shishali) hamda yaqin atrofdagi buyumlarning yorqinligiga bog'liq bo'ladi. Misol uchun sirli ko'zaning soya qismida aytaylik sariq limon turibdi, bu holatda ko'zaning to'q soyali qismida sariq tusdan refleks (aks) ko'rindi.

Silliq, yaltiroq jismlar kuchli aks etuvchi va rangli blik-shu'la hamda reflekslarga boy bo'ladi; g'adir-budur, xira jismlar nurlarni sindiradi, yorug'-soyaning o'ta mayin va ravon chegaralanishi bilan farqlanadi (16-rangli rasmlar).

Shakldagi tuslarning rang-barang xilma-xilligi yana ranglarning kontrast (qarama-qarshi) munosabatlariiga ham bog'liq bo'lib, bular ranglarning issiq-sovuqligidan kelib chiqadi: shakli bo'yicha issiq tuslilarga hamisha sovuq tuslar hamroh va aksincha. Yashil muhitda joylashgan xolis rangdagi jismlar issiq rangni hosil qiladi, qizil muhitda esa sovuqdir. Agarda qarama-qarshi ranglar qizil bilan yashil, sariq bilan ko'k yonma-yon qo'yilsa, ranglarning bir-biriga nisbatan jarangdorligi kuchayadi. Ranglar tutashgan joyda o'zaro zid chekka qarama-qarshi chegara paydo bo'ladi. Sovuq to'q tuslar och issiq tuslarni, issiq to'q tuslar esa sovuq och ranglarni kuchaytiradi. Yana shuni hisobga olish zarurki, xilma-xil «qora» bo'yoqlar issiq va sovuq tuslarga egadir.

*Fazo.* Tasvir tekisligidagi fazo xuddi jismlar hajmini tasvirlashdagi kabi qalamtasvir perspektivasini to‘g‘ri qo‘llab qurish bilan ko‘rsatiladi. Agar jismlar va joylar fazoviy muhitda (masalan, manzarada) perspektiva qonun-qoidalariga amal qilmay tasvirlangan bo‘lsa, havo perspektivasidagi rangli va tusli tasvir elementlari fazoni mukammal ko‘rsatib bera olmaydi. Yaqinda va uzoqda joylashgan jismlar, joylarning (naturmortda ham, manzarada ham) qurilishini kuzatuv perspektivasiga qat‘iy amal qilgan holda tasvirlash lozim.

Borliq – fazoni ko‘rsatishda narsalarning uzoqlashgan holatdagi rang va tus o‘zgarish qonuniyatlariga ma’lum darajada amal qilib tasvirlash kerak (havo perspektivasi). Masofaga qarab buyumlarning perspektiv kattaligi o‘zgarganligi kabi, ular uzoqlashgan sayin rangi ham o‘zgarib ko‘rinadi.

Masofa uzoqlashgan sari, birinchi navbatda, rangning yorqinligi pasayadi. Uzoqdagi daraxtlarning ranglari yaqindagiga nisbatan xolis-notiniq bo‘lib qoladi. Masofaga bog‘liq holda tus ham, yorug‘lik ham o‘zgaradi. Och jismlar uzoqlashganda, to‘qlashadi, to‘qlari esa ocharadi, xira tortadi.

Bunday o‘zgarishlarga havoning qandaydir zichligi sabab bo‘lib, jismlardagi rangli nurlarning o‘tishi qiyinlashadi. Bundan tashqari, bizning qarashimiz va uzoqdagi jism orasidagi xira shaffof havo ko‘pincha havo ranglilik xususiyatida bo‘ladi. U uzoqlashgan jismlardagi ranglar bilan qo‘shilib, ularga ko‘kimir tus beradi va soyalarini ochartiradi.

Shunday qilib, jism uzoqlashganda barcha ranglar yorqinligini yo‘qotib, havo rang yoki ko‘kimir tusga kiradi. Ularning soyalari ocharib, och joylari to‘qlashar

ekan, bunda rang va tusning farqlari kamayadi, qaramaqarshi ranglar kuchsizlanadi, jism chiziqlari, ularning hajmi o‘z aniqligini yo‘qotadi.

Uzoqlashish va yorug‘likka bog‘liq holda, daraxtlarning yam-yashil rangidagi o‘ta nozik o‘zgarishlarni rus rassomi I.I. Shishkinning «Emanzor» asarida ko‘rishimiz mumkin. Yaqindan ko‘rinayotgan daraxt va o‘t-o‘lanlarning yorqin issiq yashil rangdan, uzoqlashgan sari sovuq kulrang – havo rangga o‘tishini sezish mumkin (17-rangli rasm). Rassom o‘z asarida fazoning o‘ta ravon, chuqur, ichkariga kirib ketgandek tasavvur qoldiradi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, rassom fazoviy perspektivani o‘z asarida nihoyatda mohirlilik bilan tasvirlay olgan.

Manzarani tasvirlashda yosh rassom yuqorida bildirilgan fikrlardan o‘z amaliy faoliyatida samarali foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tasvirda fazo sifatlarini namoyon etish yo‘llaridan yana biri to‘g‘ri «shtrixlash» va bo‘yoq surtmasidir. Old qatorda joylashgan jismlarning chiziqli ishlovi aniqroq va zichroq, bo‘yoqlar esa quyuq va yorqinroq bo‘ladi. Uzoqdagi tasvir yumshoq va ochroq shtrixlanadi, bo‘yoqlar esa suyuqroq va xiraroq beriladi.

**Materiallik.** Surat tekisligida tasvirlanayotgan jismlarning materialliligi dastlab yorug‘-soya xususiyati bilan ko‘rsatiladi. Turli materiallardan tashkil topgan buyumlar o‘ziga xos yorug‘-soya xususiyatlariga ega. Silindr shaklidagi gipsli jism yorug‘ligi yarimsoya, soya, refleksga o‘ta nafislik va ravonlik bilan o‘tib boradi. Silindr shaklidagi yashil idish yorug‘ soyaning chegarasiga ega emas. Uning shaklini faqatgina blik – «shu’la» va «refleks»lar aniqlab beradi. Bu narsa

metall jismlarga ham aloqadordir. Agar qalamtasvir yoki rangtasvirda yorug‘-soyaning ana shu o‘ziga xos qoidasiga qat’iy amal qilinsa, jismlarning qanday ashyodan ekanini aniq bilish, ko‘rish mumkin (gipsli, shishali, metalli, taxtali va boshqalar).

Bundan tashqari, yanada muhimroq shartlardan biri, qalamtasvir yoki rangtasvirda jismlar sathi ashyo xususiyatini haqqoniy tasvirlashda qo‘yilmaga mos ravishda rang va tus munosabatlarini bera olishdir. Qalamtasvir yoki ranglavhadagi tus va ranglarning farqlari (munosabatlari) qo‘yilmadagi munosabatlarga mos bo‘lmog‘i darkor. Atrof-muhitdagi jismlarning materialilik sifatlarini ko‘rishda, bizning ongimiz faqatgina uning rangi va yorug‘-soyasining xarakterigagina emas, balki tus va rang munosabatlari (farqlari)ni ham sezish qobiliyatiga ega. Agar yorug‘-soya holati, rang va tus munosabatlari qo‘yilmaning obrazli ko‘rinishiga mos bo‘lsa, biz naturmortdagi buyumlar yoki manzara obyektlarining ko‘rinishlaridagi materialilik xususiyatlarini haqqoniy ko‘rsata olamiz.

Professor A.S. Korolyov bu masala to‘g‘risida quyidagicha fikr bildirgan: «Rangtasvir – bu shaklning mustahkamligi, hajmliligi, materialliligi, havoiyligi – bularning hammasini biz qadrlaymiz, rangtasvir asarida haqqoniy qalamtasvir, rang va tus munosabatlarining nihoyatda to‘g‘ri olinishi asarning yuqori saviyada bajarilganligidan dalolat beradi»<sup>1</sup>.

Havaskor rassom shuni yoddan chiqarmasligi lozimki, ijoddagi mohirlikning negizi, bu – tus va rang munosabatlari bilan tinmay ishlay bilishdadir.

---

<sup>1</sup> А.С. Королев, проф: институт живописи, скульптуры и архитектуры им И.Е. Репина. Спец. Вып. Л., 1979. – С. 29.

## NATURMORT

Naturadan haqqoniy tasvirlash atrofimizdagi voqeahodisalar yoki narsalarning shakl va bo‘yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o‘z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash – bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialiligi, hajm va nisbatlarni ifodalash, qalamtasvir yoki etudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan obyektlar va narsalarning xarakterli xususiyatlari va nafis go‘zalligini aniqlashdir.

Haqqoniy tasvirlash savodini dastlabki ta’lim bosqichlarida o‘quv naturmortlarini bajarish orqali o‘zlashtirish mumkin. Darhaqiqat, savodli tasvirlash asoslarini o‘rganishda naturmort qimmatli tasviriy obyekt bo‘lib hisoblanadi (18-rangli rasm). Masalan, N. Tenning «Naturmort» asari misol bo‘la oladi. Naturmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Unda mahoratli bo‘yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish, ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o‘zlashtirish mumkin. Ya’ni, perspektiv va konsruktiv qurilish, shaklning soya-yorug‘ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialliligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interyer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg‘unlik hisoblanadi. Badiiy Akademianing raisi T. Qo‘ziyev o‘quv jarayonida naturmortning muhim ekanligini ta’kidlab: «Naturmort – shunday zaminki, unda badiiy mактаб mustahkam joylashgan bo‘lishi kerak», – deydi.

Naturmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun’iy yorug‘likda tasvirlash lozim.

Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Naturmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddarоq, so‘ngra esa, narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig‘ilganini tasvirlash uchun naturmort kompozitsiyasini to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo‘yilmasining tashkiliy qismini (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko‘rish nuqtasini aniqlash va qog‘oz yuzasida qo‘yilmani tasvirlash.

### **NATURMORT QO‘YILMASI**

O‘quv naturmort qo‘yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak.

Har bir o‘quv naturmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko‘rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilar natura qo‘yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O‘quv vazifalaridan tashqari, naturmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo‘lishi, mazmun jihatdan ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi va ma’lum g‘oyani ilgari surishi kerak. O‘quv naturmorti ijodiy naturmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o‘quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo‘yilma natijali yakunlanadi. O‘quv naturmortida biroz bo‘lsa-da, shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Naturmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo‘yilmasini tuzmasdan ilgari fikr yuritiladi.

O‘quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo‘lajak natura qo‘yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo‘ladi.

Masalan, N. Mashkov «Nonlar» naturmortini tasvirlash uchun novvoyga non mahsulotlarini tayyorlab berishga buyurtma bergen.

Naturmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo‘lgani ma’qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. Naturmort qo‘yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo‘lishi qo‘yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishda qiyinchilik tug‘diradi.

Naturmort qo‘yilmasining ufq chizig‘iga nisbatan pastda joylashgani ma’qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) sol ustida aniq ko‘rinib turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo‘yicha qo‘yilsa, sol yuzining gorizontal tekisligi ko‘rinmay qoladi, bu esa naturmortning fazoviy yechimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Naturmort tuzish vaqtida narsalarning balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir tomonga yig‘ilib qolishi noto‘g‘ri. Yirik buyumlar qisman bo‘lsa-da, boshqa buyum bilan biroz to‘silgan bo‘lishi mumkin. Qo‘yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har birini yaqqol ko‘rish mumkin bo‘lsin.

Natura qo‘yilmasidagi narsalarning ranglari ma’lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo‘lishi kerak.

O‘quv qo‘yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och-to‘qligi barobarida

kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarimsoya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rinish turadi. Qoramtil fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish eta oladi. Foning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, naturmortning foni bilan tagligi (solning gorizontal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interyer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'rnida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.


O'quv naturmortining kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik san'atda tabiat va bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoqda: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjudligi.

Ijodiy naturmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq (19-rangli rasm). Masalan, «Qulupnayli naturmort» nomli bitiruv malakaviy ish ijodiy naturmort kabi misol bo'la oladi. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallilik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofikdir.

## NATURMORT KOMPOZITSIYASI

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o‘tishdan oldin naturmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Tasvirlovchi narsalar to‘plamiga (naturmort) ma’lum bir ko‘rish nuqtasidan qaraydi va u, ko‘z qarashida qat’iy ravishda, kuzatish perspektivasi qonuniyatining o‘zaro bog‘liqligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o‘zaro yoritilgan va bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular oralig‘ida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug‘liklar taqsimoti ma’lum bir tartibda bo‘ladi. Mabodo, ko‘rish nuqtasi o‘zgartirilsa, naturaning o‘zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘rish nuqtasi yorug‘likka qarama-qarshi bo‘lganda tasvirni siluet tarzida ko‘rish mumkin.


Naturmortni tasvirlash jarayonida to‘plamdagи barcha narsalar, ularning o‘zaro joylashuvi, yorug‘-soya va tus munosabatlari obrazli ko‘rinishga bo‘ysundiriladi va idrok qilinadi. Naturmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, u qaysi nuqtadan kuzatilganda ham uning yaxlit bir butun ko‘rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog‘liq. Naturaga nisbatan qiziqarli ko‘rish nuqtasini tanlab olgach, qog‘oz varag‘i yoki mato qanday o‘lchamda bo‘lishligini aniqlash zarur. Qog‘oz varag‘ida ifodalanadigan naturmort qo‘yilmasini naturadan to‘g‘ri aniqlab tasvirlay olish kerak (20-rangli rasm).



1-rasm. Manzara.  
Etud. Akvarel.



2-rasm. A. Dyurer.  
Yosh quyon. Akvarel.




3-rasm. Xromatik va axromatik ranglar.



4-rasm.  
Gullar.  
Guash.



5-rasm. Portret.  
Guash.



*a*




*b*

*6-rasm. Temperada naturmortni bosqichli ishlash.*



*7-rasm. Anorli naturmort. Tempera.*



8-rasm. Moybo‘yoqda  
naturmortni bosqichli ishlash.




9-rasm. O'quv naturmorti.



*10-rasm. O‘.Tansiqboyev. Mening qo‘srig‘im.*



*11-rasm. Z. Inog'omov. «Choyga».*



*12-rasm. I. Sushenko. Buxoro. Peshin.*



*13-rasm. I. Xaydarov. Baxmalda kuz.*



*14-rasm. I. Xaydarov. Baxmalda oydin kecha.*

*15-rasm.* Rangtasvirda rang va tus munosabatlari.







16-rasm. Yaltiroq jismlardagi yorug'lik kuchi.



17-rasm. Shishkin. Emanzor.



18-rasm. N. Ten. Naturmort.



19-rasm. «Qulupnayli naturmort» bitiruv malakaviy ishi.




20-rasm. Naturmort kompozitsiyasini tuzish.



21-rasm. Naturmortni ishslash jarayoni.



22-rasm. I. Qudratov. «Eski shahar» rangli etud.






23-rasm.  
Naturmort  
etudi.



24-rasm.  
Gullar etudi.

25-rasm. Naturmortni bosqichli tasvirlash.





26-rasm. Qarama-qarshi ranglardan tuzilgan naturmort.

27-rasm. M. Fatkulin (1949-yil). «Qumg'onli naturmort». Mato, moybo'yoq. 1986-yil.





28-rasm. Naturmort rangtasviri.




29-rasm. O'quv naturmort.



30-rasm. «Naturmort». Diplom ishi.



31-rasm. M. Nabiyev. Amir Temur.



32-rasm. Bosh tasvirining o‘quv etndlari.




33-rasm. Modern  
uslubida portret.



34-rasm.  
O‘quv  
portreti.



35-rasm. O‘quv portreti.




36-rasm. M. Nabihev. Abu Rayhon Beruniy portreti. 1949.




37-rasm. Erkak kishi  
libosli portretning turli  
ko‘rinishlardagi tasviri.



38-rasm. Ayol kishi portretining turli nuqtalardan chizilgan o‘quv etudlari.



39-rasm. B. Salomov. Tungi suhabat. 1982-yil.



40-rasm.



41-rasm. T. Oganesov. Sut  
sog'uvchi.



42-rasm.  
R. Xudaybergenov.  
Hamshira.



43-rasm. D. Kardovskiy.  
Binafsha rangli  
ko'ylakdagi qiz.



44-rasm. Yarim  
qomatdagi erkak kishi  
o‘quv etudlari.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog‘oz varag‘i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat’iy rioya qilish, samarali natija garovidir.

Naturmort kompozitsiyasining qurilishi dastlab qog‘oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarning puxta joylashuvi, qog‘oz o‘lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo‘yilmasi muayyan o‘lchamdagи qog‘ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma’lum o‘lcham tekisligida «tiqilinch», yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog‘oz tekisligida aniq ko‘rinmaydi.

Tasvirda asosiy e’tiborni o‘ziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo‘lib xizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabning nazari ana shu markazga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o‘lchamdagи qog‘oz bo‘lagida bo‘lajak natura qo‘yilmasining xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so‘ng, asosiy ishga o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo‘yilmalaridan gipsli geometrik shakllardan (14-rasm) keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo‘lgan maishiy buyumlardan tuzilgan naturmortlarni astoydil ishslash, so‘ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo‘yilmalarini (plener sharoitida va interyerda joylashtirilgan naturmortlar) tasvirlash mumkin.



14-rasm. Gipsli geometrik shakllardan va geometrik shakllarga yaqin bo‘lgan maishiy buyumlardan naturmort.

Naturmort qo‘yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab, so‘ngra boshqalariga o‘tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik muhim hisoblanadi. Buning uchun narsalar to‘plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish, tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o‘ta zarur.

Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda, yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisباتи, hajmini hamda buyumlarning konstruktiv qurilishi kabi vazifalarini to‘liq bajarishmaydi. Ularning diqqat-e’tibori narsalarning kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo‘ladi. Ular narsaning sirtqi ko‘rinishini chizishsa, shakl ham to‘g‘ri tasvirlanadi, deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko‘rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o‘zaro joylashuvi, istalgan qirrasining yo‘nalishi naturada osongina aniqlanadi hamda

naturaning yo‘naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal (yotiq) chiziqlari yordamida tasvir qog‘ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, sol tekisligida o‘zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho‘zilgan qo‘lda vertikal, gorizontal yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo‘nalishini tekshirish mumkin.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib qurish hamda yengilyelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini va ularning o‘zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to‘plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan, ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda «muallaq» bo‘lishi yoki biri ikkinchisiga «o‘yib» kirgandek ko‘rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarning va ular qismlarining katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Moybo‘yoqli rangtasvir uchun matoda, ko‘mir yordamida, yorug‘ va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarning hajmdor shakli yorug‘ soyalar bilan qurilsa, qalamtasvir aniq ko‘rinadi. Tayyor bo‘lgan tasvirning tashqi ko‘rinishini tush bilan chizib chiqib, ko‘mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa, bo‘yash uchun zarur bo‘lgan naturmortning aniq ko‘rinishi qoladi.

Rang bilan ishslash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash

jarayonida ishning boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Endi o‘quv naturmortini amaliy bajarishga o‘tamiz. Dastlab faqat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir), keyin rangli (akvarel va moyli bo‘yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

### NATURMORTNING TUSLI TASVIRLANISHI (GRIZAYL)

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o‘zlarining dastlabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo‘lib, qo‘yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o‘rganishda ko‘pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo‘yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N. Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug‘lik orqali yetkazishdan ko‘ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rangtasvirga o‘tishda, yorug‘likdagi tusga bo‘lgan ko‘nikmaga ega bo‘lish kerak...». Demak, rangtasvirning boshlang‘ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.



15-rasm. Naturmort. Grizayl.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialliligi, uning hajmi, tus munosabatlarini ranglar vositasida hal qilishga o‘tiladi. Haqqoniy qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsadagi (shu’la, yorug‘lik, yarimsoya, soya va h.k.) yorug‘-soya gradatsiyasi va ularning ranglardagi o‘zaro tusli farqlarini to‘g‘ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba’zi narsalar naturada zich va to‘qroq, boshqalari esa ochroq ko‘rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to‘qroq va zichroq «og‘ir» (masalan, chinni ko‘zada, cho‘yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli vaza, qog‘oz rulon va h.k.) ko‘rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog‘da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo‘ylmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to‘qligi munosabatlarining to‘g‘ri olinayotganligi kenglikni ko‘rsatishga imkon tug‘diradi.

Tus munosabatlarini eng to‘q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko‘rsatilishi to‘g‘iroqdir. Har bir narsaning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o‘zaro och joylarini, soyani soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to‘q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to‘qroqdir. Mevalardagi yorug‘lik eng yorug‘ joyiga qaraganda to‘qroq bo‘lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarning kamayishiga erishish zarur. Eng to‘q narsalar yoki uning soyasi – bu qora baxmalda va ko‘mir rangida emasligini esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha

yumshoqroq, lekin juda ham to‘q qora tusda ishslash kerak emas. Hattoki, qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo‘yoqni bor kuchidan foydalanish noto‘g‘ri, aks holda qog‘ozda yoki matoda go‘yo qora teshik paydo bo‘ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo‘yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo‘q, chunki u oq bo‘yoqqa nisbatan ancha to‘qroq bo‘ladi.

Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obyektlarning yorug‘-soya munosabatlari: foning och-to‘qligi, narsalarning sirtidagi och-to‘qligiga va ularning o‘zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo, qo‘yilmadagi narsalarning umumiyligi tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiyligi munosabatlarni noto‘g‘ri olsak, qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug‘-soya hamda tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko‘rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug‘likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo‘yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug‘likni esa ularga nisbatan quyuq bo‘yoqda, ancha to‘qroq qatlamli va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo‘yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo‘yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo‘yoq surtmalarini shakl yo‘nalishi bo‘yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo‘lgan narsaga turli tasodifiy yo‘nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko‘rsatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha, balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrasli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko'rinib turgan tashqi ko'rinishi o'zining ko'lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatan yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo'shilib, uning yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini yorug'-soya bilan ham puxta ishlash kerak. Gipsli narsalarning sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug'likdan soyaga bora turib) yuzasining har bir millimetri asta-sekin to'qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to'q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha biroz ichkari tomonida bo'ladi. Tashqi ko'rinishning o'ng tomonidagi shaxsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va h.k.) narsalarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish izchilligining xususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib, o'zining ma'lum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi – hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo‘ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo‘laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko‘rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo‘qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obyektlar siluetli va tekis (yassi) bo‘lib ko‘rinadi. Old ko‘rinishdagi buyumlarning yorug‘-soya qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o‘qiladi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so‘ng, ularni umumlashtirishga o‘tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo‘laklarni, ularning yorug‘ soyasini maromiga yetkazib ishslash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug‘ va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhining yaxlitligini saqlash – haqqoniy tasvirlashning asosiy sharti hisoblanadi.

## **UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARIDAN TUZILGAN NATURMORT**

Akvarel bo‘yog‘ida dastlabki mashqlarni bajarish uchun qo‘yilma 3–5 ta narsadan iborat bo‘lib, rang va tus munosabatlari bir-biridan farq qilgan, ular shakliga ko‘ra uncha murakkab bo‘lmagan buyumlar bo‘lishi kerak. Sodda qo‘yilmalarini astoydil ishlab, ijobjiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natura qo‘yilmalarini bajarishga o‘tish noto‘g‘ri. Akvarel bo‘yog‘ida mashqlarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq.

Uzoq vaqtga mo‘ljallangan har qanday vazifa oldidan dastlabki qisqa muddatli etudlarni bajarish muhimdir. Shu tariqa bajarilgan rangli etudlar tasvirlanayotgan naturaning katta hajmga ega bo‘lgan mato yoki qog‘ozdagи kompozitsiyasini to‘g‘ri topishga ko‘maklashadi va ishslash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarni aniq ko‘rsatishda namuna bo‘ladi.

Naturmortni akvarel bo‘yoqlari bilan rangda ishslash jarayonini (ko‘rgazmali) amaliy namoyish etish uchun biroz murakkab bo‘lgan mevalar va maishiy narsalardan tuzilgan natura qo‘yilmasini olamiz. Qo‘yilmadagi (21-rangli rasm) idish tekis yaltiroq yuzaga ega, shuningdek, ravshan ifodalangan (nur) shu’lasi mavjud. Hamma narsalar stol ustiga joylashtirilgan, orqada yorqin kulrangdagi devor foni va sidirg‘a matolar. Mevalarda aniq belgilangan shaxsiy, tushuvchi va yarimsoyalar aniq ko‘rinib turibdi. Idishda iliq va sovuq reflekslar mavjud.

Bunday tuzilgan naturmortning qalamtasviri qiyinchilik tug‘dirmaydi, ammo ranglarda tasvirlash biroz murakkabroq, chunki mevalarning aniq rangini tasvirlash uchun rang munosabatlariga qat’iy amal qilish zarur. Bo‘yoqning dastlabki qatlamenti qo‘yishdan boshlab rang munosabatlaridagi mutanosiblikni saqlab borish kerak. Akvarel bo‘yoqlari qurigach, biroz oqaradi, shuning uchun ham ularni rang jihatdan to‘qroq olish mumkin.

Akvarel bo‘yoqlari bilan tasvirlash jarayonida narsa va buyumdagи yorug‘ bo‘lib turgan qismlarni bo‘yamaslikka harakat qilish kerak.

Malaka ortib borgan sari kerak bo‘lgan tuslarni tezda hosil qilish mumkin, qog‘oz yuziga qanchalik ortiqcha bo‘yoq qatlami surtilsa, narsalarning rangi xira bo‘ladi. Modomiki, ranglar birdaniga olinib, kerakli joyga surtilsa, uning yonidagi tuslarni ham topish yengil ko‘chadi.

Tasvirlovchi har bir narsaning hajmdor shaklini yorug‘- soyaning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan uning rang o‘zgarishlarini ham e’tibor bilan kuzatib borishi kerak. Jigarrang idish yarim soyada va yorug‘likda xilma-xil rang turiga ega. Fondan tushayotgan reflekslar jigarrang emas, balki siyoh rangdir. Undan tashqari mevalar soyasida reflekslar mavjud, ular o‘zaro och-to‘qligi bilan va rang turlari bo‘yicha farqlanadi.

Eslatib o‘tmochimizki, hamma buyumlar (narsalar) ga, bir vaqtning o‘zida, och-to‘qligi, rangdorligi va to‘yinganligini taqqoslagan holda rang berish kerak. Demak, narsalarni yakka kuzatmasdan, aksincha, to‘plamni yaxlit ko‘rishga harakat qilish lozim. Yonmayyon turgan ikkita narsaning rang farqlarini taqqoslash qiyin emas. Agarda oldimizda o‘nta narsadan tashkil topgan naturmort bo‘lsa, har bir narsaning rangini yakka holda, shuningdek, hammasi bilan birgalikda yaxlit taqqoslash zarur. Ya’ni, xuddi orkestrda bo‘lgani kabi.

Orkestrda faqat dirijorgina bu ansamblidagi barcha musiqa asboblarini bir vaqtida o‘zi eshitadi. Rangtasvirda ham xuddi shunday, faqat yaxlit idrok etishgina narsalar guruhining rang munosabatlarini to‘g‘ri aniqlashga imkon beradi.

Har bir narsaning hajmdor shakliga ishlov berishda undagi mavjud iliq va sovuq rang turlarini diqqat bilan kuzatish lozim. Shu bilan birga, eng muhim, umumiyl

tus va ranglar gammasi (barcha bo‘yoqlarning uyg‘unlik birligi)ni nazardan qochirmaslik kerak.

Narsalarning shu'lalarini tasvirlash mobaynida ularning jozibali ranglarini unutib, faqatgina yorqinligiga erishish bilan chegaralanish kerak emas.

Har bir narsaning och-to‘qligi va rangdorligi fon bilan atrofidagi narsalar rangi va och-to‘qligiga bog‘liq bo‘lsa, unda uning atrofidagilarini bo‘yamaguncha to‘g‘ri ifodalash mumkin emas. Agar bitta narsaning rangi o‘zgartirilsa, u bilan birga yonidagi bo‘laklarni ham o‘zgartirish kerak. Soyalar to‘qlashtirilsa, yorug‘ yanada yorqinlashadi. Ammo fonnini qoraytirsak, unda narsalardagi yorug‘ aniq ajralib, soyalarning kontrastligi yo‘qoladi.

Narsalarning old va orqa ko‘rinishlari orasidagi kenglikni ko‘rsatishga ham e’tibor qaratish lozim. Naturmortdagi narsalar bir-biridan turli masofada joylashadi, yaqindagi narsalar yorqinroq ko‘rinadi.

Agar uzoqda turgan narsalarning ranglarini yengilroq va xiraroq olinmasa, oldingi qatorga chiqib ketadi. Naturmortni tasvirlash vaqtida havoiy perspektivaning ta’sirini har doim ham naturada yengil sezish qiyin; shunga qaramay buni har doim yodda tutib, qalam bilan tasvirlashda bitta narsani yaqinroq joylashtirish, boshqasini esa uzoqlashtirib tasvirlash kerak. Agar bo‘yoq mo‘yqalam va suv bilan yaxshilab eritilgan bo‘lsa, qog‘oz yuzasida yorqin tasvir hosil bo‘ladi. Mabodo, aksi bo‘lsa, u holda qog‘oz sathida mo‘yqalam izlari qoladi, ish esa sifatsiz chiqadi.

Akvarelda tinimsiz vazifalarni bajarish natijasida, turli usul va uslublarda astoydil ishlab, ko‘nikma va malaka ortib boradi.

«Yorqin» chizish texnikasi narsaning materialligini aniq ko'rsatishga va chuqur soya joylarining shaffof bo'lishiga imkoniyat beradi. Agar ish jarayonida ikkala uslubdan samarali foydalanilsa: barcha soya joylarini va reflekslarni faqat «yorqin» uslubda, yorug'lik va yarim soyalarni esa – «quruq» usulda ishlash yaxshi natija beradi. «Yorqin» uslubda ishlash «quruq» ishlashdan ustun bo'lishi kerak.

Narsalarning yoritilgan joylari aniq tashqi ko'rinishga ega. Soya va uzoq ko'rinishdagi tus va rang kontrastlari sustroq, shakllari esa yaqqol tashqi ko'rinishga ega emas.

Soya va orqa ko'rinishdagi narsalarning tasviri umumlashtirilgan holda bo'lishi lozim. Aynan shu joyda namligicha ishslash usulini qo'llash ma'qul. Ishlashdan oldin qog'ozni toza suv bilan yumshoq latta yoki katta mo'yqalam yordamida bir sidra ho'llanadi. Ikki-uch daqiqadan so'ng, qog'oz suvni shimb olgach, akvarel bilan ishni boshlash mumkin. Bo'yoq surtmalari nam qog'oz yuzida yeyilib, bir-biri bilan qo'shilib, mayin va nozik o'tishlar hosil qiladi. Agar biror-bir joyini ajratish lozim bo'lsa, qog'ozni quritib, kerakli bo'yoq surtmasi beriladi yoki quruq mo'yqalamda aniq rangli chegaraning talab etilgan joylari to'qlashtiriladi. Namligicha ishslash usuli tasvirni nihoyatda nozik va jozibali ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Akvarel bo'yoqlari bilan ishslash jarayonida soya-yorug'dagi nozik o'tishlarni silliqlab borish kerak emas.

Quruq qog'ozdagagi kuchli namlangan bo'yoq dog'i qurigandan so'ng juda ham yaqqol kontur paydo qiladi. Shuning uchun bunday dog'larning chekka qirralarini qurimasdan yumshatish lozim. Tasvirlanayotgan

etud muvaffaqiyatsiz chiqib, tuslari xira bo‘lsa, ish jarayonini to‘xtatib, katta mo‘yqalam yoki paralon yoki momiq paxta yordamida ishni yuvib tashlash kerak. So‘ngra ishni qayta akvarel bo‘yog‘ida ishlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Juda namlangan qog‘oz odatda bo‘rtadi, egiladi, ammo qurigan paytda yana tortiladi va ishni davom ettirish mumkin.

Akvarel bo‘yoqlarida bajariladigan dastlabki o‘quv mashg‘ulotlari har doim ham ko‘ngildagidek bo‘lavermaydi. Ranglar xira, kir va sifatsiz bo‘ladi. Bunday holatda cho‘chish kerak emas, chunki taniqli rassomlar ham dastlabki o‘rganish jarayonida barcha qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar.

Umuman, haqiqiy mahorat tinmay o‘qish, o‘rganish va izlanish jarayonida hamda astoydil amaliy mashqlarni bajarish orqali yuzaga chiqadi. Surat haqida gapirganda: «Bu qanday dadillik bilan tasvirlangan!» deb hayqirishdan ko‘ra, «Qanday ajoyib» yoki «Qanday go‘zal tabiat» deyilgani rassom uchun katta baxt.

Rangtasvirda eng muhimi shakllarning aniqligi, oddiyligi va mazmunning chuqurligidir.

### *Amaliy maslahatlar*

1. Qog‘oz. Qog‘ozga rang berishdan oldin, uning xususiyatlarini: bo‘yoqlar qog‘oz yuzasini tekis qoplashini, suvda oson yuvilishini, qog‘oz turli o‘zgarish va tuzatishlarni qabul qilishini va h.k.larni tekshirish lozim.

Qog‘oz qattiq asosga yelimlangan bo‘lishi kerak, chunki to‘lqinsimon, namlikdan shakli o‘zgaruvchan qog‘ozda samarali natijalarga erishish mumkin emas. Ishga kirishishdan oldin qog‘ozning old tomoni momiq

paxta yoki mo‘yqalam yordamida eng kamida ikki marta toza suv bilan ho‘llanishi kerak. Ikkinchisi marotaba ho‘llash dastlabkisi qurigandan so‘ng bajariladi.

2. Qog‘ozni planshetga yelimlash. Taxta tozalab artiladi. Yelimlashga mo‘ljallangan qog‘ozning old tomonini pastga qaratib, chekkasidan 2–3 sm o‘lchamda yuqoriga qarab bukiladi. Qog‘oz yuzi momiq paxta yordamida ho‘llanib, hoshiya qoldiriladi. Hoshiyalari yelim bilan surkalgach, qog‘ozning old tomonini yuqoriga ag‘darib, suv bilan ho‘llanadi va hoshiyasi latta bilan ohista yopishtiriladi. Qog‘oz barmoqlar bilan bir tekis qarama-qarshi tomonga tortiladi, bu jarayon namlangan qog‘ozni cho‘zadi va qurigandan keyin to‘lqinsimon holati yo‘qolib, tekis bo‘ladi.

### **QISQA MUDDATLI ETUDLAR**

Yosh rassomlar dastlabki ta’lim bosqichida, odatda, chizayotgan narsalarni yuzaki, xuddi o‘ziday ko‘chirishga harakat qiladilar. Ular diqqat bilan oldinma-ketin narsalarga tikilib qarashadi, so‘ngra har bir mayda bo‘laklarni va ularning rangini alohida-alohida bo‘yashadi. Natijada tasvir maydalashgan va bir butun ko‘rinishda bo‘lmaydi. Bunday kamchiliklar qo‘yilmaning predmetlar orasidagi katta rang munosabatlарини etuddа ko‘rsata olmaslikdan kelib chiqadi. Yosh rassom inson kallasini tasvirlashda ham, masalan, yuzning mayda bo‘laklaridan boshlamay, faqat harakatdagi, nisbatlarda umumiylik va yaxlitlikdan boshlashi, rangtasvirda esa turli natura obyektlari (naturmort, manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog‘lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o‘rganib olishi kerak. Natura obyektini yaxlit

ko‘rish va katta asosiy ranglar dog‘ini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahorat lozim bo‘ladi, u esa dastlabki rangtasvir ta‘limida shakllangan bo‘lishi kerak. Faqat shundan so‘ng uzoq muddatli (vaqt bo‘yicha) ishlarga, manzara obyektlari yoki naturmortdagi buyumlarning hajmli shakllariga puxta ishlov berishga o‘tish mumkin.

Ochiq havoda (plener) kichik etudlarni rangda ishlashda, avvalo, asosiy rang munosabatlarini topa bilish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko‘rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog‘larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o‘lchamdagи etudlarda mayda bo‘laklarga e’tibor berilmaydi, asosan, katta rang munosabatlarida chiziladi. Manzara etudlarini bajarishda uncha murakkab bo‘lmagan sujetlar tanlanadi (masalan, uy bilan hovlining bir bo‘lagi) (22-rangli rasm). Keyinchalik vazifani murakkablashtirib ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o‘tiladi. Bunday etudlarda havo perspektivasidagi, masalan, manzaradagi rang, och-to‘qlik va to‘yinganlikning turli ko‘rinishlardagi hodisalarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Bunga esa manzaraning barcha ko‘rinishlarini taqqoslash yo‘li bilan yaxlit idrok qilish orqali erishiladi.

Masalan, old ko‘rinishdagi daryo qирг‘ог‘и ikkinchi hamda uzoqdagi ko‘rinish bilan, shuningdek, bir vaqtda osmon va uning suvdagi aksi bilan ham taqqoslanadi (etudni ishslash vaqt 15, 30, 60 daqiqa bo‘lishi mumkin).

«... Etudni shunday tasvirlash kerakki, birdan yer bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab, mohiyatini ilg‘ab olish lozim», – deydi taniqli ijodkor O‘. Tansiqboyev o‘z shogirdlariga. Uning o‘zi esa etudlarda asosiy rang munosabatlarini qurishda mohir usta bo‘lgan.

Qisqa muddatli etudlarni bajarish maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin: bir holatda etud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi rang munosabatlari tahlil qilib o‘rganiladi hamda uning koloritiga xos birinchi taassurotlar belgilanadi: boshqa holda esa – shakllarni qo‘srimcha va puxtarot o‘rganish maqsadida uning mayda bo‘laklari (inson qo‘lining etudi, manzaraning ayrim bo‘laklari) aniqlanadi. Rangtasvirning ayrim qonuniyatlarini puxta o‘rganish uchun dala amaliyotida etudlar bajariladi: umumiy yoritganlik holati, kolorit yaxlitligi va h.k. Manzara etudini tasvirlashda har doim yorug‘lik tez-tez o‘zgarib turadi. Hattoki, quyosh bulutlar ortida bo‘lsa ham, u manzaraga bevosita ta’sir qiladi, ish boshlashidan oldin va so‘ngida manzaradagi yorug‘lik holati doim turlicha bo‘ladi.

Naturmortning umumiy tus va rang holatini xonaning ichki sharoitida aniq kuzatish uchun tuzilgan sodda natura qo‘yilmalari bilan bir nechta qisqa muddatli etudlar (23-rangli rasm) bajarilganda yorug‘lik manbayi har xil masofada joylashtirilgan bo‘lsa (deraza yaqinida, xona o‘rtasida va derazadan uzoqlashgan holatda), dastlabki naturmort qo‘yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi, natijada u boshqalarga nisbatan kuchliroq yoritilgan bo‘ladi. Keyingi qo‘yilmalarning yoritilishi esa biroz sustroq bo‘ladi. Bu o‘quv qo‘yilmalari orqali etudlardagi yorug‘-soya, rang hamda yoritilishning pasaytirilishi yoki kuchaytirilishiga bog‘liq holda uning umumiy tus va rang holatining qanday ko‘rinishi namoyish etiladi.

Koloritga, ya’ni rang qatorining birligi va uyg‘unligiga xos qisqa fursatli etudlar bajarish muhimdir. Bunday maqsadli qo‘yilmalarda qandaydir ma’lum bir rang ustun turishi kerak. Masalan, naturmortni

sun'iy issiq yorug'lik bilan yoritish mumkin. Bunday etudlarda mayda bo'laklarni batafsil ishlab chiqishga hojat yo'q. Muhimi, rang gammasini, uning birligi va uyg'unligini tushunib yetish. Qisqa muddatli etudlardagi qo'yilmalarni issiq va sovuq gammalarda almashtirib turish lozim.

Yosh rassom uzlusiz mashqlar natijasida, ranglardagi nozik o'zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanligining rivojlanishiga, rang-baranglikni sezishga hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashiga zamin yaratiladi. Tajribali rassomlarning etudlarini kuzatganda, ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraymiz (24-rangli rasm). Bunga «Gullar» etudi misol bo'ladi. Naturaning rangdor koloritli holatini mohirona tasvirlash mahoratiga uzlusiz amaliy ishlash natijasida erishiladi.

Shunday qilib, naturaning asosiy obyektlari orasidagi umumiy hamda beqiyos ranglar munosabatining ma'lum tus va ranglar ko'lamida saqlanganligi rangtasvirning asosi hisoblanadi. Shular asosida obyektlarni keyingi ranglarda ishslashning o'ta nozik jarayoni amalga oshiriladiki, bu tabiatni diqqat bilan kuzatish, uni jonli his etish natijasidir. Qolaversa, rangli tasvir naturmortning alohida buyumlari yoki manzara obyektlari nusxasini yuzaki ko'chirish orqali yaratilmaydi, u buyumlarning rang munosabatlari va ularning fazoviy kenglik bilan birga o'zaro bog'liq holda, yaxlit obraz asosida rassomning idrok etishi natijasida vujudga keladi. Har qanday natura qo'yimasini yaxlit obraz sifatida qabul qilish lozim. Naturmortning turli narsalardan tuzilganligini, masalan, qumg'on, olma, piyola; manzarada esa – alohida osmon, o'rmon va yiroqdagi ko'kimir tog'larni ma'lum vaqtga

yoddan chiqarish kerak. Naturaga bunday qarash orqali buyumlarning shaxsiy rangini ko‘rish mumkin, lekin tasvirlash lozim bo‘lgan ranglarni emas. Naturaning barcha narsalari yoki obyektlari – bu rangli kartinaning bir qismi, xolos. Ranglarning jarangdorligi, uning yaxlitligi tasvirlash mobaynida namoyon bo‘ladi, bu esa xuddi turli musiqa asboblarida ijro etilayotgan yaxlit simfonik asar singari jaranglaydi.

### *Amaliy maslahatlar*

1. Umumiy tusdagi qisqa muddatli etudlarni dastlab grizaylda bajarish maqsadga muvofiq. Bu esa diqqat-e’tiborni faqat tus jihatdan ko‘rsatishga yo‘naltiriladi, tasvirlovchini tus shkalasini sezishga, naturadagi eng och-to‘q va to‘qroqlikni aniqlashga, tus gradatsiyasini bu ikki qutblarga bo‘ysundirishga o‘rgatadi.

2. Etudni bo‘yoqlarda boshlashdan oldin puxta tayyorgarlik ko‘rish lozim: uning kompozitsiyasini yechish, ranglar bilan ishlashga qalamtasvirni tayyorlash hamda etudni rangda bajarish. Etud kompozitsiyasida ko‘rish nuqtasi tanlanadi, tasvirning xomaki rasmi bajariladi, ya’ni etudning o‘lchami (format), ufq chizig‘i, asosiy kenglikdagi joylashishi belgilanadi.

Tayyorlov qalamtasvirida etudning perspektiv-kenglik qatori yaratiladi: nisbatlari to‘liq aniqlanadi, narsalarning konstruktiv chegaralari, ularning och-to‘qlik qismi belgilanadi (dastlabki yordamchi qalamtasvir ishi rang bilan shaklni qurishga to‘liq imkon beradi). Bular asosida etudning keyingi rangli-plastik yechimi shakllanadi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, ranglar bilan tasvirlashning so‘nggi natijasi mukammal chizilgan qalamtasvir bilan aniqlanadi.

Yetarli darajadagi tajribaga ega bo‘lgach, xomaki rangli etudlarni mo‘yqalam bilan bir zumda, dastlabki taassurotlarni saqlagan holda ishlash mumkin.

3. Koloritlarni o‘rganishga qaratilgan etudlar bilan bir qatorda o‘quv jarayonida «siluetli dog‘ bilan» xomaki etudlar ishlash ham kerak. Bundan maqsadi shuki, tez va ixcham shaklda narsalarning asosiy tus yoki rang munosabatlari, xarakterli nisbatlari, harakatlarini qayd etishdir. Meva va sabzavotlar, qush va hayvonlarning rangli xomaki tasvirlarida, eng avvalo, koloritga xos vazifalarni yechish kerak. Akvarel texnikasida siluet, dog‘ usullarida nisbat xarakterini, tus yoki rang ma‘lumotlarini namoyish etib ishlash juda ham foydali. «Dog‘» usulida mo‘yqalamdagi xomaki rasmlar shakllar bilan ishlashga o‘rgatadi, qalamtasvir – bu, avvalambor, shaklning tashqi ko‘rinishidan emas, balki ichki tomonidan tasvirlanishi haqida tushuncha beradi. Shu bilan birga barcha shakllarni yaxlitlikda ko‘rish kerak, siluetning chetlariga tikilmasdan «o‘rta qismiga» nazar tashlanadi, bo‘lmasa bunday holda umumiyl shaklning xarakteri yo‘qolib qolishi mumkin. Shu sababli naturmortlardagi vazalar, qumg‘onlar «qiyshaygan», inson qomatining xomaki rasmlarida esa nisbatlarning noto‘g‘riligi hosil bo‘ladi. Demak, chiziqli qalamtasvirda chiziqlar yuritilganda ham nihoyasiga yetkazilgan shaklni ko‘rish muhimdir.

### **RANGLARI BIR-BIRIGA YAQIN BO‘LGAN BUYUMLARDAN TUZILGAN NATURMORTNING RANGLI ETUDI**

Akvarelda ishlash malakasi biroz oshgandan so‘ng birmuncha murakkabroq naturmortlarni ishlashga o‘tish

mumkin. Bu mashq rang sezish qobiliyatini o'stirib, ranglar tusidagi tafovutlarni ham aniq tasvirlashni o'rganish imkoniyatini beradi. Naturmort uchun sopol ko'za, kosa va mevalar rangli mato fonida olinadi (25-rangli rasm). Uni diqqat bilan kuzatib, tahlil etib bo'lingach, qo'yilma qalamda yengil chiziqlar bilan tasvirlanadi. Chizilayotganda naturmort hamisha tasvir bilan taqqoslab turiladi. Shu jarayonda yo'l qo'yilgan xatolar asta-sekin tuzatiladi hamda bo'yoq bilan ishslashga o'tiladi.

Akvarel bo'yoqlari bilan naturmortning rangtasvirini ishlayotganda uning eng to'q joylarini birdaniga ishslash yo'li bilan yorug' tusdan to'q tusga qarab o'tib boriladi.

Naturmort rangtasvirini ishslashda yorug' joylarni oqishroq qoldirib, qolgan barcha narsa va buyumlarning ranglarini asliga yaqin bo'lgan rang tuslarining suyuq och eritmasi bilan bo'yab chiqiladi. Birinchi navbatda, to'q rang tusiga ega bo'lgan buyumlar ishlanadi. Qo'yilmadagi barcha matolar va buyumlar tasvirini ishslashni birgalikda, yalpisiga olib borgan ma'qul. Ana shundagina rang tuslarning o'zaro bog'liqligini hamda tiniqligini saqlab qolish mumkin bo'ladi. Naturmortdagи soyalar, yarimsoyalarni ishlayotganda undagi har xil rang tuslarini, shuningdek, yorug'lik nurlarini hisobga olish zarur, chunki naturmortning jonli chiqishida ana shu omillar muhim o'rinn egallaydi.

### **BIR-BIRIGA QARAMA-QARSHI RANGLARDAGI BUYUMLARDAN TUZILGAN NATURMORTNING RANGLI ETUDI**

Eng avvalo, naturmort uchun kerakli narsalar tanlab olinadi. Ular havo rang yoki yashil sirlangan (emalli)

kastryulka, ikki-uch dona sabzi, sariq yoki jigarrangli sopol piyola, ikkita sholg‘om, bir nechta kartoshka hamda ikki-uch dona yorqin qizil, zarg‘aldoq va och pushti rangli matolardan iborat bo‘lishi mumkin. Birinchi qo‘yilma uchun turli rangdagi va hajmdagi narsalar tanlab olinadi.

Dastlabki naturmortga qo‘yilayotgan narsalar soni 2 yoki 3 donadan oshmasligi kerak. Qo‘yilma chiroyli va qiziqarli bo‘lishi uchun tanlab olingan buyumlarni bir necha marta qo‘yib ko‘rish, ular birgalikda turganda qanday ko‘rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma’qul bo‘lmasa, bu ishni yana bir necha bor takrorlash va kompozitsiyada yaxlitlik paydo bo‘lgunga qadar davom ettirish zarur.

Sopol ko‘za va sabzavotlardan tuzilgan naturmortning muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir (26-rangli rasm). Qo‘yilmadagi buyumlarning kattaroqlarini orqada, maydalarini esa oldinroqda joylashtirib, biri ikkinchisini ozroq berkitib turadigan holatda qo‘yamiz. Ammo barcha narsalarning tubi qisman bo‘lsa-da, ko‘rinib turgani ma’qul. Shunda ularning o‘zaro joylashuvini tasvirlash ancha oson bo‘ladi.

Naturmort murakkab va ko‘p buyumli bo‘lgan taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi qatorda joylashtiriladi. U shakli, rang va tusi bilan ajralib ko‘rinib turishi, kompozitsiyaning markazini tashkil qilishi zarur.

Naturmortning fazoviy holatini yaqqolroq ifodali tasvirlash uchun uning birinchi oldingi qismiga uncha katta bo‘Imagan, ammo yorqin narsa qo‘yiladi. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvlarini

to‘laroq ochib berish uchun ularga tushayotgan yorug‘lik nurlari old tomondan va yonidan yo‘nalgan bo‘lishi kerak. Shunda naturmortdagi har bir narsaning hajmdor ekanligi aniq ko‘rinib turadi.

Naturmortdagi narsalarning tarxlari aniq ko‘rinishi uchun mato tanlashga alohida e’tibor berish zarur. Shuni ham hisobga olish kerakki, oq fonda qoramitir narsalar, to‘q fonda esa aksincha, oq narsalar aniq ko‘rinadi.

Keyinchalik naturmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar kiritiladi. Ular devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo‘yilsa, pastga erkin osilib tushib turadi va tabiiy shakldagi burmalar hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa, burmalar shu buyumning shakli bilan bog‘liq ko‘rinishda bo‘ladi. Lekin juda mayda burmalarni tasvirlash ancha qiyin, shu sababli dastlabki naturmortda sidirg‘a, jilvasiz gazlamalardan foydalanish kerak. Puxta qo‘yilgan naturmortda ortiqcha tasodify narsalar bo‘lmaydi, uni old yoki yon tomonidan kuzatilganda mazmunli yagona guruh bo‘lib, ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Naturmort qo‘yilmasini maqsadga muvofiq joylashtirib olgandan so‘ng, metodik izchillikda tasvirlanadi.

Qo‘yilgan naturmortga nisbatan eng yaxshi qarash nuqtasini topib, usq chizig‘ini unga muvofiq tarzda belgilab olish muhim ish bo‘lib, tasvirning umumiyl kompozitsiyasi ko‘p jihatdan shunga bog‘liq. Naturmort tasvirini surat tekisligida chiroyli joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab etadi. Shuning uchun asosiy ishni boshlashdan oldin bir nechta kichik o‘lchamda xomaki rasm chizma-lavhalar bajarib ko‘riladi. Ulardan eng muvaffaqiyatli chiqqanini tanlab olib, shu asosda katta tasvir ishslashga kirishiladi.

Qog'oz yuzasida naturmortning umumiy o'lcham mutanosibliklari aniqlangach, uning umumiy kengligi va balandligi yengil chiziqlar bilan belgilanadi. Har bir narsaning umumiy shakli, alohida qismlarning nisbiy o'lchamlari topiladi. Buyumlarning asoslari orasidagi masofalar ham aniqlanib, ohistalik bilan chiziladi. Bu ishlar qalamni qog'oz sathida tez-tez yurgizib, ishlanayotgan tasvirni qo'yilma bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi buyumning o'ziga xos shakli, katta-kichikligi va turgan o'rni aniq topilgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatiladi. Shakllardagi mavjud perspektiv qisqarishlar ham aks ettiriladi.

Buyum tasvirlarini surat tekisligida joylashtirish vaqtida ularning asoslarini, ya'ni ko'rinmas qismlarini ham to'liq chizish kerak. Shunday qilinganda ba'zi narsalarning «muallaq» holatda bo'lishi yoki bir narsaning ikkinchisiga «o'yib» kirgandek bo'lib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Naturmortni qalamda mukammal ishlab bo'lgach, rang berishga o'tiladi. Uning rangtasvirini ishslashda qo'yilgan narsalarning yorug'-soya nisbatlarini, ayni paytda rang nisbatlarini ham ochib ko'rsatish muhimdir.

Akvarel bo'yoqlarini ishlatish usullari bir necha xil bo'lib, naturmort rangtasvirini bajarishda ularning har birini almashtirib qo'llash tavsiya etiladi. Akvarel rangtasvirida keng tarqalgan ish uslublaridan biri lessirovka-bo'yoq qatlamlarini ustma-ust qo'yishdir. Bo'yoqning suyuq eritmasini tayyorlab olib, qog'ozga qatlam tarzida surtilganda tagidagi qog'oz tovlanib turadi. Bir sidra qo'yilgan bo'yoq qatلامи qurigach, ustidan boshqasi surtiladi, ostki qatlamning ko'rinish

turishi tufayli yangi rang tusi hosil bo‘ladi. Qatlamlar soni ko‘paygan sari rang tobora boyib, ta’sirchanligi kuchayib boradi.

Akvarel bo‘yoqlarining alohida xususiyatlaridan biri ularning ko‘p vaqt namlikni saqlashidir. Bundan unumli foydalanib, bir xil rang qo‘yilgandan keyin u hali qurimasidan ustiga ikkinchisi qo‘yilsa, asta-sekin bir-biriga qo‘shilib ketishi natijasida mayin bog‘lanishlarga erishish mumkin. Lekin bir rangning boshqasidan farqini aniq ko‘rsatish kerak bo‘lganda bo‘yoq qatlaming butunlay qurishiga ahamiyat berish lozim.

Akvarel bo‘yoq bilan ishlashni boshlashdan avval qog‘oz mo‘yqalam bilan namlab olinadi. Keyin tasvirning oppoq joyidan boshlab hammasi suyuq bo‘yoq eritmasi bilan qoplab chiqiladi. Soyalarni birdan qoraytirib yubormasdan, asta-sekinlik bilan bir qatlam qurigach ikkinchisini surtish kerak. Oxirgi bosqichda ingichka mo‘yqalam bilan bo‘laklarni ishlab chiqish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarni biroz to‘qlashtirib, naturmortning yaxlit va hamohang ko‘rinishiga erishish kerak.

## **UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARI VA MATOLAR BURMALARI BILAN TUZILGAN NATURMORTNING RANGLI ETUDI**

Ushbu naturmort qo‘yilmasida mis qumg‘on, likopcha, mevalar hamda matolar burmalari bilan mohirona tuzilgan. Naturmortda mis qumg‘on o‘zining chiroyli shaklga egaligi, likopchada esa turli shakl va rangga xos bo‘lgan mevalar hamda qo‘yilmaning birinchi ko‘rinishida g‘arq pishgan olma va turli matolar burmalari bilan jozibali qo‘yilgan. Avvalo,

qo‘yilmani sinchiklab kuzatish, to‘g‘ri qarash nuqtasini tanlay bilish ham zarur. Rassom qo‘yilmani shunday tuzishi zarurki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham har tomonlama aniq ko‘rinishi va kishini o‘ziga jalb eta olishi muhimdir.

Qo‘yilmani har tomonlama chuqur tahlil etib tasvirlash, birinchi, ikkinchi va uchinchi ko‘rinishlarni ajrata bilish rassomdan o‘tkir nigoh, hushyorlik va fikrlashni talab etadi.

Ranglash jarayonida barcha buyum va narsalarni bir sidra bo‘yash, so‘ngra soya, yarimsoya va shu'lalarga e’tibor bilan qarash ish sifatini oshiradi. Qo‘yilmada matolar burmasidagi farqlarni ajrata bilish, yorug‘ va soya qismlariga e’tibor berish, har bir bo‘yoq surtmasini joy-joyiga qo‘yish oson ish emas. Tasvirlashda dastlab narsa va buyumlarni alohida, so‘ngra yaxlit tusga bo‘ysundirib ishslash juda muhimdir (27-rangli rasm).

### **«KUZ NE’MATLARI» MAVZUIDAGI NATURMORT**

Qarshimizda turli buyum va narsalardan tuzilgan naturmort qo‘yilmasi: havorang ko‘za, zarg‘aldoq anor, likopchada qovun bo‘lagi va soldagi och havorang hamda jigarrang matolar. Oq devor och sariq mato bilan fon vazifasini o‘taydi (28-rangli rasm).

Ko‘za va anor rang jihatdan boshqa narsalarga nisbatan ancha yorqinroq. Boshqa narsa va buyumlar rangi ancha murakkab. Qo‘yilmani joylashtirgach chiroyli qarash nuqtasini tanlaymiz. Qo‘yilmaga yon tomondan tushayotgan yorug‘lik maqsadga muvofiqdir.

Dastlab al-lya prima texnikasida naturmort eskizi bir seansda bajariladi. Bu bosqichda asosan qo‘yilmadagi katta munosabatlar – soyalar va yarimtuslar aniqlanadi.

Bu tayyorlov ishda ijodkorning g‘oyasini ko‘rish mumkin. Qog‘oz yuzasida predmetlar aniq joylashgan, birinchi, ikkinchi va uchinchi ko‘rinishdagi buyumlar to‘g‘ri topilgan. Etudni tahlil etadigan bo‘lsak, ranglar farqidagi issiq va sovuq, yorqin va xira narsalar aniq ko‘rsatilgan. Zarg‘aldoq rangdagi anor esa o‘ziga issiq va kamto‘yingan tuslarni bo‘ysundiradi.

Ko‘zada soya, yarimsoya va yorug‘lik belgilanib, yorqin tusdagi matoning oldingi ko‘rinishda va devordagi farqi aniqlangan. Oldingi ko‘rinishdagi qovun bo‘lagi xuddi hozirgina kesib qo‘ygandek juda yaqqol tasvirlangan.

Endi esa qo‘yilmani qog‘oz yuzasida tasvirlashni belgilaymiz. Qog‘oz yuzasida tasvirlashdan avval, kichik o‘lchamdagи qog‘ozda eskiz variantini chizib, so‘ngra katta o‘lchamdagи qog‘ozda yordamchi chiziqlar orqali naturmortni tasvirlaymiz. Bu bizning birinchi bosqich ishimiz bo‘ladi. Endi bo‘yoqlarda ishni boshlaymiz.

Nimadan boshlagan ma‘qul? Yorqin rangga ega bo‘lgan buyumlardan boshlash maqsadga muvofiqliр. Qo‘yilmamizda ko‘za va anor ko‘zga yaqin narsalardir. Devor va sariq matoni juda bo‘rttirib ishlansa, yaxlitlik nisbatlari buzilib, naturmortning rang munosabatlari o‘zgarib ketadi. Ko‘za va anorni to‘liq o‘z holatidagi rangida olish mumkin.

Havo rang rangdagi ko‘za, turli tusda ko‘rinadi: yorug‘likda bir xil, yarimsoyada boshqa, soyada endi u havo rang emas, balki siyoh rang – havo rang, ayrim bo‘laklarida yashil-jigarrangroq (shu’la ta’sirida) bo‘lib ko‘rinadi. Ranglar bilan ishlashda ularni qo‘yilmadagi narsalar rangidan to‘qroq berish kerak, chunki u qurigach, biroz ocharadi. Havo

rang ko‘zaning ranglari yorug‘lik shu'lalar ta'sirida tovlanib, turli tusda ko‘rinadi. Qo‘yilmadagi anorda tushayotgan yorug‘lik ta'sirida sovuqroq pushti rang, yarimsoya esa zarg‘aldoq, soya qismida kuchli qizg‘ish tus hukmronlik qiladi.

Likopchadagi qovun bo‘lagini bo‘yar ekanmiz uni devor va devordagi sariq mato bilan taqqoslab ishslash to‘g‘ri bo‘ladi. O‘ylab kuzataylik-chi, likopchadagi qovun och tusdami yoki devormi? Rang jihatidan qaysi biri sovuqroq – devor, qovun yoki likopchami? Qanday farqlar mavjud? Qovun bo‘lagining po‘stimi yoki qovun o‘zi rangliroqmi? Shu narsa yoddan chiqmasinki, har daqiqa qo‘yilmani o‘zingiz tasvirlayotgan ish bilan taqqoslab, ishslashni davom ettiravering. Ma’lum vaqt o‘tgach, o‘z ishingizni qo‘yilma yoniga qo‘yib, ularni solishtiring va kamchiligini topishga harakat qiling. Taqqoslashda avval kichik bo‘laklar rangini, so‘ngra ishga yaxlit qarab, uning umumiylis tus munosabatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi ish so‘nggida barcha buyum va narsalarni umumiylis tusga bo‘ysundirib yakunlash hisoblanadi.

## **GIPSLI MILLIY NAQSHDAN TUZILGAN NATURMORTNING RANGLI ETUDI**

Bu naturmort qo‘yilmasini ishslashdan maqsad – gipsli milliy o‘yma naqshini, qumg‘on va sopol piyola rangli etudini qisqa fursatda ranglar vositasida bajarish.

Vazifaning asosiy maqsadi gipsli o‘yma naqsh buyumlar-ning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatidan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berishdir.

Qo‘yilmadagi buyumlarning o‘lchami turlicha bo‘lganligi uchun kichikroq buyumlar oldin, yiriklari esa orqada tasvirlanadi.

Naturmort kompozitsiyasini to‘g‘ri tasvirlash maqsadida alohida kichik o‘lchamdagи qog‘ozda xomaki rasmi chizib ko‘riladi. Tasvir kompozitsiyasi rangda hal etilgach, asosiy ishga o‘tiladi (29-rangli rasm).

Qo‘yilmani chizganda barcha buyumlarni bir yo‘la tasvirlash lozim. Aks holda rasmida bir buyumning o‘lchami kattaroq va ikkinchisi esa kichik bo‘lib, tasvir kompozitsiyasi buziladi. Shuning uchun qo‘yilmadagi barcha buyumlarning umumiy balandligi va eni qog‘ozda yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi.

So‘ng qo‘yilmadagi har bir buyumning o‘lchami jihatdan o‘zaro farqi, oralaridagi masofa, soya va yorug‘lik kuchi hamda ranglari ko‘z bilan chamalab aniqlashga o‘tiladi.

Qo‘yilma ufq chizig‘idan pastroqda joylashtirilgan bo‘lib, uning gorizontal tekisligi aniqlanadi. Gipsli naqsh rozetka orqaroqda balandlikda bo‘lib, mis qumg‘on va sopol piyola oldingi qatorda joylashgan.

Sopol piyola va mis qumg‘onning umumiy shaklini bildiruvchi chiziqlar – simmetrik o‘qlar va naqshli gips modelning asosi belgilab chiziladi. So‘ngra piyola va mis qumg‘onning ustki, pastki asoslari va naqshning yon tomon yo‘nalishlari perspektiva qonuniyatiga asoslanib belgilanadi. Naqsh gulining turgan joyini aniqlash uchun taxtacha asosi o‘rtasidan yordamchi profil chiziq yuritiladi.

Mis qumg‘on simmetrik shakldagi buyum hisoblanib, u silindr va shar shakllaridan tashkil

topgan. O'tkazilgan simmetrik o'qdan qumg'onning balandligi hamda enining o'lchami topiladi. Qumg'on ufq chizig'idan biroz pastroqqa qo'yilganligi uchun uning ustki va ostki asoslari ellips shaklda ko'rindi. So'ngra qumg'on bo'yisi va enini belgilovchi chiziqlarni tutashtirish orqali umumiy shakl topiladi.

Qo'yilma qalamda mukammal chizib bo'lingach, ranglash uchun hozirlik ko'rildi. Avval qog'oz mo'yqalam bilan namlab olinadi. So'ngra tasvirning oppoq joyidan boshlab hammasi suyuq bo'yoq eritmasi bilan qoplanadi. Soyalarmi birdan qoraytirmasdan, asta-sekinlik bilan bir qatlam qurigach, ikkinchisini surtish kerak. Ayniqsa, gips o'yma naqshni bo'yashda soya qismlarini haddan ziyod to'qlashtirmasdan, iloji boricha yengil ranglar bilan bo'yash to'g'ri bo'ladi. Gipsli o'yma naqshga tushayotgan issiq va sovuq ranglar shu'lasini his etib ko'rsata bilish rassomdan katta mahorat talab etadi. Tasvirlashda metodik ketma-ketlikka rioya etib bo'yash maqsadga muvofiqdir.

Oxirgi bosqichda kichik mo'yqalam bilan har bir bo'lakka puxta ishlov berish, narsalarning asoslari yonidagi soyalarmi biroz to'qlashtirib, qo'yilmani yaxlit va hamohang ko'rinishiga erishish kerak.

## **TURLI XIL RANGLARDAGI MATOLARDAN TUZILGAN NATURMORTNING RANGLI ETUDI**

Ushbu naturmort rangli etudning asosiy maqsadi, turli ranglardagi matolarni qalamda tasvirlab, ranglar orqali ko'rsata bilishdan iborat. Bu naturmort qo'yilmasi ancha murakkab bo'lib, asosan, matolarni turli holatda (buralib, bukilgan, tekis osilgan) turganligini ranglar

orqali tasvirlashdir. Yosh musavvir naturmortni tasvirlar ekan, matolarga shunchaki rang berish bilan ish bitmaydi (30-rangli rasm).

Qo'yilmadagi matolarni, avvalo, holatlarini qalamda yengil chiziqlar bilan belgilab, so'ngra ranglar vositasida uning bukilgan yoki osilib turgan holatlarini ranglashda uning och yoki to'q,sovut yoki issiq ekanligini his etib bo'yash zarur. Bu ish juda nozik bo'lib, mo'yqalam bilan matolar holatini topishda goh yengil, ba'zan ochroq yoki to'qroq tuslash bilan matoning tik yoki yotiq holatda ekanligini ko'rsatish mumkin.


Matolar holatini hamda uning yumshoq ekanligini his etib, mo'yqalamni juda nozik harakatlar bilan tebratish, uning fakturasini sezdira olish juda muhimdir. Shuning uchun ham matolarni mohirona tasvirlay olish uchun rassom juda ko'p ter to'kishiga, astoydil harakat qilishiga to'g'ri keladi.

## **GIPSLI BOSHNI GRIZAYLDA ISHLASH**

Gips bosh shaklining o'ziga xos xususiyatini ohib berish uchun o'quvchi qo'yilmani diqqat bilan kuzatishi lozim. U gips bosh shaklini tahlil etib, uni ifoda etar ekan, eng avvalo, shaklning umumiyl massasini, uning xususiyatini, mutanosiblik, o'lchamlararo nisbatlarni aniq belgilab tasvirlashi lozim. Gips boshni ishlashda qonun-qoidalarga rioxal qilgan holda, metodik izchillikda ishni davom ettirish to'g'ri bo'ladi. Gips boshni rangda ishlashdan avval uni grizayl, ya'ni bitta tusda ishslash maqsadga muvofiq. Bu vazifaning maqsadi bosh shaklini bitta rangda tus jihatdan to'g'ri hal etishga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, qalamtasvirdan rangtasvirga o'tish

bosqichini ta'minlaydi. Gips bosh shaklini mo'yqalam bilan tasvirlash qalamda ishlashdan ancha farq qiladi.

Mo'yqalamda shaklni atrof-muhit va fondan alohida ajratib ishlash noto'g'ri, shuning uchun gips boshni fon hamda atrof-muhitga bog'lab tuslash maqsadga muvo-fiqdir (16-rasm).



*16-rasm.*  
Gips va odam  
boshi. Grizayl.

Tuslash jarayonida qo'yilmaga tushayotgan yorug'lik kuchini to'g'ri hisobga olish, tasvirni muntazam qo'yilma bilan bevosita taqqoslab borish ishning samarali chiqishiga yordam beradi. Gips boshni tuslash jarayonida dastlab bo'laklarning alohida yorug'lik qismi, soya, yarim soya, shu'lalarni aniqlash, so'ngra ishni yaxlit bir tusga bo'ysundirgan holda yakunlash maqsadga muvofiq. Grizaylda bir nechta vazifalarini astoydil bajarish, shundan so'ng rangtasvirga o'tish to'g'ri bo'ladi.

### **ODAM PORTRETING RANGLI ETUDI**

Yosh rassom odam portretini ishlash jarayonida, ayniqsa, turli qiyinchiliklarga uchraydi. Uning nazarida o'z do'stлari yoki qarindoshlarini bir zumda tasvirlab, ranglab qo'yadigandek tuyuladi. U tasvirlashda

do'stining tashqi ko'rinishidagi har bir detalni aniq o'ziday bajarishga harakat qiladi, ammo badiiy shaklda tasvirlashni uddasidan chiqa olmaydi. Haqiqiy hajmli odam portreti o'rniغا, yuzaki silliq rangtasvir paydo bo'ladi. Buning asosiy sababi, yosh rassom rangtasvir bilan puxta va astoydil shug'ullanmagan.

Rassom rangtasvir orqali portret ishlashda do'stining tashqi ko'rinishini emas, balki uni hayotda qanday ko'rgan bo'lsa, ana shu ruhiy ichki xarakterini chuqur his etib ishlasagina, portret jozibali va aynan maromiga yetkazib tasvirlagan bo'ladi.

Jahon tasviriy san'at tarixida portret janrining ko'plab noyob namunalarini bilamiz.

Uyg'onish davrining jahonga mashhur taniqli ijodkorlarining yaratgan portretlari barchaga ma'lum. Bular Rafael, Tisian, Veroneze, Tintoretto va ularning ichida Leonardo da Vinchinging «Mona Liza» asari o'zining o'ta jozibali, maftunkor va sehrli nigohi bilan shu kungacha san'at ahlini lol qoldirmoqda.

O'zbek rassomlari ham bu janrda barakali ijod qilmoqdalar. Taniqli musavvir, O'zbekiston xalq rassomi Malik Nabiyevning tarixiy portret janrida yaratgan asarlari ham diqqatga sazovordir. Uning «Beruniy», «Ulug'bek», «Amir Temur» kabi mashhur asarlari nafaqat respublikamizda, balki jahon ahli uchun ham betakror va qadrlidir (31-rangli rasm).

Ana shu nodir portretlarni kuzatar ekanmiz, asarda yorug'likni to'g'ri qo'ya bilish ham nihoyatda muhimligini his etamiz.

Yorug'lik sehrgar kabi inson qiyofasidagi har bir shaklni nafaqat tus orqali, balki rang jihatidan ham o'zgartiradi.

Yosh rassom portretga tushayotgan ana shu yorug‘likni chuqur his etib, ranglarning nozik tuslarini joy-joyiga mohirona qo‘ya olsagina ko‘zlagan maqsadiga erishadi. Inson boshini tasvirlashda fonning rangli va tusli holatini ham o‘zaro bog‘lay bilish muhimdir. Portret sohasida katta yutuqlarga erishish uchun yosh rassom tinmay o‘qishi, izlanishi va astoydil amaliy shug‘ullanishi zarur. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

### **ODAM BOSHINI YELKA QISMI BILAN TASVIRLASH**

**(Akvarel)**

Inson obrazini yaratishdagi asosiy e’tibor uning portreti bo‘lib uning ahamiyati rangtasvirda katta. Odam boshini yelka qismi bilan tasvirlashdan asosiy maqsad, o‘quvchi tushayotgan yorug‘lik yuz shakli xarakteriga urg‘u bera olishi kerak. Buning uchun naturachiga nisbatan yorug‘likni yon yoki yuqori tarafdan tushirilgani maqsadga muvofiq. Fon uchun tanlangan xolis tusli mato juda o‘rinli bo‘ladi. Bosh shaklini aniq ifodalash uchun modelni shunday qo‘yish kerakki, yoritilgan qismi fondan yorug‘ va soya qismi fondan to‘q bo‘lishi shart.

Model dastur asosida qo‘yilgandan keyin, portretning qog‘ozga kompozitsion joylashuvi haqida o‘ylab ko‘rish kerak.

Kompozitsiyani yaratish rassomning ko‘rish nuqtasiga hamda formatning o‘lchamiga asoslanib ishlanadi. Qog‘ozni kichikroq o‘lchamda tanlash lozim. Agar tanlangan qog‘oz katta o‘lchamda bo‘lib,

chizilayotgan model esa asl o‘lchamidan kattaroq chizilsa, unda tajribaga ega bo‘lmanalar chalg‘ib qolishi tabiiy. Bosh etudini ishlash uchun 50x40 sm o‘lchamdagи qog‘oz tavsiya etiladi. Dastlab bosh tuzilishining konstruktiv jihatlari qog‘oz ustida belgilanadi, yuz nisbatlariga e’tibor kuchaytiriladi. Har bir detalning yorug‘-soyasi, hajmining xarakteri ishlab chiqilishi shart emas. Bu narsalar keyingi vazifalardan biri hisoblanib, boshning yaxlit shakli belgilab olingach, mo‘yqalamda aniq ishlov beriladi. Eng muhim qalamtasvir orqali boshning umumiy konstruksiyasi aniq belgilab berilishi shart.

Qog‘oz ustidagi tasvirlar qalam yordamida ishlangani ma’qul. Oddiy qalamda tus va yorug‘-soyaning farqlarini belgilash ancha qulaylik keltiradi. Bundan tashqari, chiziqlar o‘chirg‘ich bilan yengil o‘chiriladi. Shunday bo‘lsa-da, qog‘ozda tasvir ishlaganda o‘chirg‘ichdan kamroq foydalanish lozim, chunki qog‘ozning ustki qavat qatlaming sifati buzilishi mumkin.

Qog‘ozda tasvir tayyor bo‘lgach, uni suv bilan yuvib chiqiladi.

Dastlab ishni modelni sinchkovliik bilan kuzatishdan boshlash kerak. Kuzatish jarayonida boshning yoritilgan va soya qismi fonga nisbatan solishtiriladi. Eng yorug‘ va to‘q qismlarini ajratib, ular xayolan tahlil etiladi. Masalan, yoritilgan peshona qismining fonga nisbatan och-to‘qlik nisbatini aniqlash kerak. Eng yorug‘ va eng to‘q joylar uchun tayyor ranglardan foydalanib, aralashma tayyorlash shart emas. Ranglar aralashmasi yorug‘lik va soyaning oralig‘ida joylashgan tusi uchun tayyorlanadi.

Akvarel bo‘yoqlaridan foydalanib palitrada ranglar aralashmasi tayyorlanadi. So‘ng yirik mo‘yqalam bilan

ishni soya qismidan rang tusini berib boshlaymiz. Shunda boshning shakli tezda aniqlashib, tus yechimiga asos bo‘ladi.

Soya joylari bo‘yoqda yopib bo‘lingach, fonnishlashga o‘tiladi. Chunki oq qog‘ozda soya to‘q tusda qorayib ko‘rinadi. Boshning soya qismiga fonga nisbatan rang berib bo‘lgach, ikkinchi tarafini ishslashga o‘tiladi. Keyin boshning yorug‘ qismiga soya va fonga nisbatan solishtirgan holda bo‘yoq beriladi. Har bir detalda uzoq band bo‘lmasdan, dadil va erkin harakat qilish kerak bo‘ladi. Bo‘yoqlarning birinchi qatlamenti berishda suyuqroq ishlatsangiz, keyingi surtmalarda bo‘yoqni ancha quyuq ishlatish mumkin. Lekin birinchi ishlovdayoq boshning yoritilish darajasini va muhitni aniq belgilashga harakat qilish kerak. Yaxshi chiqmagan, og‘irlashib ketgan joylarini gubka (porolon) ko‘magida yuvib, sidirib tashlash mumkin. Agar qo‘yilgan bo‘yoq surtmasi o‘z joyiga tushmasa yoki shakl ifodasini aniq belgilamasa, gubka bilan sidirib, qaytadan o‘sha bo‘lakni aniq tasvirlashga erishish uchun harakat qilinadi. Soya qismini yoritilgan qismiga nisbatan solishtirib, boshning xarakterli konstruksiyasiga erishilgach, detallarga yanada aniq shakl ifodasi berishga o‘tiladi.

Detallar ustida ishslash, boshning umumiy shaklini aniqlashtirish, ishning ikkinchi bosqichiga kiradi. Bu bosqichda yuzning detal ishlovi boshning konstruksiyasiga bo‘ysundirgan holda olib boriladi. Yirik mo‘yqalamalar bilan detallarga rang berish oson emas. Endi kichik mo‘yqalamlardan foydalanishga o‘tiladi.

Mo‘yqalamda yuza tekisliklarini bo‘yoq surtmalarida ifodalash kerak. Bir tekislikdan ikkinchisiga o‘tishdagi

chegarani silliqlashga urinish kerak emas, balki ularni yanada mayda bo‘laklar orqali birlashtirish lozim.

«Aloshida e’tiborni ko‘zlariga, ularning ifodaliligiga, burun, og‘iz, yuzining shakliga va sochlariga qarating. Nisbat hajmliliginu puxta o‘ylab chiqing. Yorug'-soyali munosabatlarga e’tiborni qaratib, to‘g‘ri yozilsa, yuzining hajmliliginu va yumaloqliliginu ko‘rsatadi»<sup>1</sup>.

Ko‘zning tasviri ishlanayotganda kichkina mo‘yqalam bilan qovoqlarni chizmasdan, avvalo, ko‘zni joylashgan o‘rnini kerakli tusda belgilab olinadi. Tusni belgilashda boshning boshqa ishlangan bo‘laklari bilan solishtirishni unutmaslik lozim. Joylashgan o‘rni va xarakterini topganingizdan keyin ko‘z tasvirini chizishga kirishiladi. Bir ko‘zga ishlov berib, darhol ikkinchisiga o‘ting. Ularning qurilishiga e’tiborni susaytirmagan holda ikkala ko‘zni ham baravar ishslashga harakat qilish kerak.

Lablarning shakli bir chiziqdagi chizilmaydi, uning shaklini yasash kerak. Chunki u turli tekisliklardan iborat bo‘lib, unda bo‘rtiqlik mavjud. Shuning uchun labning shakliga qarab bo‘yoq surtmalar qo‘yish kerak. Labning shakli mo‘yqalamda puxta «yasalib» bo‘lingach, modelning yaxlit ifodasi yo‘qolmasligiga diqqatni qaratish lozim. Bo‘laklarga ishlov berish bilan ovora bo‘lib, boshning yaxlit ko‘rinishini unutish mumkin emas. Detallar alohida puxta ishlangan bo‘lsada, ular orasidagi bog‘lanish yo‘qolishi mumkin. Bunday holatni bo‘lajak rassom darrov sezadi, shuning uchun detallarga qancha e’tibor bermang, boshning

---

<sup>1</sup> Т. Батталини. Рисуем акварелью/от азов мастерства к тончайшим нюансам/М.: Экспо, 2007. – С. 85.

tasviri o‘z o‘xshashligini yo‘qotadi. Bosh qurilishida ayrim kichik xatolar sezila boshlanadi. Qo‘yilgan «shu’la»lar o‘z holatidan «chiqib», etud maydalanib ketadi. Soya qismlari juda to‘q ko‘rinib, go‘yoki bo‘shliqdek tuyuladi. Bunday kamchiliklarga olib kelinishing sababi, rassom detallarga maydalashib ishlov berishi, umumiyligi ko‘rish imkoniyatini yo‘qotib qo‘yanligidadir. Bunday xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun detallarga ishlov berganda umumiyligi holatini doim kuzatib, solishtirib borish zarur. Detallarga ishlov berish jarayonida u boshqa bo‘laklar bilan uyg‘unlashib, umumiyligi ko‘rinishga xalaqit bermasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tajribali pedagog-rassom P.P. Chistyakov shunday deydi: «Rasm ishlayotganingizda chizayotgan chizig‘ingizga emas, qalamning uchiga qarang. ... Bosh tasvirini ishlayotganingizda tovonni ko‘rib turishingiz kerak» yoki «ko‘zni chizayotganingizda quloqqa qarang».

Demak, rassom uchun eng zaruri naturani yaxlit ko‘ra bilish xususiyatini rivojlantirishdir (32-rangli rasmlar).

Aytaylik, siz burunni ishlay boshladingiz. Unga diqqat bilan qarang. Burunning rangi va shaklini ifodalashga harakat qiling. Burun ham yorug‘lik chegarasiga, soya, yarimsoya va turli ranglar shu’lasiga ega. Mana shu yerda tajribasiz rassom xatoga yo‘l qo‘yadi. Rassom burunga tikilganicha, u ham bosh shaklining bir bo‘lagi ekanligini unutib, yaxlit qaramaydi.

Detalga ishlov berganda umumiylidagi chiqib ketmaslik uchun nima qilish kerak? Buning uchun umumiyligi shaklini hech qachon ko‘zdan qochirmaslikni

o‘rganish lozim. Bu oson ish emas. Rassom uchun kerakli bo‘lgan bu xususiyatni uning o‘zagina tarbiyalay oladi. Buning uchun doimo hushyor bo‘lish kerak. Detalga biroz ishlov berdingizmi, uni umumiy ko‘rinish bilan solishtirishni unutmang. Yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatish uchun tasvirni yaxlit ko‘rish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ishning uchinchi bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Bu bosqichda kattaroq mo‘yqalam bilan etudingizning ba’zi joylarini qaytadan erkin, qo‘rmasdan chizing. Etudingizda eng yorug‘ va eng to‘q joyi boshqa qismlarida takrorlanmasligi kerak. To‘q deb belgilangan soya qora va xira ko‘rinmasligiga erishing.

«Modern uslubida bajarilgan erkak portretida yuzining tuzilish va shakli yorug‘-soyalarning kuchli qarama-qarshiligi yordamida ifodalangan. Bu esa insonning ajoyib o‘xhashligini yetkazishda imkoniyat tug‘diradi. Shiddatli yorug‘lik yuz qismining turtib chiqqan ajin, burushiq va notekis joylarini ajratib ko‘rsatadi» (33–34-rangli rasmlar).

Qo‘yilmani umumlashtirganingizda uning hamma qismini quyuq yozib chiqish shart emas. Lessirovka (suyuq rangqoplama) usulida bo‘yoqning shaffof va yarim shaffof qatlidan foydalanib ham ishni maromiga yetkazish mumkin.

Bu borada Charlez Rad o‘zining «Akvarelda portret ishslash» kitobida bola portretini ketma-ketlikda ishslash uslubini tavsiya etadi<sup>1</sup>.

Bir nechta etudlar ishlaganingizdan keyin mo‘yqalamda shakl yasashni o‘zlashtirib olasiz. Endi

<sup>1</sup> Charles Reid. Portrait painting in Watercolor. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, New York. 2012. – 149 page.

siz «bo‘yash» bilan emas, balki bo‘yoq surtmalarda «mazok»da ishlashni o‘rganib oldingiz. Etudni bosqichma-bosqich ishlab, umumiylidkan yakkaga qarab ishlashni, shu bilan birga yaxlitlikni saqlab qolish zarurligini ham bildingiz (35-rangli rasmlar).

## KIYIMLI ODAM PORTRETI

Kiyimli odam portretining to‘g‘ri topilgan yechimi uning plastik xarakteristikasi, ruhiy holati, ruhoniysi, shuningdek, uning millatini ham aniq ochib beradi.

Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko‘proq qaratilgan bo‘ladi. Portretda, eng muhim, uning ko‘rinishi va yuz ifodasidir. Aynan shu ifodada insonning ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson xarakterini, umuman, butun borlig‘ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir. Boshqa detallar esa uni to‘ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko‘z, burun va lablar uning xarakterini ifodalaydi.



Portretda qo‘llar ham katta ahamiyatga ega. Qo‘lga qarab odamning kasbi, xarakteri, hatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin.

Bosh xarakteri uning burilib, egilib turishi, yuz mimikasi, gavdaning umumiyl holati inson xarakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassomning muhim, asosiy vazifasidir. Xarakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasiga mos bo‘lishi kerak. Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir harakati, o‘zini tutishi, voqealarga bo‘lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to‘laqonli yoritishga yordam beradi. Harakat insonning eng zo‘r o‘ziga xos xarakteridir. Bu narsani

faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutish kerak emas.

Taniqli ijodkor R. Ahmedov o‘z avtoportretida kresloga suyangan holda chuqur o‘yga tolgan. U bo‘lajak yirik asar kompozitsiyasi ustida fikr yuritib, ularni ko‘z o‘ngida gavdalantirmoqda.

Rassom F. Sulaymonov esa O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov portretini maromiga yetkazib tasvirlay olgan. Ikkala portretda ham ijodkorlarning his-tuyg‘u va ichki hissiyotlari yorqin ifodalangan (17-rasm).



17-rasm. «O‘zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedov. Avtoportret. Farhod Sulaymonov. O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov portreti.

O‘zbekiston xalq rassomi, professor, Respublika BA faxriy akademigi Malik Nabihev yaratgan betakror tarixiy asarlar sirasiga Beruniy portretini ko‘rsatish mumkin.

Bu portret ustida izlanish 1949-yildan boshlanib 1973-yilgacha davom etgan. Taniqli musavvir bu portret ustida 34 yil izlandi. Bu siymo musavvir mo‘yqalamida jonlanib, uchta Abu Rayhon Beruniy qiyofasi yaratildi.

Asarlarning jigarrangga moyil bo‘yoqlarda aks etishi ramziy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lib, bu siymo tarixiy shaxs ekanligidan dalolat berar edi. Ishlatilgan ranglardan tashqari tashqi qiyofa, liboslar, atrof-muhit tasviriga alohida e’tibor berilishi ham tarixiy muhitni tomoshabinga ifodali qilib ko‘rsatishga imkon tug‘dirgan.

Mutafakkir olim Beruniy obrazini rassom Malik Nabihev bir necha yillik izlanishlari, uzoq vaqt davomida mashaqqatli ijodiy mehnat qilishi, alloma yashagan davrni o‘rganishi, u yashagan joylarda bo‘lishi hamda portretning bir necha bor eskiz va ranglamalarini ishlashi natijasida yuzaga keltirdi.

Portretda ilm muammolarini yechishga chog‘langan, vazmin nigohi esa olisga nazar tashlayotgan alloma siymosi ifoda etilgan. Rassom asarda ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan tarixiy shaxs, insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini, nufuzini gavdalantiradi. Suratning keyingi ko‘rinishlaridagi kitoblar, ilm-fanga bog‘liq bo‘lgan buyumlar Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir inson ekanini yanada bo‘rttirib ko‘rsatilishiga xizmat qilgan (36-rangli rasm).

Portret san’atida kiyim tanlanishi ham muhim o’rein tutadi. Kiyim insonning kasbi, kelib chiqishi, ichki ruhiy holatini olib berishga ko’maklashuvchi vosita hamdir.

Portretda fon ham katta ahamiyat kasb etadi. Muvaffaqiyatli chiqqan fon tasvirlanayotgan portret bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Portret ishlaganda naturadagi hajmdan kattaroq ishslash maslahat berilmaydi. Har qanday asar ma’lum bir masofada ko‘riladi.

Portret san’atida o‘xshashlikni topish o‘ta muhim. O‘xshashliksiz portret – portret hisoblanmaydi.

Inson tashqi qiyofasini ichki qiyofasi bilan mos keltirish portretga xos xususiyatdir. Portret san’atida rassomning ushbu odam to‘g‘risidagi fikri, tasavvuri yaratiladi.

Agar rassom portret chizishda yetuk texnik usulni o‘zlashtirgan bo‘lsa, dadil harakatlari bilan rang va tus munosabatlarini mohirona uyg‘unlashtira olsa, bu uning ulkan yutug‘idir.

Odatda, erkaklarning yelkasi tos qismidan ancha keng. Ayol kishi tanasi esa ingichka va nisbatan uzun bo‘yin va biroz tushgan yelkalari bilan xarakterlanadi. Ayollar ko‘krak qafasining yuqori qismidan ko‘krak uchlarigacha bo‘lgan oraliq erkaklarnikiga nisbatan qisqa. Ayollarning kindigi tananing o‘rtasi bo‘lib, u erkaklarnikiga nisbatan balandroqda joylashgan. Tizza chiziqlari ayollarda erkaklarnikidan pastroqda joylashadi.

Ayollarning beli ko‘proq oldinga chiqqan, dumba mushaklari ichkariga tortilgan, ko‘krak qafasi qisqaroq (erkaklarnikiga nisbatan), qorin qismi

uzunroqdir. Inson tanasining mukammalligi va o‘ziga xos xususiyati yana shu bilan izohlanadiki, agar yangi tug‘ilgan chaqaloqning kindigi tanani teng ikkiga bo‘lsa, katta odamlarning (erkak va ayollarning) bel qismi tanani «oltin kesim» tamoyiliga ko‘ra teng bo‘lmagan ikki qismga ajratadi.

Eng muhim vazifa – turgan model qomatida harakat belgilarini ko‘rsatish. Qomat etudini joylashtirishda pastga (oyoq pastida) qaraganda, odatda yuqorida bosh ustida ko‘p joy qoldiriladi. Buning sababi, pol yoki podiumning gorizontal tekisligi qisqargan holatda ko‘rinadi, shuning uchun ham etudda keng joy qoldirish shart emas, negaki natura bosh usti qismiga kengroq havo muhitini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Tik turgan qomatning chap va o‘ng tomonida bir xil masofa yoki natura burilib turgan tomon fonidan ko‘proq joy qoldirish kerak bo‘ladi. Agarda qo‘yilma yoniga mebel jihozlari yoki naturmort kiritilsa, ularni hisobga olgan holda asosiy markaziy joy baribir inson qomatiga ajratiladi, bosh bilan qo‘llari esa etud kompozitsiyasining markazi qilib belgilanadi.

Bu yerda rassomlarning ko‘psonli etudlari, asarlari namuna sifatida o‘rinlidir, misol tariqasida, R.Ahmedovning «Ustaxonada» asarini olish mumkin.

Etuddagi qomatni rang bilan yozishda kiyimning burmalari katta ahamiyatga ega. Rassomlar amaliy ish jarayonida burmalarning paydo bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishlari kerak.

Gazlama g‘ijimlansa ko‘zga yaqqol tashlanadigan burmalar paydo bo‘ladi, cho‘zib tortilgan joylarda esa burmalar yo‘q. Bularni qo‘l yengida kuzatish

mumkin, yelka bo‘g‘imidan uzilmas ketma-ketlikda bilaguzukkacha burmalarni yoritilgan qismida yo‘l-yo‘l tasma paydo bo‘ladi. Shoyi gazlamani yoritilgan shu’lasi uzun burilgan tasma kabi qo‘l yengini uzunligi bo‘yicha seziladi va soyalar bilan kesishishmaydi. Gavdaning harakat holatini qalam chizgisini tasvirlashda alohida e’tiborni shaklning bo‘rtib turgan joylariga qaratish kerak. Kiyimni gavdaga yopishib turganligi, tasvirlashda konstruktiv qurilishini ko‘rsatishga yordam beradi.

Yupqa gazlamalar gavdaga yopishib turganligi ko‘proq uning plastikasini kuzatishga imkon beradi. Qattiq gazlamalarda ancha dag‘al burmalar paydo bo‘ladi. Har bir inson kiyimlarining burmalarini o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi, chunki ular kishining anatomik tuzilishi va alohida harakatlariga bog‘liqdir. Bularni turli odamlardagi kiyimlarining gazlama burmalarini taqqoslab, kuzatish mumkin.

## **ODAM QOMATINING RANGLI ETUDI**

Odam qomati rangli etudini ishlashdan oldin, uning mukammal qalamtasviri, konstruktiv qurilishi umumiyligi, yaxlit – shakl va mayda bo‘laklar ifodasi puxta o‘rganilgan bo‘lishi kerak. Shaklni mohirona topa bilish, nisbatlarni to‘g‘ri aniqlash, yaxlit va mayda detallarning anatomik va konstruktiv qurilmasini to‘g‘ri topish natijasida ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

Rangtasvir – shaklning to‘g‘ri qurilishi tus va rang yechimining birligidadir. Kimki, grizayl texnikasida odam tasvirini maromiga yetkazib bajara olsa, rangtasvirning ham muvaffaqqiyatlari chiqishiga zamin yaratgan bo‘ladi.

Odam qomatining rangtasviri uning hajmi, sirti, muhit sifatlari, rang yaxlitligi va mayda shakl ifodasini doimo solishtirib turish hamda fikr yuritib ishslash natijasida yaratiladi. Dastlabki rang qoplamadan boshlab, keyingi ishlovlargacha ochib beruvchi shakl xarakterini ish yakunida qanday bo‘lishini hisobga olib rejalashtirish kerak bo‘ladi.

Yoritilishiga qarab rang yorqin, xira va och bo‘lishi mumkin. Xuddi bosh rangtasviri kabi odam qomatining rangli etudini ishslashda ham kompozitsiya ustida izlanib, bir necha mashqlar bajariladi. Eng chiroyli plastik yechim tanlanadi. Bu eskizlarda gavdaning kompozitsion-plastik yechimi, rang yechimi tanlanib, o‘lcham aniqlanadi. Model xarakterini ocha turib, rassom barcha ruhiy chizgilardan, xarakterli xususiyatlardan eng ifodaligini ajratib topishi zarur. Kiyimsiz gavda tasvirida tana rang xususiyatlarini uning atrof-muhit bilan bog‘liqligini ifodalash kerak. Odam tana rangi o‘zining tabiiy rangidan tashqari ko‘z bilan ilg‘ash juda qiyin bo‘lgan nozik issiqsovnuq, och-to‘q tuslanishlarga ham ega.

Odam tanasidagi ranglarning turlicha bo‘lishi, birinchi navbatda, qon tomirlarining chuqr yuzada bo‘lishi, tanadagi yog‘ qatlamiga, teri yuzasi xarakteriga bog‘liq. Ko‘krak, qorin yoki yelka rangidan son terisi rangi tizza yoki oyoq tovoni rangidan farq qiladi. Yuz, qo‘l, bo‘yin, odatda, tananing yopiq qismlaridan to‘qroq bo‘ladi. Tanadagi ranglar jilosи, albatta, reflekslarga ham bog‘liq. Tananing yuqori qismiga shiftdan, oyoq qismiga poldan reflekslar tushib turadi. Bundan tashqari fon va kiyimlar ta’sirini ham sezish mumkin. Yuz, tana,

kiyimlarda fondan qo'shimcha to'ldiruvchi ranglar bo'ladi (18-rasm).



18-rasm. I. Bahromov.

Yozuvchi O'tkir  
Hoshimov. Mato.  
Moybo'yoq. 1982.

sifati buziladi.

Ikki kishilik qo'yilmada gavdalarni birgalikda tasvirlashda alohida-alohida ishlashga yo'l qo'yishmaydi. Yaqin turgan gavdaning tayanch nuqtasini topish, keyin masofani hisobga olgan holda ikkinchisini tasvirlash lozim.

Bir gavdani ikkinchisi bilan solishtirib, guruh shaklida birgalikda chizish kerak (yaxlit narsa singari). Qaysi gavdaning asosiyligini (kattalikda va masofada) oldindan belgilab olish zarur (37-rangli rasm).

Gavda atrofidagi predmetlar rangi ishning rangtasvir yechimiga katta ta'sir etadi. Shuning uchun gavdani tasvirlab turib, albatta, atrofdagi narsalar rangi bilan ham solishtirib turish shart. Albatta, bu ikkinchi darajali qo'shimcha detallarga asosiy obyekt bo'lgan odam gavdasidek ishlov berilmaydi.

Gavdani qo'shimcha nozik ranglar bilan boyitib borish kerak. Lekin ularning jarangdorligini oshirib yuborish kerak emas. Boshlovchi rassomlar, odatda, issiq va sovuq ranglarning oddiy tarkibidan foydalanishadi. Murakkab issiq ranglarni qandaydir qizg'ish rang bilan, sovuq ranglarni yashil, siyoh rang yoki ko'k rang bilan olishadi. Bunday ranglar tana sirti ifodasini bera olmaydi. Tanada deyarli har doim kamida 2–3 ta ranglar birikmasini ishlatish kerak.

Oxra, siena, kots jjenaya kabi bo'yoqlar tanadagi sovuq hamda issiq ranglarni chiroyli ifodalaydi. Ularning oq bilan aralashmasi turlicha issiq hamda sovuq ranglar tuslanishini kashf etadi. Palitrada bo'yoq turi ko'p bo'lmasligi kerak. Chegaralangan ranglar bilan ko'p rang va tuslar topishga harakat qilish kerak.

Ishning yakuniy qismi – yaxlitlash, ya'ni mayda detallarning bir butunlikka bo'ysunishidir. Bu ishda asosiy bo'laklarning tus yechimiga e'tibor berish kerak. Agar ola-bula chiporlik yaxlitlikka xalaqit bersa, ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlit ko'rishga xalaqit berayotgan har bir bo'lakni o'z joyiga qo'yish lozim. Agar shunday qilmasak, qo'shimcha detallar asosiy obyektdan chalg'itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Rassom yaxlit ko'rishni o'rgangan bo'lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e'tiborni kuchaytirish darkor.

Tasvirda juda nozik tus farqini saqlab qolish muhim. Siluetning ba'zi joylarini kuchaytirib (chiziq orqali), ba'zi joylarni fon bilan qo'shib yuborish kerak. Qo'yilmada nimani bo'rttirib (chizib), nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborishni hal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin.

Shundan so‘ng gavdaning to‘g‘ri konstruktiv qurilmasiga ega bo‘lish mumkin. Nihoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki ruhiyatini ochishga ham urinib ko‘rish mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab, asosiy xarakterli joylarini bo‘rttirish bilan erishish mumkin.

Shuning uchun tasviri chizilayotgan odamni uning o‘zi uchun xarakterli bo‘lgan muhitda, balki ish ustida tasvirlagan ma’qul.

Yuz ifodasi, qo‘l va gavda xarakteri, rang aynan shu odamni xarakterlashi o‘ta muhim. Bu o‘rganishlar, kuzatishlar portret kompozitsiyasi, plastik va kolorit yechimining asosiga poydevor bo‘la oladi.

## **AYOL QOMATIDAN RANGLI ETUD ISHLASH**

Rangtasvir mashg‘ulotlarining dastlabki bosqichlari-dayoq ayol qomatidan akvarel bo‘yoqlari bilan rangli etudlar bajariladi.

Bunday vazifalarni qalam ishtirokisiz mo‘yqalam bilan tez-tez ishlab turiladi. Bu orqali mo‘yqalam bilan ishslash malakasi rivojlanadi.

Ayol qomatidan rangli etud ishslash jarayonida uning ko‘ylagi gulli olachipor bo‘lishi o‘quvchining naturadagi umumi shakl yaxlitligini topishda chalg‘itadi, shuning uchun ustki ko‘ylak gulsiz bir tusda bo‘lgani ma’qul.

Ayrim qo‘yilmalar turli kasb egalarining portretlari bo‘lishi ham mumkin. Tibbiyot hamshirasi, o‘qituvchi, fabrika ishchisi, quruvchi, ilmiy xodim kabi qiziqarli portretlarni tasvirlash rassom uchun muhimdir. Shu kabi mavzuli portretlar rangli etudning koloritli qator xususiyatlarini ochib beradi. Rangtasvir uchun qo‘yilmalarni yorqin milliy kiyimda qo‘yish maqsadga

muvofig. Biror-bir ish bilan shug‘ullanayotgan kasb egasini naturadan o‘ziga bildirmay tasvirlashda ishning jonli va tabiiy chiqishiga erishish mumkin (38-rangli rasm).

Ko‘p seansli rangli etud ishini boshlashdan avval kichik o‘lchamda rangli kompozitsion chiziqlar bajarish muhimdir. Ayol qomatini qog‘oz yuzasida kompozitsion jihatdan to‘g‘ri joylashtirib tasvirlash uchun qomatining kalla qismidan so‘ng yuqorida pastdagi oyoq qismiga nisbatan kattaroq joy qoldirish kerak. Bu shunday izohlanadiki, biz xoh xona ichida, xoh ochiq havoda bo‘lmaylik boshimiz tepasida havo, kenglik mayjud. Dastlabki qo‘yilmalarga fon uchun sidirg‘a bir tusdagi matolar tanlanadi. O‘tirgan ayol qomatini tasvirlashda stul yoki kreslo tanlash kerakki, u kompozitsiyaning chiroyli va mazmunli chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ayol qomatidagi holatni aniqlab beruvchi bo‘g‘inlarni qalam bilan tasvirlashda (ko‘rinar-ko‘rimmas chiziqlar bilan), avvalo, bosh, yelka suyak qismlarining yordamchi chiziqlari va belning pastki qismlari (yelka, tos), torsning o‘rta oq chizig‘i, oyoq-qo‘l panjalarining o‘q chiziqlaridagi xarakterli «tayanch» nuqtalari belgilanadi. Qomatning harakati va nisbatlarini aniqlab borib, naturaning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsata olish muhimdir.

Akvarel bo‘yoqlar bilan kiyimni bo‘yashda matoning yorug‘likdagi rang xarakteristikasiga dastlabki rang qatlami mos kelishi zarur. Qurigan dastlabki qatlam ustidan matoning soya joylari va burmalariga shakli bo‘yicha ranglarning to‘yinganligiga erishib bo‘yoq surtmalarini berish kerak. Bitta natura qo‘yilmasi bilan rangli etudlar bajarish foydalidir.

Naturaning faqatgina rangli emas, balki tusli yechimi ham uning qanday yoritilishi sharoitida bo'lishiga qarab turlichcha bo'ladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli poyoniga yetkazgach, ana shu qo'yilmani tasavvurdan kichik o'lchamda, qisqa fursatda tasvirlash foydalidir. Keyingi ishlarda odamlarni tasvirlashda kuzatilayotgan insonning xarakterli xususiyatlari, qomatning harakati, kiyimning rangli va tusli qarama-qarshiliklarini aniqlash orqali vazifalar murakkablashtirib boriladi (39-rangli rasm).

Ayol qomatini tasvirlashda o'quv vazifasining murakkabligi shundaki, turli tus va rangdagi qism va bo'laklari ustida ishlash, naturani yaxlitlik tavsifini yaratish, atrof-muhit o'rabi turgan qomatning hajmini ko'rsatishdir. Qaddi tik turgan kiyimli gavdaning tasviri to'g'risida tasviriy san'atda ko'p misollar keltirish mumkin. Avvalambor, bu yerda milliy o'zbek rassomlarining asarlari namuna sifatida o'rinnlidir.

R. Ahmedov, R. Choriyev, R.Xudoyberganovlar («Hamshira») tomonidan moybo'yoqda bajarilgan portretlarda ham ayollar qaddi-qomatlari ajoyib tasvirlangan. P. Benkov, T. Oganesov, Yu. Yelizarov va boshqa buyuk rassom-ustalarning ko'p asarlarida ayol gavdalari ustalik bilan bajarilgan (40, 41, 42-rangli rasmlar).

Dmitriy Kardovskiy qalamtasvirning mohir ustasi hisoblanib, ajoyib badiiy akademik maktabni avval I. Repin va P. Chistyakovlarda ta'lim olib, so'ngra esa bilim olishni Myunxenda professor Ashbe ustaxonasida davom ettiradi. Ayol qomati tasviriga tegishli ishlaridan biri – «Binafsha rangli ko'ylakdagi qiz» akvarelda bajarilgan etudini ko'rishimiz mumkin (43-rangli rasm).

## **ERKAK KISHINI TASVIRLASH**

Rangda ishlanadigan dastlabki ish yarim qomatdagi erkak kishi qomatining asosiy qismlari bosh, yelka, qo‘lning rang xarakterini topish kerak. Modelning har bir tekisligini rangda ifodalash, qurish, ishlov berish muhim. Shu bilan birga erkak qomatining yoritilish darajasini muhitda va masofada ifodalay bilish kerak. Vazifaga mos keladigan qiyofachi tanlanadi: masalan, qora sochli, yosh yigit. Bosh shakli yaxshi ifodalanadigan holatdagi yorug‘likda joylashtiriladi. Fon sidirg‘a bo‘lishi kerak. Silliq devor ham bu vazifani bajarishi mumkin. Tanlangan fon modelning yoritilgan qismidan to‘q va soya qismidan yorug‘ bo‘lishi kerak.

Naturani qalam bilan chizishni boshlang, tasvirda mayda detallar ishlanishi shart emas. Chunki barcha detallari ishlangan tasvir rassomga mo‘yqalamni erkin harakatlantirishga xalaqit beradi.

Rangtasvirga mo‘ljallangan tasvirning eng asosiysi – shakl ifodasi, yaxlitligi, mustahkam qurilma, to‘g‘ri topilgan nisbiylik va modelning xarakteridir (44-rangli rasmlar).

Keyingi darsda modelni yana o‘sha holatda o‘tkazib, ranglashga tayyorgarlik ko‘riladi.

Agar qo‘yilmaga diqqat bilan qarab (bo‘laklarga bo‘lib – yaxlit va fon bilan) kuzatsangiz, 5–6 xil bo‘yoqning o‘zi yetarli ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

Yorqin kadmiy sariq, kadmiy qizil, kraplak, kobalt ko‘k, yashil FS kabi bo‘yoqlar naturadagi rang uyg‘unligini bera olmaydi. Rassom ish jarayonida buni juda tez anglab yetadi. Shuning uchun ilk tasvirlash paytida palitrada cheklangan bo‘yoqlardan foydalangan

ma'qul. Bu usulning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish uchun klassik rassomlarning ijodidagi portretlarni tahlil etish kifoyadir. Masalan, Rembrand, Leonardo da Vinchi portretlari yoki o‘zbek rassomlaridan A. Abdullayev, R. Ahmedov, R. Choriyev va boshqalar.

Buyuk rassomlar tajribasi asosida aytish mumkinki, portret ishslash uchun oxra, siena, ingliz qizili, umbra, kobalt, yashilning och yoki to‘q rangi, mars jigarrang, ultramarin kabi bo‘yoqlarning o‘zi yetarli.

Mo‘yqalam bilan portretning yoritilgan peshona, burun qismlari, yuzning soya tomoni hamda fon uchun rang aralashmasini tayyorlab, rangda va tusda naturaga qarab ishni boshlaymiz. Yoritilgan peshona qismi uchun oxra bilan oq bo‘yoqning aralashmasi, yuz qismiga esa shu aralashmaga ingliz qizili qo‘sghan holda rang qo‘yiladi. Yuzning peshona qismi, odatda, sovuq tusda, yuz-yonoq qismi iliqroq va iyak atrofi ham ozgina to‘q bo‘lishi mumkin.

Lekin baribir rassom rang munosabatlarini ichki bir hissiyot orqali boshqaradi. Qancha va qanday bo‘yoqlar aralashmasini ma’lum bir joyga qo‘yish zarur degan aniq bir retsept bo‘lmaydi.

Rang xususiyatlari, yorug‘lik, atrof-muhit ta’sirida naturaning o‘zi sizga qanday bo‘yoqlardan foydalaniib ishslash mumkinligini ko‘rsatadi.

Sizning muvaffaqiyatingiz, albatta, rang ko‘rish qobiliyatiga, rang munosabatlarini sezishga, issiq va sovuq ranglar o‘yinini his etishga bog‘liq.

Ishni nimadan boshlash kerak? Eng ma’quli boshning soya qismidan boshlab, fon va boshning yoritilgan qismiga o‘tish kerak. Ranglarni joy-joyiga

qo‘yib chiqqanizingizdan keyin, boshning yorug‘ qismidan shaklni yanada aniqlashtirib boriladi.

Boshning yorug‘ qismini ishlab turib unutmangki, soya – bu yorug‘ qismi uchun tayyorlangan rangning qora bo‘yoq qo‘shib to‘qlashtirilgani emas. Soya rangini aniq topish kerak! U yorug‘ qismdan sovuqroq yoki aksincha issiqroq tusda bo‘lishi mumkin. Naturaga diqqat bilan qarasangiz, ajratib olish mumkin. Soya va yorug‘likda ranglar munosabatini fonga nisbatan to‘g‘ri topishni, ular orasidagi yaxlitlikni va aniqlikni faqat tajribali rassomgina his eta oladi.

Fondagi bir necha tekisliklarni yirik planda rang va tusda belgilash bilan qog‘ozda tekislik yo‘qolib, bosh atrofida havo paydo bo‘lganini sezasiz. Tajribasiz rassom fonni tekis va silliq bo‘lishi kerak deb o‘ylaydi. Fon silliq holatga keltirilishi bilan matodagi bosh va fon orasidagi havo yo‘qolib, bosh fonga «yopishib» qoladi. Shuning uchun foning ham issiq, ham sovuq ranglarini, och-to‘q jihatlarini ishlashga harakat qilish kerak.

Shunday qilib, portret ishslashda vazifa shundan iboratki, uning tasvirini faqat «bo‘yab» chiqish emas, balki modelning butun rang, kolorit, shakl chiroyini ham maromiga yetkazib ifodalash zarur.

## ATAMALARNING IZOHЛИ LUG‘ATI

**Avtoportret** (yunon. autos – o‘z, frans. portrait – tasvir) – portret janrining bir turi. Avtoportretda rassom yoki haykaltarosh o‘zini o‘zi tasvirlaydi. O‘zbekiston rassomlaridan A. Volkov, L. Nasriddinov, A. Siddiqiy, B. Hamdamiy, A. Abdullayevlar qator avtoportretlar yaratishgan.

**Akademiya** (yunon. Akademia – Afina yaqinida joylashgan, yunonlarning afsonaviy qahramoni Akadem ismi bilan atalgan joy nomi) – san’atni rivojlantirishga qaratilgan oliy ilmiy muassasa. Bu nom tarixi miloddan avvalgi, IV asrda Qadimgi Yunoniston va Platon (Aflatun)ning idealistik falsafiy maktabiga asos solinishidan boshlanadi. Xirot miniatyura rasmlar maktabini O‘rtta asr Sharqida davlat tomonidan ta’sis etilgan birinchi badiiy akademiya «Nigoriston» deb hisoblash mumkin (Behzod shu akademianing eng yirik vakilidir).

**Akvarel** (ital. acquerello) – suvda eruvchi bo‘yoqlar. Bu bo‘yoqlarning ajoyib xususiyati bo‘yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir. Akvarelda oq rang bo‘lmaydi, uning o‘rnida bo‘yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko‘rinadigan yoki bo‘yalmay qolgan qog‘oz rangi xizmat qiladi. O‘zbekistonda akvarel san’ati rivojini B. Hamdamiy, O‘. Tansiqboyev, G. Shevyakov, G. Chiganov, K. Chiprakov, K. Kaydalovlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlarda ko‘rish mumkin.

**Alla-prima** ital. («a-la prima») – tasviriy san’atda, xususan, rangtasvirda «namligicha yozish» (живопись по-сырому) usulini anglatadi.

**Antinoy** – eramizning 130-yilida tug‘ilgan. Yunon imperatori Adrian davri. O‘limidan so‘ng ilohiyantirilgan o‘spirin.

**Apollon** – yunon afsonasiga ko‘ra Zevs xudosining o‘g‘li. Apollon Belvederskiy eramizdan oldin 4-asrda mashhur haykaltarosh Leoxar tomonidan ishlangan.

**Asosiy ranglar** – rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang – qizil, sariq va ko‘k.

**Axromatik rang** – (yunon. achrimatos – rangsiz) bu ranglar bir-biridan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi. Axromatik ranglarga oq, qora va kulrangning barcha tuslari kiradi.

**Badiiy akademiya** – tasviriy san'atning eng yirik namoyanda-lari uyushmasi, san'at masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy nazorat markazi – muassasa, oliv badiiy o'quv yurti. Birinchi «akademiya» XVI asrda Italiyada vujudga kelgan.

**Benale** – ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma.

**Baget** – portret, rasm va shu kabilar solinadigan to'rt burchakli moslama.

**Galereya** (frans. galeril) – turarjoy, jamoat, ma'muriy va maishiy binolar ichidagi uzun, tor yo'lak joy. Binoning bir tomoniga taqab solingani uchun oynavand yoki peshayvon qilib quriladi. O'rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallar bilan bezatilgan yo'laklari.

**Gamma** – rang gammasi ma'nosida, rangning turli tuslari, masalan, iliq va sovuq rang tuslari.

**Grizayl** (frans. grisale, gris – kulrang so'zidan) – bir rang bilan turli (och, to'q, nim rang qilib), ko'pincha kulrang bo'yoqda yaratilgan rasm. Asosan devoriy rasmlar relyefli bo'lib ko'rinishi uchun shu tarzda ishlanadi.

**Guash** (frans. guuische, ital. guacco – suv bo'yog'i) – yelim va belila aralashtirilib, suvgaga qorilgan bo'yoq va shu bo'yoq bilan ishlangan rassomlik asarlari. Ishlatish yo'llari jihatidan guash akvarel bo'yoqlarning yumshoq xillariga o'xshasa-da, belila qo'shilganligi, bo'yoq qatlaming qalinligi va xiraligi bilan akvareldan farq qiladi.

**Dastgohli san'at** – tasviriy san'atning bir turi, san'at asarlari maxsus dastgohlarga (molbert) o'rnatib ishlashgan.

**Dastgohli rangtasvir jamiyatি** – P. Vilyams, A. Deyneka, Yu. Pimenov, D. Shterberg kabi rassomlar tomonidan tuzilgan bu guruh hayotdagи yangiliklarni ilg'or badiiy vositalar yordamida ifodalab, faol inqilobiy san'at asarlari yaratishni maqsad qilib qo'ygan va rangtasvirning ifodali vositalari taraqqiyotiga ahamiyat berib kelganlar.

**Diptix** (yunon. diptikos – ikki qavat, buklama). Bir mavzuda bo'lib, bir-birining mazmunini to'ldiradigan ikki kartina.

**Iliq rang** – olov, quyosh va chiroq yorug'ini eslatuvchi ranglar: qizil, sariq, zarg'aldoq, malla kabi ranglar turkumi kiradi.

**Karandash – qalam** – yog‘och yoki plastmassa qobiq ichiga joylashtirilgan graftiting ingichka tayoqchasi. Karandash yordamida yozuv yozildi, rasm chiziladi, chizmalar chizishadi. Karandash iborasining kelib chiqishi aslo ruscha so‘zdan emas. «Kara» so‘z qismi «qora», «dash» – «tosh» ma’noni anglatadi.

**Kartina** – mustaqil badiiy qiymatga ega bo‘lgan tasviriy san’at asari. Romga tortilgan mato, metall yoki yog‘och taxta, karton, qog‘ozga moyli bo‘yoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabilar bilan dastgoh (molbert)ga o‘rnatib ishlanadi. Bu – italyancha «karta» so‘zidan olingan bo‘lib, «qog‘oz» degan ma’noni anglatadi. Kartina so‘zining dastlabki ma’nosi – «nozik, chiroyli, bezatilgan qog‘oz».

**Kolorit** (italyancha colorito, lotincha color – rang, bo‘yoq ma’nosida) – tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligi, nisbati. Asarda g‘oyani, obrazni ifodalashda bo‘yoqlarga alohida ahamiyat bilan qaraydigan san’atkor kolorist rassom deb ataladi. O‘zbekistonlik rassomlardan O’. Tansiqboyev, N.G. Karaxan, Z.M. Kovalevskaya, Ch. Axmarov, M. Saidov va boshqalar O‘zbekiston manzaralari, zamon kishilar qiyofasini ifodalashda rangga alohida ahamiyat beradilar.

**Kontrast** (frans. kontraste – keskin ziddiyat) – qora rang oq rang oldida yana ham qoraroq ko‘rinadi; issiq narsani sezish ketidan sovuqqa sezgirlik kuchayadi va h.k.

**Kompozitsiya** (lotincha composition – tuzish, qurish ma’nosida) – etud yoki surat qurilishi, qismlarining muvofiqligi. Naturani tasvirlashda: jismlarni tanlash va ko‘rish, ko‘z qarashning eng mos nuqtasini topish, yorug‘lik, shakl o‘lchamlarini aniqlash, kompozitsion markazni paydo qilish va unga asarning ikkinchi darajali qismlarini bo‘ysundirishdir.

**Kukrnikslar** (uch rassom familiyasining dastlabki harflaridan olingan taxallus) – Kupriyanov Mixail Vasilyevich, Krilov Porfiriy Nikitovich, Sokolov Nikolay Aleksandrovich xalq rassomlari, ular satira ustalari, shu bilan bir qatorda plakat, illustratsiya, rassomlik san’ati sohasida ham mashhur.

**Ko‘p qatlamlı rangtasvir** – moybo‘yoq rangtasvirining muhim texnik ko‘rinishi (podmalyovka, yozuv, lessirovka). Yirik mavzuli kompozitsiyani, shu bilan birga uzoq davom etuvchi

ishni bajarish jarayonida ko‘p qatlamlı rangtasvir, moybo‘yoqli rangtasvirning yagona to‘liq texnikasi hisoblanadi. XIX asrning o‘rtalarigacha barcha buyuk rassomlar shu texnikani asos sifatida qo‘llashgan. Keyinchalik impressionistlar undan voz kechishdi.

**Ko‘rgazma** – badiiy asarlarni namoyish etish.

**Lessirovka** (nemischa lasieren – sir bilan qoplash ma‘nosida) – rangtasvir texnikasining bir turi bo‘lib, boshqa bo‘yoqlar qatlamini zikh holda qurigan tekislikda juda yupqa, baquvvat va xiraroq qoplash. Bunda ranglarning jarangdorligi, alohida yengilligi vujudga keladi.

**Lokal rang** – bu rang buyumning asl rangi, masalan, gipsdan ishlangan oq vazaning oqligi vazaning lokal rangi. Jismga xos bo‘lgan (uning bo‘yalishi) hech qanday o‘zgartirish kiritilmagan rang. Haqiqatda bunday bo‘lmaydi. Jism rangi hamisha yorug‘lik tushishi, rang kuchi, atrof-muhit, fazoviy yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgarib turadi va u lokal emas, balki shartli deb ataladi. Ba’zi paytlarda shartli rang deganda jism rangi emas, balki atrofdagi ranglarga nisbatan asosiy munosabatlarni olib, shartli rangning umumiyligi tusi tushuniladi.

**Manzara** – peyzaj – ma’lum bir joyning ko‘rinishi, tasviri; tasviriy san’at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko‘rinishlari (marina), daraxtzorlar, qirlar, shahar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining his-tuyg‘ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi. Manzara o‘rta asrlarda Xitoy, Yaponiya, Uyg‘onish davrida esa Yevropada rivoj topdi. O‘zbekistonda O‘. Tansiqboyev manzara janridagi jozibador asarlari bilan mashhur.

**Marina** – dengiz tasviri.

**Mastixin** – grekcha so‘z. Egiluvchan po‘latdan yasalgan maxsus asbob bo‘lib, rangtasvir ishslash jarayonida palitrani ortiqcha bo‘yoqlardan tozalash maqsadida va qurimasidan oldin noto‘g‘ri qo‘yilgan bo‘yoq qatlamini sidirib olib tashlash uchun foydalilaniladi.

**Moybo‘yoqlar** – o‘simgilik yog‘i bilan aralashtirilgan bo‘yoqlar: (lyon, lola – qizg‘aldoq yoki yong‘oqli). Moybo‘yoqlar yorug‘lik va havo ta’sirida asta-sekin qotib

boradi. Mato, taxta, karton kabi asoslar ko‘pincha moybo‘yoqda ishslash uchun gruntlanadi. Moybo‘yoq mo‘yqalamlarini tozalash uchun ularni kerosin, skipidar yoki benzinda tozalab, so‘ngrasovunlab issiq suvda yuviladi va qog‘ozga o‘raladi.

**Molbert** (nem. malbrett) – rassomlikda ishlatiladigan uch oyoqli dastgoh. Ramkaga tortilgan polotnoni yoki taxtani unga o‘rnatib rasm chiziladi. Uch oyoq deb ham yuritiladi.

**Musavvir** (arab – rassom) – turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

**Mo‘yqalamlar** – qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli. Mo‘yqalamlar dumaloq va yapaloq holda bo‘lib, olmaxon tukidan yoki qattiq qildan tayyorlangan bo‘ladi. Qattiq qildan qilingan mo‘yqalamlar moybo‘yoqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan, ammo ulardan tempera yoki guash bo‘yoqlarida ham foydalaniladi. Olmaxon mo‘ynasidan tayyorlangan mo‘yqalam-lar akvarelda keng ishlatiladi. Mo‘yqalamlar kattaligi raqam bilan belgilanadi. Tekis mo‘yqalamlarning raqamlari uning millimetrdagi kengligiga moslashtiriladi, dumaloq mo‘yqalamlar esa diametrga (millimetriga ham) mos ravishda bo‘ladi.

**Naturmort** (frans. nature morte – jonsiz tabiat) – tasviriy san’at janri. Gul, meva, qushlar, ro‘zg‘or buyumlari, ayrim mehnat qurollari, to‘kin dasturxon tasvirlanadi. Naturmort asarlari qadimdan ma’lum. Uning paydo bo‘lishi tasviriy san’atda realistik uslubning qaror topishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq. Birinchi namunalari qadimda Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm mozaikalarida uchraydi. Respublikamizda V. Ufimsev, M. Kurzin, Z. Kovalevskaya, Yu. Yelizarov, N. Kashina, R. Ahmedov, Yu. Taldikin kabi o‘nlab naturmort ustalari yetishib chiqqan.

**Nyuans** (frans. nyuanse) – nozik farq.

**Palitra** (frans. palette – plastinka, planka) – rassom bo‘yoq qoradigan taxtacha. Metall, chinni, ba’zan yog‘ochdan tayyorlanadi. Ma’lum bir rasm uchun xarakterli bo‘lgan rang, bo‘yoqlar ham palitra deb yuritiladi.

**Perspektiva** (lot. perspitio – ravshan ko‘raman) – narsalarni tekislikda tasvirlash qonun-qoidalarini o‘rganuvchi amalii fan. Rasm chizayotgan kishiga nisbatan narsalarning

holati, shakli, rangi ularning joylashishiga ko‘ra o‘zgaradi. Narsaning yaqindagi qismiga nisbatan uzoqdagi qismi qanday o‘zgarishini chiziqli perspektiva o‘rgatsa, narsalar uzoqlashgan sari rang jihatdan ham o‘zgarib borishini havo perspektivasi o‘rgatadi. Perspektiva Qadimgi Yunonistonda qo‘llana boshlagan. Uyg‘onish davrida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, Perro della Francheska va boshqa rassomlar perspektivadan muttazam foydalanganlar.

**Plener** (frans. – ochiq kenglik) – tabiat, tabiat manzarasi, muhit, tabiat quchog‘ida tasvirlash va uning o‘ziga xosligini mujassam etuvchi ifodani yaratish.

**Plener rangtasviri** – ochiq havodagi rangtasvir. Ochiq havoda yorug‘lik va havo ta’sirida ranglarni turlicha o‘zgarishini hisobga olib ishlangan etud. Bunda asosiy e’tiborni naturaning umumiyligini tus va rang holatlariga qaratish lozim (yoritishning kuchi, rangi va h.k.). Plenerdagagi etudning tus va rang munosabatlarini hal etuvchi jarayon hisoblanadi.

**Podmalevka** (dastlabki surtma ishlanmasi) – moybo‘yoq bilan podmalyovka va lessirovkadan keyin, matodagi asosiy bosqich. Keng ma’noda propiska so‘zini gohida podmalevka deb ham atash mumkin.

**Portret** (frans.portreit – tasvir) – real borliqda mayjud bo‘lgan yolg‘iz, ikki yoki bir guruh kishilar tasviri. Kishilar boshi, beligacha yoki butun gavdasi to‘la aks ettirilishi mumkin. Portret tasviriy san’atning eng muhim janrlaridan biri bo‘lib avtoportret turi keng tarqalgan. Rassom naturadan yoki xotiralar asosida, arxiv materiallariga tayanib portret yaratishi mumkin.

**Rakurs** (frans. raccoureir – qisqarish ma’nosida) – tasviriy san’atda turli narsalarni qisqartirib aks ettirish. Uning haqqoniy ko‘rinishining o‘zgarishiga olib keladi: keskin qisqarishlar jismning usti yoki tagidan kuzatganda namoyon bo‘ladi.

**Rangtasvir** – tasviriy san’atning asosiy ko‘rinishlaridan biri. Texnik jihatdan rangtasvir quyidagilarga bo‘linadi: moy, tempera, freska, mum, mozaika, vitraj, akvarel, guash va pastel. Ushbu nomlar rangtasvir usullarining qo‘llanishidan olingan. Rangtasvir asarining asosiy vazifasi shundaki, u rassomning ichki dunyosini to‘la ifodalaydi.

Rangtasvir quyidagi turlarga bo‘linadi: dastgohli, monumental, dekorativ, teatr dekoratsiyasi va miniatyura.

**Rang xususiyatlari** – rangli tusi yoki tus: qizil, ko‘k, sariq, sarg‘ish-yashil, yorug‘lik va to‘yinganlik (uning kulrangdan farqlanish bosqichi, ya’ni toza spektr rangiga yaqinlashish bosqichi). Rangtasvir jarayonida shu uch xil xususiyat bo‘yicha naturadagi ranglar solishtiriladi, ularning rangidagi farqlari topiladi va etudda mutanosib munosabatlarda aks etadi.

**Ranglavha** – yengil va tez ishlangan, uncha katta bo‘limgan o‘lchamdagи rangli etud. Bunday ranglavhaning asosiy vazifasi to‘liq ko‘ra bilishni shakllantirish, uning asosidagi rang munosabatlarini topa olish va to‘g‘ri aks ettirish. Ma‘lumki, tasvirni rangda ifodalash, naturaning asosiy ranglari jilosi o‘rtasidagi farqlarini proporsional yetkazib berish bilan belgilanadi.

**Simmetriya** – grekcha so‘z bo‘lib, o‘lchamlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosibligi. Simmetriyaning bir qancha turlari bor.

**Sovuq ranglar** – muzni, qorni, suvni eslatuvchi zangori, ko‘kish, yashil, to‘q binafsha va havo ranglar.

**Tempera** (ital. temperare – bo‘yoqlarni aralashtirish ma‘nosi) – rassomlikda keng tarqalgan usullardan biri. Binolarni bezashda, dastgohli san’at asarlarida keng qo‘llaniladi. Tempera bilan ishlangan kartinalar, bezaklar quyosh nuri va changdan yaxshi asralsa, o‘z rangini, tusini yaxshi saqlab qoladi.

**Ton** – yunonchadan «tonos», «kuchlanish», qalamtasvir yoki rangtasvir ishslash jarayonida buyum tusi yoki rangning yorug‘lik tushishi natijasida hosil bo‘ladigan yoritilishi, ochto‘qlik darajasi kuchiga aytildi.

**Triptix** (yunon. triptychos – uch buklangan) – yaxlit umumiyl sujet, mazmun va g‘oyani ifodalandigan uch kartina, grafika asari yoki rasmdan iborat san’at asari.

**Tus munosabatlari** – bo‘rtgan shakldagi jismlar moddiyligini bilish, ularning yorug‘lik munosabalarini ko‘rishga asoslanadi. Shuning uchun rasmning yorug‘lik munosabatlarini rassom o‘xshatish usuli bilan yaratishi lozim. Naturaga proporsional bo‘lgan jismlarning bo‘yalishi (materiali) oralig‘idagi tus munosabatlarining bo‘rtgan shakli

va tasvirlanishining yorug‘-soya gradatsiyasi natijasida rassom shaklni to‘g‘ri tuslashga, materialligini orttirishga, fazoviy chuqurlik hamda yoritilish holatiga erishadi.

**Fon** (lot. fundus – tub, asos), zamin – kartina va grafika asari, relyef va naqshda asosiy shaklning orqa ko‘rinishi, qo‘shimcha tasvir. Buyuk rassomlar portret fonida manzara aks ettinganlar, bu bilan shaxs yashagan muhitni ko‘rsatganlar. Relyef va naqshda shaklning jozibador chiqishiga yordamchi vosita bo‘ladi.

**Shtrix** (nem. strich – chiziq)

**Eskiz** (frans. esquisse) – xomaki tasvir. Badiiy asar, bino, yaratish jarayonida muallif ko‘zda tutgan maqsadini, uning shakli, holati, ko‘rinishini gavdalantiradigan tasvir. Ko‘pincha rasm bilan ifodalanadi. Moybo‘yoq bilan ishlangan, haykaltaroshlik eskizlari ham bo‘ladi.

**Etud** (frans. etude – mashq) – rassom naturani o‘rganish jarayonida unga qarab, kuzatib chizgan tasvir. Moybo‘yoq bilan ishlangan, grafik, haykaltaroshlik etudlari odatda kartina, haykal, grafika asarlari yaratishda tayyorgarlik materiali bo‘lib xizmat qildi.

**Etudnik** – rasm chizish uchun, mo‘yqalam va bo‘yoqlarni, etud – rasmlarni joylab qo‘yishga va etud ishlashga moslashgan maxsus ko‘chma yassi quti.

**Qo‘shimcha ranglar** – ranglarni aralashtirganda hosil bo‘ladigan omixta rang yoki rangning tusi, ohangi, to‘qligi, ochligi, qizil, sariq zangori ranglarni qo‘shish orqali olingan ranglar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullayev N.U. San'at tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1986.
2. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2/1. – T.: «San'at», 2001.
3. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. – T.: «O'zbekiston», 2006.
4. Abdirasilov S., Azimov B. Rangtasvir. – T.: «Musika», 2011.
5. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
6. Azimova B.Z. Naturmort tuzish va tasvirlash metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1984.
7. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at atamalari. – T., 2003.
8. Барщ Л.О. Наброски и зарисовки. – М., 1970.
9. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. – T.: G'. G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
10. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. – T.: «O'qituvchi» 1981.
11. Т. Батталини. Рисуем акварелью/от азов мастерства к тончайшим нюансам/. – М.: Эксмо, 2007, – 128 с.
12. Т. Battaglini. Castello s.r.l. – via Scarlatti 12-20090 Trezzano sul Naviglio (MI), Italia, 2005, издание на русском языке, 2007.
13. Charles Reid. Portrait painting in Watercolor. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, New York. 2012.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
Rangtasvirning rivojlanish tarixi .....	4
Rangtasvir ashyolarining xususiyatlari haqida	
(akvarel, guash, tempera va moybo‘yoq) .....	11
Akvarel bilan ishlash.....	11
Guash bilan ishlash .....	14
Amaliy maslahatlar.....	19
Tempera.....	20
Moybo‘yoqli rangtasvir .....	22
Amaliy maslahatlar.....	27
Rangtasvir haqida ma’lumot .....	34
Rangtasvirda qalamtasvirning ahamiyati .....	37
Rang uyg‘unliklari (asosiy va qo’shimcha ranglar).....	43
Rangtasvirda rang.....	45
Hajm, fazo va materialilik .....	51
Naturmort.....	60
Naturmort qo‘yilmasi .....	61
Naturmort kompozitsiyasi .....	64
Naturmortning tusli tasvirlanishi (grizayl) .....	100
Uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tuzilgan naturmort .....	104
Amaliy maslahatlar.....	109
Qisqa muddatli etudlar .....	110
Amaliy maslahatlar.....	114
Ranglari bir-biriga yaqin bo‘lgan buyumlardan	
tuzilgan naturmortning rangli etudi .....	115
Bir-biriga qarama-qarshi ranglardagi buyumlardan	
tuzilgan naturmortning rangli etudi .....	116
Uy-ro‘zg‘or buyumlari va matolar burmalari bilan	
tuzilgan naturmortning rangli etudi .....	120
«Kuz ne’matlari» mavzuidagi naturmort.....	121
Gipsli milliy naqshdan tuzilgan naturmortning	
rangli etudi.....	123
Turli xil ranglardagi matolardan tuzilgan naturmortning	
rangli etudi.....	125

Gipsli boshni grizaylda ishlash.....	126
Odam portretining rangli etudi .....	127
Odam boshini yelka qismi bilan tasvirlash (akovarel) .....	129
Kiyimli odam portreti.....	135
Odam qomatining rangli etudi .....	140
Ayol qomatidan rangli etud ishlash.....	144
Erkak kishini tasvirlash .....	147
Atamalarning izohli lug‘ati .....	150
Foydalanimilgan adabiyotlar .....	158

---

*O‘quv nashri*

*Sunatulla Abdirasilov, Nozim Tolipov*

## RANGTASVIR

*O‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv  
qo‘llanma*

Muharrir A. Ziyadov

Rasmlar muharriri J. Gurova

Texnik muharrir D. Salixova

Kompyuterda tayyorlovchi T. Abkerimov

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,

Mash’al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2017-yil 20-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi  $84 \times 108 \frac{1}{32}$ .

Ofset qog‘ozsi. «Times New Roman» garniturasi. Kegli 12,5. Shartli bosma tabog‘i 5,0. Nashr tabog‘i 4,65. Adadi 427 nusxa. 681-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,

Mash’al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.